

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

ABDUFATTOX ABDUGAPPAROV

CHOLG‘U IJROCHILIGINI O‘QITISH USLUBIYOTI

OTM bakalavriat bosqichi talabalari uchun darslik

Ta‘lim yo‘nalishi 5111000 – Kasb ta‘limi (5150700 – Cholg‘u
ijrochiligi (turlari bo‘yicha)

Toshkent 2021

UO‘S: 852.32.651

KBK: 85.952(Y36)

A – 11

Abdugapparov A. Cholg‘u ijrochiligini o‘qitish uslubiyoti

Darslik . - Toshkent: « **Fan Ziyosi** » nashriyoti. 2021y. -162 bet

Ushbu kitob musiqiy oliy o‘quv yurtlarining An’anaviy ijrochilik ixtisosligi bakalavr bosqichi talabalariga “Cholg‘u ijrochiligini o‘qitish uslubiyoti” fani uchun asosiy darslik sifatida mo‘ljallangan.

Darslikda O‘zbek milliy cholg‘ularining kelib chiqish tarixi, qo‘llanilishi, turlari, jismoniy va ruhiy asoslari, ularda tovush hosil qilish, ijrochilik nafasi, ijro imkoniyatlari, turli hajmdagi asarlar ustida ishlash va ansambl ijrochiligi xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, bu kitobdan musiqiy ovoz rejissyorligi ixtisosligi bakalavr bosqichi talabalariga ham «Musiqiy akustika» fanidan qo‘shimcha adabiyot sifatida foydalanish mumkin.

Darslik Davlat ta’lim standartlariga binoan san’at yo‘nalishidagi o‘quv reja va dasturlar asosida tayyorlangan.

Muharrir:

M.Ahmedov O‘zbekiston davlat konservatoriyasi pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

R.Qosimov, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professor

A.Umarov, R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan Musiqa akademik litseyi professor

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-7470-0-5

© «Fan ziyosi» nashriyoti 2021

KIRISH

O'zbek xalq cholg'ularida zamonaviy ijrochilik san'ati o'z taraqqiyotining ko'p asrlik an'alariga ega. Bu meros ildizlari qadim-qadim davrlarga borib taqaladi.

Eramizning boshlarida turli-tuman xalq cholg'ularidan kundalik turmushda, saroy hayotida, madaniy bayram marosimlarida, xalq sayllarida foydalanilgan. Xalq cholg'u asboblari asrlar davomida insonlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib, undagi ijro tadrijiy ravishda rivojlandi va takomillashdi.

O'rta asrlarda musiqa ijrochiligi bir-biridan farqli o'laroq, uch xil mustaqil uslub kasb etadi. Ularning birinchisi Farg'ona-Toshkent ijrochilik yo'nalishi, ikkinchisi Xorazm ijrochilik yo'nalishi, uchinchisi Buxoro-Samarqand ijrochiligi uslubidir.

An'anaviy ijrochilik san'ati bugungi kunda ham tinglovchilarning e'tiborini qozonmoqda. Shu bois musiqa madaniyatining ijtimoiy hayot bilan bevosita aloqadorligini nazarda tutgan holda, uni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Musiqa ibtidoiy jamiyatda xalq turmushi va mehnat jarayoni bilan uzviy bog'langan: Bunda cholg'u asboblari keng qo'llanilgan. Masalan, «Navro'z» tantanalarida cholg'uchilar tanbur, dutor, nay, chang, rubob, doira (daf, childirma) singari cholg'ularida ajoyib kuy va qo'shiqlar ijro etishgan.

2. Eng qadimgi xalq og'zaki musiqiy, she'riy ijodiyotning shakllanishi xalq cholg'ulari taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

3. O'rta asrlarda xalq cholg'ulari, turlarining paydo bo'lishi va qo'llanilishi jamiyat taraqqiyoti yo'nalishining samarasi bo'lgan.

4. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi xalq cholg'ularida ijrochilik san'atining rivojlanishi yangi ijtimoiy-siyosiy sharoit hamda Evropa madaniyati ta'siri bilan bog'liqdir.

5. 1917 yilgi to'ntarishdan keyingi davrda ijrochilik san'atining rivojlanish davri.

Shunday qilib, o'zbek xalq cholg'ularining paydo bo'lishi va takomillashishining boy tarixi bilan bog'liq bilimlar yosh ijrochilarga yakkanavoz, ansambl ijrochiligi yo'llari va ijrochilik texnikasi imkoniyati taraqqiyoti qonuniyatlarini ochishga yordam beradi. Ushbu darslik bo'lajak mutaxassisni mashhur xalq cholg'uchilari, ijrochilik san'ati ustalarining pedagogik va ijrochilik prinsiplari bilan, shuningdek, Respublika bastakorlarining o'zbek xalq cholg'uchilari uchun yaratgan musiqiy asarlari bilan yaqindan tanishishlariga ko'maklashadi.

Tahsil Respublikaning oliy o'quv yurtlarining talabalari va o'rta maxsus musiqa bilim yurtlari o'quvchilariga o'zbek cholg'u ijrochiligi tarixi va nazariyasini o'rgatish, ijodiy yoshlarning badiiy-estetik dunyoqarashini xamda tanlagan sohasining turli yo'nalishlarini tushunishlari, o'z yo'lini topa olishlari uchun xizmat qiladi.

I MODUL. CHOLG‘U IJROCHILIGINI O‘QITISH USLUBIYOTI

1.1. Tarixiy-amaliy ma‘lumotlar.

Reja:

1. Cholg‘u ijrochiligini o‘qitish uslubiyoti fani tarixiy taraqqiyoti
2. Manbalar va adabiyotlar bilan tanishish

Kalit so‘zlar: xalq cholg‘ulari, cholg‘uchi, tanbur, nay, sao, tutek, kaval, sibizga, ney, deka, rezanator, maqom, lad.

1. Cholg‘u ijrochiligini o‘qitish uslubiyoti fani tarixiy taraqqiyoti

Xalq cholg‘ulari uzoq o‘tmishda paydo bo‘lgan. Ma‘lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg‘ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinmoqda. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg‘ular paydo bo‘lgan. Chunki eng qadimgi mehnat qo‘shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Undan keyin shovqinli cholg‘ular paydo bo‘ldi, ijrochilar qarsak chalib ritmni ta‘kidlagan, shovqinli cholg‘ular ta‘sirini ko‘paytirganlar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o‘ziga xos, takrorlanmas go‘zal holatni vujudga keltirar edi.

Qadimgi Sharq madaniyati bag‘rida, o‘zbek xalq cholg‘ulari shakllandi. Ular ko‘p asrlik taraqqiyot davomida o‘ziga xos xususiyatlarni, tovush tusini saqlab qoldi, o‘ziga xos tuzilishi tufayli, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, qo‘bizlar an‘anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Quldorlik tuzimi davrida Maroqand, Niso, Tuproqqal’a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar hududida olib borilgan qazilma ishlar chog‘ida badiiy hunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg‘ularining tasvirlari topildi. Quldorlik jamiyati O‘rta

Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'ular ham takomillashdi.

Asrimizning 30-40-yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar (S.L.Tolstov, V.A.Vyatkin, M.B.Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lindi.

Topilgan madaniy yodgorliklarda turli xil musiqa asboblari: tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, nay, surnay, karnay, doirasimon cholg'ular chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan.

Xalq cholg'ulari O'rta Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgani bizga ma'lum. Bayramlar ko'proq yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoda «Navro'z», «Lola sayli», «Hosil bayrami», «Qovun sayli», «Uzum sayli» kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg'u ansambllari, xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doira, nog'ora va urma zarbli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan.

IX asr oxirida Somoniylar mahalliy feodal sulolasi O'rta Osiyoning kattagina qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Somoniylar davlatining poytaxti Buxoro yirik madaniy markazga aylandi. Bu yerda adabiyot va musiqa taraqqiy etdi. Hayot sharoitining o'zgarishi tufayli musiqa san'atining ijtimoiy ahamiyati oshdi. Shaharliklar va yuqori tabaqa sinflari turmushida musiqaning roli sezilarli kuchaydi. O'sha paytlardayoq yakkanavoz, ansambl musiqachiligi va raqsni o'z ichiga olgan vokal cholg'u musiqa turkumlari mavjud edi.

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, cholg'uchilar nafaqat bir necha turdagi musiqa asboblari chala olgan, balki o'zlari ham musiqa bastalaganlar. Cholg'uchilar o'z davrining yetuk musiqachilari va

shoirleri ham bo'lishgan. O'rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz-shogird an'analari qaror topdi va rivojlandi. Ayni shu paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib cholg'u asboblarning yangi namunalari kashf etishdi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar.

Forobiyning (873-950) "Katta musiqa kitobi" ("Kitob al-musiqa al-kabr"), ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitobi ush-shifo") qomusidagi "Musiqa haqidagi risola", al-Xorazmiyning (X asr) "Bilimlar kaliti", Sayfuddin Urmaviyning (1216-1294) "Olijanoblik haqida kitobi" yoki "Sharofiya kitobi", Jomiyning (1414-1492) "Musiqa haqidagi risola" kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan. Sayfuddin Urmaviy iste'dodli ud cholg'uchisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmaviya shahrida tug'ilgan. Sayfuddinining eng katta yutug'i lad (modus)larning mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidadir. Ibn Zaylining (1044 yilda vafot etgan) "Musiqa haqidagi to'liq kitob"i ("Kitob ul-kabir fil-musiqiy") uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni – musiqada lادلarni xarflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi. Abduqodir Marog'iy (XV asr), Abduqodir ibn-Royibiy (Marog'iy) Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan, lekin hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida-Samarqandda o'tgan va Hirotda vafot etgan. "Musiqa ilmida ohanglar to'plami" ("Jami al-alhan fi-ilm al-musiqiy") risolasida musiqa haqidagi ta'limotni-kamoncha, yetti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg'usi borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi. Al-Xusaynning (XV asr) "Musiqiy kanonlar" risolasida asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqa cholg'usi-dutor

haqida ma'lumot berilgan. Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) Eronlik musiqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozi musiqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblagan. XVII asrda yashagan Buxorolik musiqashunos Darvish Ali o'z risolasida tanbur, chang, qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak kabi musiqa cholg'ulari haqida batafsil ma'lumotlar bergan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qiymatga ega. Abu Nasr Muhammad Forobiyning mashhur asari «Kitob al – musiqa al -kabir» («Musiqa haqida katta kitob») ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi rolini o'rganishga ahamiyat beradi va u: «Jangu - jadallarda, raqslarda, to'y - tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq - muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor» deb yozgan edi.

Forobiyning yuqoridagi fikri cholg'ularning nafaqat saroy ayonlari, balki shahar va qishloq aholisi, hunarmandlar orasida shuningdek, musiqa madaniyatida yetakchi rol o'ynaganligini isbotlaydi.

Kitobning ikkinchi qismi boshdan-oxir o'sha davr musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan. Unda lyutnya, tanbur, nay, rubob, chang, qonun va boshqa musiqa cholg'ulari izchil va batafsil ta'riflanadi. Forobiy torli, mizrobli lyutnyani o'sha davrda eng keng tarqalgan cholg'u hisoblagan. Lyutnya o'ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lado)lar joylashgan. IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholg'u ko'pgina Sharq mamlakatlarida, Kavkaz orti xalqlari orasida hozirgi kungacha saqlanib kelyapdi. Zamonaviy ud namunalari Toshkent Davlat konservatoriyasining sohaviy-tajribaviy sinovxonasida mavjud.

«Musiqqa haqidagi katta kitob»da Forobiy yana bir cholgʻu asbobi-tanburni ham taʼriflaydi. Olimning fikricha, tanbur (dilni tirnash) udga eng yaqin turdagi cholgʻulardan biridir.

Tanburda torlar noxun (metaldan yasalgan maxsus chertmak-tirnoq) yordamida chertiladi. Tanbur xuddi ud kabi keng tarqalgan va xalq sevgan cholgʻudir. Tanburning ikki yoki uch jez tori boʻlgan. Uning ikki turi maʼlum: Xuroson va Bagʻdod tanburlari. Bagʻdod tanburlarining maqomlari kamroq (beshta), cholgʻu dastasi kaltaroq boʻlgan. Xuroson tanburining maqomlari koʻp boʻlgan, dastasida cholgʻu boʻgʻzidan to dastaning yarmigacha oraligʻida pardalar joylashgan. Tanburning bu turi shu kungacha oʻz shaklini yoʻqotmay, musiqa ijrochiligi amaliyotida yakkanavoz hamda ansambl cholgʻusi sifatida amaliyotda foydalanib kelinyapti.

Forobiy, shuningdek, nayni ham taʼriflaydi. U turli xil damli cholgʻularini ovoz hosil qilishi prinsipiga koʻra paysimon guruhga kiritadi.

Ulardan biri oddiy nay yoki bir yoʻnalishda joylashgan koʻp teshikli nay. Bu turdagi naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda ham Sharq xalqlari orasida mavjud. Uni vetnamliklar sao, tojiklar tutek, tatarlar kaval, qozoqlar sibizga, ozarbayjonlar ney (juda kam uchraydi), qirgʻizlar uoo, choor (choʻponlarning cholgʻu asbobi), oʻzbeklar nay deb ataydi. Olim koʻpincha tut daraxtidan ishlanadigan keng tarqalgan surnay haqida ham toʻxtaladi.

Forobiy, shuningdek, dunay (mizmar)ni ham tilga oladi. Dunay hozirgi qoʻshnay yoki turkman xalq cholgʻusi gosha-dilli tyuy dyuk (qoʻsh qamish naychalardan tuzilgan cholgʻu)ga oʻxshaydi.

Forobiy risolasida oʻzi yashagan davrda mavjud boʻlgan rubobni ham batafsil taʼriflaydi. Oʻsha davrdagi rubob ham hozirgi Qashqar rubobiga oʻxshab, rezanator va ancha uzun dastadan tuzilgan. Ikki xil chertma torli rubob mavjud boʻlgan. 1 yogʻoch dekali va asosiy qismi yogʻochdan, 2 pastki qismi charmdan ishlangan dekali.

Forobiy shahodat berishicha, chang ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholgʻulari turkumiga kiradi. Oʻsha davrdagi changning 15 tori boʻlgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oraligʻiga teng tovushqatorga ega boʻlgan. Risolada taʼriflangan barcha cholgʻular ashula, raqs, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga joʻr boʻlishda foydalanilgan. Forobiyning guvohlik berishicha, ud cholgʻusi ansambl ijrochiligida yetakchi rol oʻynagan. «Cholgʻu asboblari haqida kitob» da olim tanbur, rubob, chang kabi cholgʻularini udda chalinayotgan kuyga yoki yakkanavoz xonandaga uygʻun joʻr boʻlish uchun sozlash usullarini tushuntiradi. Shunday qilib, Sharqning ulugʻ allomasi musiqa ilmining bir boʻlimi sifatida cholgʻularni oʻrganuvchi cholgʻushunoslik sohasiga asos soldi. Bu soha keyinchalik boshqa olimlarning asarlarida ham keng boyitildi va rivojlantirildi.

Yashagan davriga koʻra Buyuk olim ibn Sino Forobiyga juda yaqin. Uning "Davolash kitobi" deb nomlangan yirik qomusning "Musiqa haqida risola" bobida oʻsha davrning musiqachiligiga oid ilmiy-falsafiy bilimlari bayon etilgan. Bu risolalarda cholgʻular taʼrifiga anchagina oʻrin ajratilgan. Ibn Sino oʻz davri musiqalarini ikki guruhga boʻladi: mizrobli, noxunli (barbod, tanbur, rubob) va butun rezanator qopqogʻi boʻylab tortilgan ochiq torli cholgʻulari (shohruh, chiltor, lira, chang, arfa).

Oʻsha davrda Sharqning taniqli mutafakkiri Sayfiuddin Urmaviy musiqa ilmi tizimi (sistemasini) rivojlantirdi. U usta cholgʻuchi, xonanda va mohir bastakor sifatida mashhur edi. Udda olib borgan tajribalariga tayanib, olim oʻz nazariy qoidalarini bayon etdi. Urmaviyning "Taqvadorlik kitobi"da cholgʻu asboblari ichida ud eng mashhur va eng zamonaviyidir deb taʼkidlaganlar. Udning besh juft tori kvarta tartibidagi 7 ta maqomi (ladi) boʻlgan. Torlari bam, masnas, masna, zir va eng yuqorisi hadd deb atalgan. Besh qoʻsh torli takomillashgan ud keyingi paytlarda ham oʻz tuzilishini saqlab qolgan. Udning kvartaga sozlangan besh qoʻsh tori va yetti maqomi (ladasi) haqida Sheroziy (1236-1311), Jomiy (XV asr), al-Husayniy, Marogiy,

ibn Sinolar ham yozishgan. Jomiyning "Musika haqidagi risola"sida keltirilgan ud dastasining to'la chizmasi uni sozlash haqida to'liq tasavvur beradi. Olimning tasdiqlashicha mavjud 12 maqom qadimiy yetuk musikaning asosidir. Jomiy musikaning tinglovchilariga ta'siri haqida to'xtalib, uning chuqur ruhiy va ma'naviy ahamiyati bor, deb hisoblaydi.

XIII-XVII asrlarda yaratilgan risolalarda chang, qonun, nuzxa, rubob, tanbur kabi torli cholg'ular, shuningdek, damli cholg'u nayning ta'riflari berilgan.

Darvish Alining (XVII asrda) Buxoroda yaratilgan musiqaga doir risolasi an'anaviy cholg'ular haqidagi ma'lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Unda musika madaniyati, chunonchi, O'rta Osiyoning yirik shaharlarida mavjud bo'lgan cholg'ular hamda mohir ijrochilar haqida nodir ma'lumotlar mavjud.

Darvish Alining risolasi XVI-XVII asrlar O'rta Osiyo musiqasini o'rganish uchun qimmatbaho manbadir. Mazkur asarda mashhur xonanda va cholg'uchilar, bastakorlarning ijodiy tarjimai hollari bayon etilgan.

Darvish Ali o'tmishdoshlari singari, torli mizrobli cholg'ular orasida tebranish ohangiga ko'ra eng yaxshisi sanalgan udni cholg'ular "shohi" deb atadi. Risolada yozilishicha, chang cholg'uchilar homiysi Zuhraga bag'ishlangan.

Ta'riflangan changning etti maqom ijrosi uchun yigirma olti torli va yetti pardasi bo'lgan. Bulardan tashqari, risolada qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak, musika, ekbon-nay, (damli, charmli), Xitoyda tarqalgan ruxavza (olti tordan iborat noxunli) kabi cholg'ular ham tilga olingan.

Darvish Ali ta'rif bergan cholg'ulardan yettitasi, tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qo'biz, g'ijjak o'sha davrda keng tarqalgan cholg'ular edi.

Darvish Alining ma'lumotlari musika amaliyotida dastlab ansamblda uyg'un kalorit hosil qiladigan torli-noxunli va torli-kamonchali cholg'ular qo'llanilganligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi.

Risolada changchi Dilorom, naychilar Abduqodir va Xo'ja Abudullohlar, Mavlono Qosimi- Rabboniy, Sulton - Ahmadiy - "devona" rubobchilar, aka-uka Shayx Abu - Bakri Rabboniy va Shayx Behduchi, dono qonunchi shayx Shamsi Rabboniy va ko'pgina boshqa mashhur ustalarning nomlari tilga olingan.

Darvish Alining guvohligi yana shunisi bilan qimmatliki, u qayd etgan cholg'ularning kattagina qismi (nay, surnay, chang, qonun, rubob, tanbur, g'ijjak, qo'biz, doira, nog'ora, ud) O'rta Osiyoning hozirgi O'zbekiston, Tojikiston va boshqa Respublikalarida, shuningdek, Ozarbayjonda bizning kunlarga saqlanib keldi va u takomillashmoqda. Ushbu musiqa cholg'ulari uzoq vaqt mobaynida o'zbek xalqining madaniy turmushidan mustahkam o'rin olib, uning madaniy xayotida keng qo'llanib kelingan. Shunday ekan, bu cholg'ularni o'zbek xalq cholg'ulari, deb atash o'rinlidir. Abdul Fazl Boyhaqiy (XIV asr) asarlarida torli mizrobli (rud, barbad, tanbur), damli va urma zarbli cholg'ular (karnay, litavra va baraban) singarilarning nomlari keltirilgan.

Ma'lumki, Sharq adabiyotida o'tmishda shoirlar asarlariga javob yozish («nazira») sistemasi keng qo'llanilgan. Ko'plab «Xamsa» lar ham shu yo'sinda yaratilgan. Navoiy o'zining «Sab'ai sayyor» («Xamsa» dostonlarining biri) dostonida Bahrom Go'r haqidagi qadimiy afsonani, yangicha talqin etdi. Asar qahramoni - chang cholg'uchisi Dilorom deb atalgan. Shoir uning cholg'usini musiqa timsoli sifatida gavdalantirgan.

Zahriddin Muhammad Boburning (1483-1530) e'tirof etishicha, Alisher Navoiy o'z davrida ko'plab ud cholg'uchilarning o'z iste'dodlarini namoyon etishiga ko'maklashgan. «Boburnoma»da o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilarining nomlari zikr etilgan. Bobur, shuningdek, Shoh Kulmiy-G'ijjakiy, Husayn Udiy, Xo'ja Abdulloh Marvarid Qonuniy kabi mohir ijrochilarni ham tilga oladi.

Navoiy davrida nay, ud, g'ijjak, qonun, karnay, surnay, nog'ora, doira, chang ijrochiligi keng tarqalgan edi. Ularning hammasi ansambl

ijrosida ham, yakka ijroda ham birdek qo'llanilgan. Chang yakka cholg'u sifatida alohida ajralib turgan.

XV-XVII asr yozma yodgorliklari ma'lumotlarini qiyoslab shunday xulosaga kelish mumkinki, bu davrga kelib, O'rta Osiyoda xalq cholg'ularida ijrolik madaniyati o'z kamolotiga yetdi. O'zbek xalq cholg'ulari ijrochilari ayni chog'da o'zlari ham musiqa asarlari yaratganlar. O'sha paytdayoq mohir chang, ud, g'ijjak, qonun, nay, tanbur, bulaman ijrochilari va yetuk xonandalari bo'lgan, ular o'ziga xos ansambllar tuzishgan. Shuningdek, yakkanavoz ijrochilik ham rivojlangan.

Vosifiy o'z «estaliklar» ida treldek ajoyib uslub o'ylab topgan qonun cholg'uchisi Hoji Abdullo Marvarid nomini keltiradi. U bastalagan kuy va qo'shiqlar xalq orasida keng tarqalgan. Shunday qilib, XIV-XVII asr tasviriy san'atida va adabiy merosida ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaluvchi musiqa cholg'ulari asosiy tiplarining barqarorligini tasdiqlovchi boy material bo'lgan.

O'rta Osiyo olimlarining musiqa haqidagi risolalari, badiiy adabiyot, rassomchilik bizning kunlarga yetib kelgan o'zbek xalq cholg'ulari tarixiy taraqqiyotining uzun zanjirdagi ayrim uzilgan halqalarini qaysidir darajada tiklash imkonini beradi. Necha yuz yillar o'tdi, musiqa cholg'ulari esa yakka, ansambl va orkestr ijrochiligida o'z o'rnini egallab, bugungi kungacha yashab kelmoqda.

XVII-XIX asrlarda cholg'ular batafsil ta'riflangan yirik asarlar yaratilmadi. Bu ko'proq feodal tarqoqligining kuchayishi bilan bog'liq. Ulkan davlat ayrim-ayrim xonliklarga bo'linib ketadi. (Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari). Bu esa musiqa san'ati taraqqiyotida aks etmay qolmadi. O'zbek musiqa madaniyati mahalliy xususiyatlar kasb eta boshladi. O'ziga xos musiqa cholg'ulari shakllandi. Musiqa turlaridan-maqomlar bundan buyon har xonlikda o'ziga xos yo'nalishda takomillashdi. Maqom ijrochilari zarurat yuzasidan o'zgarishlar kiritishdi. Shunga qaramay, musiqaning umumiy xususiyatlarini saqlab qolishdi. Har bir ijrochi maqom ijrosiga ijodiy yondashib, musiqa

ijrosiga o'ziga xos takrorlanmas jihatlar kiritdi. Og'zaki tarzda cholg'ularni saqlab qolish an'anasi maqomning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, busiz uning yashab qolish va so'nggi taraqqiyotini tasavvur etish qiyin. Har bir xonlikda o'ziga xos bir yo'nalishda xalq musiqasining yangi turlari yaratildi; bayramona, kuylar, xalq tomosha kuylari (dorbozlik, ko'g'irchoqbozlik) yangi tipdagi raqs kuylari. Bu kuylar o'zining quvnoqligi, sho'xligi bilan bir-biridan farq qilib turgan va keng xalq ommasini o'ziga jalb etgan.

2. Manbalar va adabiyotlar bilan tanishish

XVII asr oxiri va XIX asr boshlarida o'zbek musiqa madaniyatida xalq va professional musiqa san'atining quyidagi ko'plab yangi turlari takomillasha boshladi; katta ashula, katta o'yin, Shodiyona, Navro'z, Mavrigiy, Shashmaqom, Chor maqom (unga Dugoh, Husayniy, Chorgoh, Bayot, Gulyori-Shahnoz kirgan). Joylarda mavjud musiqa cholg'ulari va ijrochilarga bog'liq holda turlicha cholg'u ansamblari tuzilgan. Ko'p hollarda xalq cholg'ulari ansambl tarkibiga g'ijjak, tanbur, dutor, chang, nay, qo'shnay, doira kabi musiqa cholg'ulari kiritilgan.

Sozanda olti turkum asarlardan iborat Shashmaqom ayniqsa mashhur bo'lgan. U O'rta Osiyo xalqlari syuita (turkum) shaklidagi professional musiqasining uzoq taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan. I.Rajabov yozadi: Shashmaqom olti xil turli lad sistemalaridan iborat, ularning har biri, o'z navbatida, mushkilot (cholg'u) va nasr (ashula) bo'limlaridan iborat bo'lgan quyidagi maqomlarga (qismlarga) bo'linadi:

«Rost», «Buzruk», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq»

Har bir maqom 20 tadan 40 tagacha katta-kichik qismlarni o'z ichiga oladi. Hammasi bo'lib turkumda 250 ga yaqin mushkilot va nasr qismlari bor. Bir maqomning ijrosi bir necha soat davom etgan.

Xalq cholg'ulari xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Xalq cholg'ulari haqidagi tasavvurlarni badiiy asarlardagi musiqa cholg'ulari ifodalari, kitob miniatyuralaridagi cholg'uchilar tasviri boyitadi. Firdavsiy, Sa'diy, Navoiy, Dehlaviylarning asarlarida 60 dan ziyod xalq cholg'ularining nomi zikr etilgan.

Maqomlar asosan saroy ayonlari huzurida muayyan vaqtda yoki muayyan sharoitlarda ijro etilgan. Hatto mohir qo'shiqchilarning o'ziga xos musobaqasi (ayniqsa, avjlarni ijro etishda, shuningdek, yangi qismlarini to'kishda) tashkil etilgani ma'lum.

Musiqa ijrochiligi san'atida maqom janrini tiklash va rivojlantirish davom etdi. Maqom o'zining ohang va ritm qonuniyatlariga ko'ra xalq qo'shiqlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, faqat qamrovining kengligi bilan farqlanar edi. Odatda, har bir maqom ikki katta qismga bo'lingan.

Birinchisi – faqat cholg'ularda ijro etilgan qismi bo'lib mushkilot deb atalgan, ikkinchisi – cholg'ular jo'rligida aytiladigan ashula qismi bo'lib, nasr deb atalgan. Nasr o'z ichiga raqs kuyi-uferni ham olgan.

Cholg'uchilar orasida musiqa tovushlarini yozib ko'rsatadigan maxsus belgilar sistemasi notatsiya yaratishga intilish paydo bo'ldi. Buni amalga oshirish shoir-musiqachi Pahlavon niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy 1825-1879) ga nasib etdi. Iste'dodli musiqa ijrochisi mohir tanburchi va g'ijjakchi Paxlavon niyoz Mirzaboshi sayohat chog'ida nota bo'yicha kuy chalayotgan cholg'uchilarni ko'rib hayratga tushdi. Mirzaboshi - Komil Xorazmiy Xorazmga qaytishi bilanoq ilgaridan diliga tugib yurgan niyati maqomlarni yozib olishga ilhom bilan kirishdi.

Paxlovonniyoz Mirzaboshi Komilning shogirdi Muhammad Yoqub Xarratov (1867-1939) mashhur tanburchi edi. U nafaqat chog'uchilik san'atini, balki hattotlik san'atini ham mukammal egallagan edi. Iste'dodli cholg'uchi Komil Xorazmiy rahbarlik qilgan saroy xalq cholg'ulari ansambilining sozandasi bo'lgan Muhammad Yoqub Xarratov (Matyoqub Xarratov) tanbur notatsiyasini tuzishda va

Xorazmcha maqomlarni yozib olishda qatnashgan. Ustozidan Xorazmning maqom turkumlarini qabul qilib, ularning saqlanib qolishiga katta hissa qo'shgan.

Muhammad Rahimxon (1806-1825) saroyida ishlagan mashhur tanburchi va qo'shiqchi Niyozxo'ja Hojining ijodiy va ijrochilik faoliyati Xivada kechdi. U Xorazm musiqa madaniyatiga katta e'tibor berdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon shahri mashhur cholg'uchilar to'plangan markazga aylangan edi. Bu yerda Usta Xudoyberdi rahbarligida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik maktabini o'rganish bo'yicha o'ziga xos maktab yaratildi. Farg'ona cholg'ulari buxorocho shashmaqomni faol o'zlashtira boshladi. Ota - Jaloliddin Nosirov (1845-1928) maqom ijrochisi, taniqli o'qituvchi, cholg'uchi, usta tanburchi edi. U dastlab musiqa ilmini onasidan o'rgandi, so'ngra maqomlarning zukko bilimdoni va mohir ijrochisi bo'lgan otasidan ta'lim oldi. Ota-Jalol Nosirov uzoq yillar mobaynida Amir Olimxon (Buxoro), Amir Muzaffarxon (Shahrissabz)," Amir Otajonlar (Karmana, hozirda Navoiy)lar saroyida o'zbek xalq cholg'ulari ansamblining doimiy rahbari va xonandasi bo'lgan.

Ota G'iyos Abdug'ani (1858-1924) o'zbek musiqasining bilimdoni, Buxorolik tanburchi edi. U Shashmaqomning Mushkulot qismini yaxshi bilgan va har bir maqomni unga xos usul va xususiyatlarni saqlab qolgan holda ijro etgan.

Xoji Abdulaziz Rasulev (1852-1936) o'zbek va tojik musiqasining taniqli ijrochilaridan biri, mohir tanburchi Hoji Raximqulning shogirdi. 1888 yilda Buxoroga bordi. U erda Ota-Jaloliddin Nazirov raxbarligi ostida bir yil ichida Shashmaqomni mukammal o'rgandi. A.Rasulov Farg'ona, Samarqand, Toshkent shaharlarida o'zbek xalq musiqasi va maqomlarini faol targ'ib qildi. U o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi rivojiga tanburchi, dutorchi va xonanda sifatida salmoqli hissa qo'shib, xalq va musiqa jamoatchiligining mehr-muhabbatiga sazovor bo'ldi.

Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan musiqachi-cholg'uchilar o'z ijodiy yo'lini boshlab o'z davrida ijodiy kamolotga yetdilar. Ular hammasi ma'rifatchilar, yosh musiqachilarning ustozlari edilar. Ularning pedagogik karashlari, ta'limotlari o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik bo'yicha yangi pedagogik hayotiy manba bo'lib, o'lmas meros sifatida saqlanmoqda.

1917 yildan keyin o'zbek musiqa san'ati jadal va jo'shqin taraqqiy qila boshladi. Birinchi o'n yillikdayoq musiqa ta'limi, fol'klorshunoslik, ijrochilik san'ati sohalarida muayyan yutuqlarga erishildi.

Musiqa o'quv yurtlari - Toshkentdagi Turkiston xalq konservatoriyasi (1918) va uning Samarqanddagi, Farg'onadagi (1919), Buxorodagi (1920) filiallarida katta ishlar amalga oshirildi. Ularda asosan o'zbek xalq cholg'ularini hamda ba'zi Ovrupacha musiqa cholg'ulari (fortepiano, skripka va damli cholg'ulari) ni chalish o'rgatilar edi. Bu musiqa bilim yurtlari tom ma'nodagi konservatoriya bo'lmasa-da, biroq, o'tgan davr musiqa madaniyati ilmini o'rganish imkoniga ega bo'lmaganlarga sodda musiqa nazariy ilmi hamda ijro san'atida saboq berilar edi. Shu tufayli yosh Respublikaning ko'pgina shaharlarida musiqa havaskorligi keng quloch yoydi.

O'zbek san'atining asoschisi, dramaturg, bastakor, muallim, jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy musiqa san'ati rivojiga katta xissa qo'shdi.

1917 yilgacha bo'lgan davrdagi xalq musiqachi va ijrochilari yaratgan an'analar cholg'ularning keyingi avlodi ijodida tarkib topdi va davom etdi. Musiqachi-ijrochilar qayta tuzilgan madaniy-ma'rifiy tashkilotlarda ishga kirishib ketdi.

Taniqli tanburchi va xonanda Shorahim Shoumarov 1919 yilda Toshkentdagi «Namuna» maktab-internati qoshida xalq cholg'ulari ansamblini tuzdi. Bu ansambl keyinchalik Toshkent musiqa texnikumini tashkil qilish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

20-yillarda o'quv yurtlari, zavodlar, fabrikalar qoshida, qishloq joylarda «Ko'k ko'ylak», «San'atchi qizlar», «Sanoyi nafisa» kabi musiqiy jamoalar tuzildi. Tashkil qilingan ijodiy jamoalar tarkibida naychi, changchi, dutorchi, tanburchi, g'ijjakchi, doirachi, nog'arachilar va qashqar rubob sozandalari bo'lgan xalq cholg'ulari ansambllari ham bor edi.

Xalq cholg'ulari ansambllari Farg'onada, Andijonda, Samarqandda ham tuziladi. Ularga mashhur cholg'uchilar usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Ahmadjon Umirzoqov, Yusufjon Shakarjonov, usta Ro'zmat Isaboev, Matyusuf Xarratov, Usta Toyir Marufjon Toshpulatov, Muhiddin Mavlonovlar rahbarlik qilishgan. Ularning samarali ijodi tufayli, o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atidan ko'pchilik bahramand bo'ldi.

1936 yilda Moskvada bo'ladigan dekada munosabati bilan Qori Yoqubovga Davlat filarmoniyasini tuzish topshiriladi, u filarmoniyaning birinchi direktori etib tayinlanadi. Qori Yoqubovning va boshqa musiqa san'ati arboblarning qat'iyligi tufayli, Toshkent Davlat Konservatoriyasini tuzish xaqida qaror qabul qilinadi.

O'zbek xalq musiqasi an'alarining davomchisi, Toshkentlik mohir xalq cholg'uchisi-dutorchi, tanburchi, naychi Yunus Rajabiyning (1897-1976) ijodiy faoliyatiga ma'rifatparvarlik keng musiqiy-ijtimoiy xususiyatlar xos edi. Besh jildlik o'zbek xalq musiqasini yozib olib, nashrga tayyorlaganligi Yunus Rajabiyning ko'p yillik ijodiy faoliyatining eng ajoyib samarasi bo'ldi.

1927 yili Yunus Rajabiy O'zbekiston radio qo'mitasi qoshida 12 cholg'uvchi (xonanda va sozandalar) dan iborat xalq cholg'ulari milliy ansambli tashkil etadi. Bu ansamblga u Toshkentdagi o'sha paytda mashhur musiqachilar - qo'shnaychi Xayrulla Ubaydullaev, dutorchilar Abdusoat Vahobov, Orif Qosimov, tanburchilar Rixsi Rajapov, Mahsudxo'ja Yusupov, g'ijjakchilar Imomjon Ikromov, Nabi Hasanov, Mahmud Yusupov, naychilar Dadaali Soatqulov, Said Kalonov, changchilar Nigmatjon Do'stmuhammedov, Faxriddin Sodiqov,

Mahamatjon Rasulov, doirachi Dadaxo‘ja Sottievlarni jalb etdi. Ansambl repertuarida o‘zbek xalq kuylari bilan bir qatorda zamonaviy bastakor, shu jumladan Yunus Rajabiyning «Chorgoh», «Ko‘chabog‘i», «Bayot», «Birlashingiz», «Fabrika», «G‘alaba», «Hammamiz», «Ilg‘or», «Mirzadavlat» kabi asarlari bor edi. Keyinroq bu ansamblida Respublikaning mashhur xonandalari toshkentlik Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Buxorolik domla Halim Ibodov, Samarqandlik dutorchi va xonanda Hoji Abdurahmon Umarov, Xorazmlik tanburchi va xonandalar Matyoqub Xarratov, Safo Mugoniy, Toshkentlik Nazira Axmedova kabi san‘atkorlar ishlagan. Ayni paytda ansamblning ijrochilik repertuari «Shashmaqom»ning mushkulot va nasr qismlari: «Nasurulloi», «Navro‘zi Sabo», «Talqini ushshoq», «Sarvinozi talqincha», shuningdek, bastakorlarning «Uyg‘oning», «Bizning qishloq», «Yashasin», «Kolxozimiz» kabi asarlar hisobiga kengaydi.

1930 yilda Toshkent musiqa oliy maktabi, 1936 yilda esa uning asosida O‘rta Osiyoda birinchi musiqa oliy o‘quv yurti - Toshkent Davlat konservatoriyasi ochildi.

1936-1937 o‘quv yili xalq cholg‘ularida ijrochilik sohasida musiqiy ta’lim rivoji uchun juda muhim davr bo‘ldi. Aynan shu davrda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida A.I.Petrosyans tashabbusi bilan Y.Rajabiy, A.Daroshev, A.Mansurov, B.Gienko, N.Krestyanin, V.Marsinkovskiy, A.Maxsudov, O.Qosimov kabi o‘qituvchilar umummaqbul nota sistemasi asosida o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik bo‘yicha saboq bera boshladilar. Sh.ShOakramov, A.G‘ofurov, M.Yunusov (chang), S.Yuldoshov, G.Qodirov (tanbur), A.Ilyosov, M. A‘zamov kabilar ularning birinchi o‘quvchilardan bo‘lishdi.

O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik madaniyatining o‘sishi, jahon mumtoz bastakorlari asarlarining o‘zlashtirilishi, O‘zbekiston bastakorlarining xalq cholg‘ulari uchun maxsus asarlar yaratishdagi faol ijodiy faoliyati o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san‘atini

yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo'ldi. Shu bilan birga, yuqori malakali ilmiy pedagogik va ijrochi kadrlarni puxta va mukammal qilib tayyorlash masalasini ham kun tartibiga qo'ydi.

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilikning keyingi davrlardagi yuksalishi Toshkent konservatoriyasining faoliyati bilan chambarchas bog'langan.

1948 yildan boshlab mamlakatimizdagi musiqa oliy o'quv yurtlarida, shu jumladan; M.Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasida ham xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha ta'lim berish boshlandi.

Nazorat uchun savollar:

1. Dastlabki musiqa cholg'ulari taxminan qachon dunyoga kelgan?
2. Qadimgi Sharq madaniyati haqida nimalarni bilasiz?
3. O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyati rivojlanish tendensiyalari qanday?
4. XVII asr oxiri va XIX asr boshlarida o'zbek musiqa madaniyatida xalq va professional musiqa san'atining qanday yangi turlari rivojlandi?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

1. Quldorlik tuzimi davrida musiqa madaniyati haqida so'zlab bering.
2. Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi haqida ma'lumotlar to'plang.
3. Buyuk Sharq mutafakkirlarining xalq cholg'ularini o'rganish sohasidagi merosi haqida ma'lumot bering.
4. "Shashmaqom" turkumlaridan o'zingiz ijro etgan asarlar ro'yxatini tuzing.

Foydalanish uchun adabiyotlar.

1. Nazarov A., “Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika hususida” Toshkent, 1995 yil.
2. Olimboeva K., Ahmedov M., “O‘zbekiston xalq sozandalari” Toshkent, 1959 yil.
3. O.Matyoqubov, “Maqomot” Toshkent, 2004 yil.
4. E.Begmatov, M.Tursunpo‘latov, “O‘zbek nutqi asoslari” Toshkent, 1992 yil.
5. O‘.Rasulov, “An’anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi” Toshkent, 2006 yil.
6. I.Rajabov, “Maqomlar masalasiga doir”, Toshkent, 1963 yil.

1.2. Ijrochilikni o‘zlashtirish

Reja:

1. Cholg‘uda ijro holati
2. Tovush chiqarish vositalari, ijro etish uslublari.
3. Musiqa cholg‘ularining ijrochilik imkoniyatlari

Kalit so‘zlar: *ijrochilik holati, parda bosish, nola-qochirimlar, o‘ng qo‘l va chap qo‘l, sozanda, barmoqlar joylashuvi.*

1. Cholg‘uda ijro holati

Ijrochilik holati deganimizda cholg‘u sozini qanday ushlash, uni hozirlash va chalish uchun, butun tana, bosh, qo‘llar, oyoqlar, puflab chalinadigan cholg‘ularda nafasni tayyor bo‘lishi tushuniladi.

Ijrochilik holati o‘z ichiga butun tana, bosh, qo‘llar, oyoqlar, cholg‘uni ushlash, labning mundshtukda joylashishi (ambushyur) vaziyatini mujassam etadi.

Ijrochilik holatini boshidan to'g'ri qo'yilishi o'ta jiddiy vazifalardan bo'lib, yuksak cholg'uchilik natijalariga erishishning eng muhim garovidir.

Tarixdan ma'lumki, cholg'ularning takomillashishi natijasida ijrochilik holatida ham turli o'zgarishlar ro'y bergan. Masalan: qo'shnay va bulamon cholg'ularida ovoz beruvchi tillar, yuqoriga qaragan bo'lib ijrochining ustki labi ovoz beruvchi tilni ustiga joylashadi.

Surnay qadimdan lunj shishirilib naypachoqda lab bilan emas nafas kuchi bilan boshqariladi. Toshkent-Farg'ona sunray ijrochiligi cholg'u yo'llarida nafas bilan birgalikda tovushni boshqarishda, nola-qochirim ishlatishda til ham ishtirok etadi. Xorazm surnaychilik yo'nalishida qaytarma nafas ishlatilganligi sababli til ishtirok etmaydi. Faqatgina stakkatolarda til ishlatiladi.

Tanbur sozida o'ng qo'l ko'rsatgich barmog'iga nohun kiyilib, ovoz chiqarishda o'ng qo'lning vazifasi katta.

Ammo, parda bosish, nola-qochirimlarda chap qo'l yetakchi o'rin tutadi. Dutorda esa, tirnab chalinadigan soz bo'lgani uchun o'ng qo'lning barcha barmoqlari ishtirok etadi. Bundan tashqari dutor zarblari doira usulini ham berib, dutorning qopqog'iga qo'l bilan usul (Dutor lazgisi, qo'shtor) beriladi. Chap qo'lning ishtiroki parda bosishda va tovush chiqarishda (qo'shtor kuyida) ishlatiladi.

Rubob, ud cholg'ulari mezrobli, yani mezrob (mediator) bilan chalinadi. Mezrob o'ng qo'lning bosh va ko'rsatkich barmoqlari orasida ushlanadi. Simlari juftlanganligi sababli, mezrob urilganda tebranish yani sozlarning tovushi kengayadi. Chap qo'l barmoqlari faqat parda bosish uchun ishlatiladi.

Chang cholg'usi ijrochi tomonidan ikkita cho'p bilan urib va terib chalinadi. Chap qo'l goh-gohida ovozni so'ndirish vazifasini bajaradi. Ammo, o'ng qo'l yetakchi, kuy boshlashda aksnet, auftakt berib ansambllarda dirijorlik, boshlovchilik vazifasini ham o'taydi.

Qonun cholgʻusi oʻng qoʻl va chap qoʻlning barcha barmoqlariga nohun kiyilib qonun cholgʻusini tizzaga qoʻyilib barmoqlardagi nohun bilan terib chalinadi. qonun cholgʻusi oʻtirib chalinadi. Gʻijjak va sato cholgʻularida oʻng qoʻlda kamon ushlanib, chap qoʻlda parda bosiladi. Yol va simning ishqalanishi natijasida tovush hosil boʻladi.

Doira cholgʻusi cholgʻuchini oʻng va chap qoʻllari, teriga urilishi orqali ovoz chiqariladi. Nogʻora cholgʻusi choʻpni teriga urush orqali ovoz chiqaradi.

Safoyl cholgʻusi urma asboblari turkimiga kiradi. Silkitib asosiy zarb, ijrochining egniga tekkizish orqali chiqariladi. qayroq cholgʻusi toshni temirga urish orqali ovoz chiqariladi.

Olimlarning fikricha, eng muhimi ijro jarayonida cholgʻuchi tana aʼzolarining hech qanday zoʻriqishsiz, kuchanishsiz tabiiy vaziyatni ijrochi holatining asosi qilib olinishi zarurligi uqtiriladi.

Sozanda damli cholgʻularda mashq qilganida tikka turgan holatda, yelka va koʻkraklar kerilgan, boshini toʻgʻri tutgan, oyoqlar yelka kengligida boʻlmogʻi kerak. Tanbur, dutor, rubob, ud, chang, qonun, gʻijjak, sato cholgʻularini oʻtirib chalganida oyoqlarni chalishtirmaslik zarur. Boshqa cholgʻularda esa qoʻllar tanaga qisilib juda yaqin turmasligi, tabiiy holatga muvofiq erkin boʻlishi zarur.

Cholgʻu asbobida barmoqlar joylashuvi ularning tabiiy holatidan kelib chiqmogʻi darkor. Ayniqsa damli cholgʻular pardalarida oʻquvchi barmoqlari yarim egilgan tabiiy holatda boʻlishi, yuqoriga ortiqcha koʻtarilmasligi, yon tomonga surilib ketmasligi zarur. Sozandaning sahnadagi koʻrinishi va oʻzini tutishiga ijrochilik holati salbiy taʼsir qilmasligi kerak. Yaʼni har xil bachkana qiliqlar, ortiqcha chayqalish yoki cholgʻuni har tomonga yoʻnaltirish, qimirlatish, tinglovchiga yoki joʻrnavozga orqasi bilan turish kabi kishining gʻashiga tegadigan harakatlarni oldi olinishi zarur. Chunki notoʻgʻri ijrochilik holatiga koʻnikish oson, ammo uni toʻgʻrilash ancha mushkul. Bunga misol qilib abituriyentlarning konservatoriyaga kirish davrini keltirish mumkin. Bu paytda turli muammolar uchraydi. Bular mezrobli, urma, kamonli,

damli cholg'ularda yuqori registr pardalarini ushlab tura olmaslik, labni tez charchab qolishi, tovushlarning toza emasligi, attaka paytida aniqlikning yo'qligi va boshqalar. Ushbu yetishmovchiliklarni bartaraf qilish uchun konservatoriya professor-o'qituvchisi talabaning cholg'u asbobini ushlab holati, joylashuvi va boshqa masalalarni ko'rib chiqishi kerak bo'ladi.

Ammo konservatoriya ijrochilik holatini to'g'rilaydigan joy emas. Lekin konservatoriya professori talabaning rivojlanishiga uning ijrochilik holati iskanja bo'lib xalaqit berib turishiga ham qarab tura olmaydi. Shu sababdan professor talabaning oldingi o'qituvchisi qilgan xatosini to'g'rilashga majbur bo'ladi.

Bunday o'zgarish qilish uchun o'qituvchi talabada quyidagi omillarning mavjudligiga amin bo'lishi kerak. Ya'ni yuqori darajadagi jismoniy yetuklik (birinchi navbatda tishlari, lablari va nafas organlarining sog'lomligi), yuksak musiqiy qobiliyat egasi ekanligi, mehnatsevarlik va maqsad sari intilish kabi xislatlar mavjud bo'lsa abituriyent ijro holatidagi barcha yetishmovchilik va muammolar ketkaziladigan katta mehnat, asab va vaqt evaziga to'g'rilanishi mumkin.

Bunday xatolarning ob'ektiv va sub'ektiv sabablaridan kelib chiqadigan bo'lsak Respublikadagi 300 dan ortiq bolalar san'at va musiqa maktablarining 10% da ham an'anaviy sozandalik bo'limlari mavjud emas. Mavjud bo'lganda ham, xalq cholg'ulari ijro uslubida o'rgatiladi. Shuningdek, viloyatlardagi musiqa va san'at kasb hunar kolleji hamda akademik litseylarida mutahasislar yetishmasligi tufayli, bir tur mutahasislar ikkinchi tur ixtisosliklariga dars berishga majbur bo'lishyapti. Masalan: naychi honandalikdan, changchi sozandalar dutordan, surnaychilar doiradan dars berishyapti. Ana shu sabablar bois kadrlarni konservatoriyagacha tayyorlash ishlari hozircha ko'ngildagidek emas.

2. Tovush chiqarish vositalari, ijro etish uslublari

Uslubiyat fani musiqiy pedagogikaning tarkibiy qismlaridan bo'lib, yunoncha metod so'zi – maqsadga eltuvchi yo'l degan ma'noni bildiradi. Metodikaning maqsad va vazifalari mutaxassislar tayyorlash ishini belgilangan reja asosida olib borishdan iboratdir.

Bu fan O'zbekiston hamda xorijiy sozanda-pedagog va ijrochi ustozlarning tajribalarini umumlashtirgan va ulardan kelib chiqqan holda, talabani yakka tartibda o'qitish va unga individual shaxs sifatida yondashish qonuniyatlari va uslublarini o'rgatadi. Shuningdek, boshqa musiqiy nazariy fanlardan farqli o'laroq mutaxassislik fani bilan chambarchas bog'langan holda sozandalar tayyorlash sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Agar mutaxassis qaysi soha egasi bo'lishidan qat'iy nazar uslubiyat malakalarini egallagan bo'lmasa u o'z kasbining yetuk egasi bo'la olmaydi. Chunki barcha yo'nalishlar shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda har bir o'qimishli mutaxassis keng bilimga va ko'nikmalarga ega bo'lmog'i lozim.

Uslubiyatning sozandani o'z kasbiga xususan milliy cholg'ularni chalishga o'rgatishdagi o'rni muhim ahamiyatga ega.

An'anaviy ijrochilik uslubiyati fan sifatida boshqa mutaxassisliklarga qaraganda ancha yosh va o'zining yo'l-yo'riqlariga hamda ushbu cholg'ularda ijro etish va o'rgatishning umumiy qonuniyatlariga egadir. Uslubiyat ijrochilik tarixi davomida turli bosqichlarda rivojlanib kelgan.

Ikki daryo oralig'ida kuylash, soz chalish, qiroat qilish va ashula aytishni o'rgatishning asosan ustoz–shogird uslubi rivojlangan bo'lib, o'qitishning ma'lum bir tizimdagi uslubiyati shakllanmagan edi. 1918-yili Toshkentda va boshqa markaziy shaharlarda xalq konservatoriyalarining ochilishi, 1924-yilda Toshkent davlat musiqa texnikumining tashkil qilinishi, 1928-yili Samarqandda ochilgan

musiqi va xoreografiya ilmiy tekshirish instituti, Toshkent davlat konservatoriyasida “Sharq musiqi fakulteti”ning ishlay boshlashi natijasida ko‘pchilik maqomdon ustozlar o‘qituvchi sifatida ishga taklif qilinadi. Bu ustozlar ichida F.Sodihov, R.Rajabiy, O.Alimaxsumov, M.Muxammedov, H.Nosirova, S.Qobulova, B.Dovidova, X.Jalolov, F.Mamadaliev, Q.Iskandarov va boshqalar bor edi.

Mustaqillik davriga kelib yuqorida nomlari keltirilgan ustozlarning iste’dodli shogirdlari yetishib chiqadi. Bulardan: O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi Temur Mahmudov, Shavkat Muhammedov, Tuyg‘un Otaboev, O‘zbekiston xalq artistlari A.Ismoilov, O‘.Rasulov, professorlar Abdulla Umarov, Rifatilla Qosimov, O‘zbekistonda hizmat ko‘rsatgan artistlar, dotsent Malika Ziyoeva katta o‘qituvchi Abdurahmon Xoltojiev, dotsent v/b Ahmadjon Sobirov, professor v/b Rahmatilla Samadov Iqbolxon Toshpo‘latovalar bo‘lib, ular ustozlari yaratgan uslublarni saqlagan holda uni yanada boyitishga o‘z hissalarini qo‘shdilar. An’anaviy ijrochilik bilan birgalikda uning pedagogikasiga oid ilg‘or fikrlarni ilgari surdilar va an’anaviy sozandalikning ijro uslubiga quyidagi tamoyillarni asos qilib oldilar.

Ijro amaliyotida erishilgan mahoratni soz imkoniyatlaridan kelib chiqib, asarning badiiy mazmunini ochib berishga xizmat qildirish.

Asardagi musiqiy jummalarni (ashula yo‘llarida she’r va g‘azallarini ijro qilayotgandek) to‘liq ya’ni yuksak badiiy ifodali ijro qildirish.

Asarni musiqiy shtrixlarini kuyga hamohang ishlatib yuksak ijrochilik darajasida chaldirish.

Benazir badiiy ijro, ya’ni bastakor fikriga hamohanglik, belgilangan maqsaddan chetlashmaslik.

Sahnadagi tashqi ko‘rinishda oddiylik, artistlik ijro mahoratini egallash, har xil uslub va yo‘nalishlarga ergashmaslik.

Ana shu tamoyillar kelgusida shogirdlar etishtirishning asosiy negizi bo‘lib xizmat qila boshladi.

Bora-bora uslubiyat turli masalalarining ilmiy asoslari va rivoji I.Rajabov, Y.Rajabiy, D.Mullaqandov, O'.Rasulov, R.Tursunov, K.Bo'rieva va boshqalarning shu sohaga bag'ishlangan kitoblarida bayon etildi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, jamiyat ijtimoiy hayotida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida o'z o'rnini va nufuziga ega bo'lmoqda. Jumladan, mamlakatimizda boshlangan demokratik o'zgarishlar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, ya'ni, ma'naviyat olamida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan xuquqiy jamiyatni barpo etish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, milliy san'atimizni rivojlantirish, ta'lim tarbiya jarayoni mazmuniga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini singdirish, yoshlarni milliy qadriyatlar, an'analar va ko'p asrlik musiqiy meros vositasida estetik tarbiyalash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Erkin fuqarolik jamiyatni tarkib toptirish eng avvalo mazkur jamiyatda yashayotgan kishilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetukligi va yuksak darajadagi aqliy salohiyatiga bog'liq. Zero, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablariga ko'ra mamlakatimizda yoshlarga estetik ta'lim tarbiya berish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa ta'lim islohotlari jarayonida yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar, xususan an'anaviy ijrochilik yo'nalishini boshlang'ich, o'rta va oliy o'quv muassasalarida tashkil qilinib, ta'lim uzluksizligini shakllantirilganligi, olib borilayotgan odilona siyosat natijasida milliy qadriyatlarimiz qad rostlay boshladi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash Davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi".deb yozadi.

I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" nomli kitobida yoshlarni hayotga tarbiyalash, ularni ma'naviy barkamol shaxs

sifatida kamol toptirish. Milliy ovoz va ohang haqida fikr yuritib, shunday degan edi: “Insonning qulog‘i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o‘rganib qolsa, bora–bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma’naviy olamini sohta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir–oqibatda bunday odam “Shashmaqom” singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo‘ladi”. deb yosh avlodni milliy an‘analar, qadriyatlar va madaniy merosimiz ruhida tarbiyalash zarurligini uqdirmoqdalar. Yoshlarda go‘zallikni his qilish va qadrlash kabi sifatlarni tarkib toptirishda milliy sozandalik san‘atining alohida o‘rni borligini yurtboshimiz 2010-yil 29-avgust V.A.Uspenskiy nomidagi ixtisoslashtirilgan akademik musiqa litseyi ochilishida “Biz milliy musiqamizga ko‘proq e‘tibor qilishimiz lozim, chunki biz bu noyob durdonalarimizni dunyo miqyosiga olib chiqishimiz kerak. Evropa madaniyatini rivojlantiruvchi davlatlar talaygina, lekin, bizni san‘atimizni faqatgina o‘zimiz rivojlantira olamiz”. deb ta’kidladilar.

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ayon bo‘ladiki, o‘quvchilarni insonparvarlik, vatanga muhabbat, ilm va ma’rifatga intilish ruhida tarbiyalash, urf–odatlar, an‘analarni qadrlashga undovchi omil bo‘lib, ular ijrochilik san‘atini zamonaviy talablar asosida tashkil qilish va shu bilan birgalikda bo‘lajak ijrochilarni estetik tarbiyalashni, milliy san‘atimizni chuqur rivojlantirish zarur.

Darhaqiqat, bu bilan bizga chetdan kirib kelgan san‘atlarni inkor etish kerak degani emas, balki barcha san‘at turlarini to‘laligicha o‘rganib, mentalitetimizga uyg‘un e‘tiqodlarni olib, kelajak avlod vakillariga to‘laligicha qoldirish asosiy vazifalardan ekanligini yurtboshimiz ta’kidlamodalar.

Mamlakatimizda sozandalikni o‘ziga kasb qilgan ijrochilar birinchi o‘rinda o‘z cholg‘ularining imkoniyatlarini botiniy va zoxiriy xususiyatlarini mukammal bilishlari zarur. Shunday ekan maqom,

dostonchilik, xalqona turli janrlarni ijro nuqtai nazaridan o'rganish dolzarb masala ekanligini anglatadi.

Sozandalik uslubiyatiga tegishli ayrim masalalar nashr etilgan kitob va maqolalarda, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida qisman yoritilgan.

Masalan: D.Mullaqandovning "O'zbek xonandaligi borasida ba'zi juz'iy masalalar, rus vokal maktabi badiiy estetik talablari va tajribalari bilan bog'liqligi." Leningrad 1954-yil. San'atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiyasida asosan o'sha zamon tilidan ovozlarning turi va tusi haqida gapirilib, rus vokal maktabi bilan taqqoslangan. Lekin e'tiborga molik tomoni shundaki ijrochilarni yerda o'tirib ijro qilish o'rniga stulda yani kursida o'tirib chalishni davrlarda ko'rsatib bergan. Bundan tashqari qadimdan nomlanib, keyinchalik unutilayozgan ijro uslublarining atamalari va ularni ilmiy asosda o'sha davr ijrochilik maktablari bilan taqqoslab bergan.

Y.Rajabiyning "O'zbek xalq musiqasi" (Toshkent 1958-yili.) "Shashmaqom" (Toshkent 1958-yil.) Olti tomlik kitoblarida: ustozlar tazkirasi, ijrochilarning qanday asarlar ijro etganliklari haqida so'z yuritiladi. Bu manba'larda asosan maqomdon sozandalarning ijro dasturlari ko'rsatilgan.

I.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" (Toshkent 1963-yil.) kitobida: ijrochilik xususiyatlari maqom nuqtai nazaridan yoritilgan.

O.Matyobovning "Maqomot" (Toshkent, 2004-yil) kitobida ijrochilik san'ati haqida so'z yuritiladi.

Ma'lumki mumtoz san'atimiz otadan—o'g'ilga, ustozdan—shogirdga og'zaki ravishda hozirgi kunga qadar sayqallanib, yetib keldi. Ustozlardagi shogirdlarga nisbatan qo'llanilgan sozandalikni o'rgatish uslubiyati ham ma'lum. Bu borada Buxoro—Samarqand maqomchilik san'ati, Farg'ona—Toshkent mumtoz san'ati va Xorazm maktablari mavjud.

3. Musiqa cholg'ularining ijrochilik imkoniyatlari



SURNAY

O'zbek va tojik xalqlari o'rtasida keng tarqalgan qadimiy puflama yog'och cholg'u asbob. Surnay yolg'iz, shuningdek, nog'ora, karnaylar bilan ham birgalikda chalinadi. So'nggi vaqtlarda o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestriga ham qo'shilmoqda. Surnayda chap va o'ng qo'l barmoqlari bilan yopiladigan oltita teshikcha bor. Yettinchi teshik esa pastki tomonda bo'lib, chap qo'lning bosh barmog'i bilan berkitiladi. Uning ovoz hajmi kichik oktavadagi lyadan, ikkinchi oktavadagi miga qadar notalari skripka kalitida yoziladi. Surnay tovushi baland bo'lgani uchun, ochiq havoda turli tantanalarda chalinadi. Surnay Kavkaz va Eron xalqlarida ham qo'llaniladi. Surnayda xalq kuylari qatorida maqom yo'llari ham ijro qilinadi. Surnay turli to'y marosimlarida, dor o'yinlarida, karnay va nog'oralar bilan ansambl bo'lib ijro qilinishi mumkin. Nikoh to'ylarida dastlabki musiqani surnay ijrosidagi "navo" bilan boshlash odatlanilgan. Surnay navosi o'ziga xos yoqimli va zavq bilan tinglanadi.



QO'SHNAY

Qo'shnay qadimiy o'zbek cholg'u asboblariidan ikki qamish naychadan iborat bo'lib, ularga tovush chiqaradigan til o'rnatiladi. Qo'shnayni chalish uchun ikkita naychaga barovar puflanadi va har ikkala naychada yondosh joylashgan yettita teshikchaning tegishlilari barmoq bilan bosiladi. Ovoz hajmi birinchi oktavada Redan ikkinchi oktavada Solga qadar. Qo'shnayda o'zbek musiqasi uchun xos bo'lmagan melizmni, qochirimni chalish juda qulaydir.



NAY

Nay - puflab chalinadigan yog'och asbob bo'lib, O'zbekiston va Tojikistonda juda keng tarqalgan. Nayni Buryatiya va Mongoliya Xalq Respublikasida limba, Xitoyda li, Vetnamda sao, Afg'onistonda esa mola deb yuritiladi.

Hay yog'ochdan (yog'och nay), jezdani (mis nay), g'arov (g'arov

nay), to'nkadan (bridji nay) yasaladi.

Eng ko'p tarqalgan yog'och nay bilan g'arov nayidir. Nayda barmoqlar bilan berkitiladigan oltita va lab bilan puflash uchun bitta teshik bor.

Yuqoridagilardan tashqari, hech qanday vazifani bajarmaydigan qog'oz yopishtirib qo'yilgan bitta teshik va nayning oxirida to'rtta teshik bor. Bulardan eng pastga joylashgan ikkita teshik o'zining o'rniga qarab asosiy tonning balandligini aniqlaydi.

Hozirgi zamon naylari qisqadir, chunki ularning sozi naylarni tayyorlash paytida umumiy uzunligi bo'yicha belgilanadi.

Nayda barmoq bilan yopiladigan teshiklar va puflab chalinadigan bitta teshik «labium» joylashgan. Sozning balandligi nayning yuqori qismini ichkarisida joylashgan tiqin (probka) va harakatlanturuvchi golovka bilan tartibga solib turiladi. Golovka yoki probkani siljitish bilan havo to'liqlinini ko'paytirish va shu bilan birga, tovushni pasaytirish va kuchaytirish mumkin.



QONUN

Qonun-cholg'u asbobi, changga o'xshash qadimiy musiqa asbobi bo'lib, u barmoqlarga maxsus yasalgan noxun bilan tirnab chalinadi. 17-asrda Dapvishali Changiy yozib qoldirgan "Risolai musiqiy»da qadimiy cholg'u asboblardan biri ekanligi qayd etilgan. Hozirgi kunda qonun cholg'u asbobi sinfi san'at kolleji va musiqa yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida mavjuddir.



CHANQOVUZ

Chanqovuz – ikki lab orasiga qo'yilib o'ng qo'l barmoqlari bilan chalinadigan cholg'u asbobidir. Temirdan qilingan aylanma ramka oralig'ida po'lat til o'rnatilgan, chalganda barmoq bilan tilni harakatga keltirib to'ldiriladi. Og'iz bo'shligi tovush beruvchi rezonans xizmatini bajaradi va oktava hajmi oralig'ida tovush beradi. Changqovuz Markaziy Osiyo xalqlari xotin- qizlari orasida keng tarqalgan. Yoqut xalqlarida erkaklar ham chanqovuz chaladi, ulardan ansambl tuzilgan.



CHANG

Oʻrta Osiyo xalqlarining qadimiy urma cholgʻu asbobibi - changdir. Uning sadosi baland boʻlgani uchun, ilgari faqat cholgʻu kuylarini ijro etishda ansamblga qoʻshganlar, chunki davomiy jaranglovchi sadosi ashulani buzgan. Changning unisonga sozlangan uchtadan tori boʻlib, ovoz hajmi katta oktavadagi Soldan ikkinchi oktavadagi Miga qadar. Ilgari xalq oʻrtasida qoʻllangan changning tovushqatori diatonik tartibda boʻlgan. Notalar eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida, skripka kalitida yoziladi. Chang rezinka qoplangan maxsus ingichka choʻp bilan urib chalinadi. Hozir Chang qayta ishlanib, tovushqatori xromatik, yaʼni yarim tonlik qilingan. Ijrochining oʻtirib chalishiga qulay boʻlishi uchun vintlar oʻrnatilgan oyoqlari bor. Davomli sadoni yuqotish uchun maxsus pedal ishlangan.



GʻIJJAK

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, oʻzbeklar orasida qadimdan keng tarqalgan kamoncha bilan chalinadigan torli cholgʻu asbob, kosasi qovoqdan, oʻrtasi kovak qilib oʻyilgan yogʻochdan yasaladi. Kosaning ustiga baliq terisi yo pufak qoplanadi. Dastasi dumaloq boʻlib, kosaga yaqinlashgan sari ingichkalashtirib ishlanadi. Kosaga oʻrnatilgan temir oyokchani ijrochi tizzasiga koʻyib oʻtirib chaladi. Gʻijjakda dastlab uchta tor boʻlib, ular kvarta boʻyicha sozlangan. Sozlanishi har doim aniq bir tovushda boʻlmay, ashulachining ovozi yoki chalinadigan kuyning xarakteriga koʻra turlichadir. 20- yillarda sozandalar gʻijjak

ovozini baland qilish maqsadida unison qilib sozlangan qo'shtorlar ishlatganlar. G'ijjak yakka va ansamblida chalingan, kamonchasi ot dumidan ishlanib, chalish vaqtida o'ng qo'l barmoqlar bilan tortib turiladi. 30- yillarda g'ijjak qaytadan ishlandi, to'rtta tor joriy qilindi, ular skripkadek kvinta oraligida 4- eng pastgi yo'g'on tor kichik oktavadagi solga, 3- tor birinchi oktavadagi Rega, 2-top birinchi oktavadagi Lyaga va oxirgi 1-tor oktavadagi Miga sozlanadi. Ovoz hajmi kichik oktavadagi SOLdan, to'rtinchi oktavadagi Lyaga qadar. Qayta ishlangan g'ijjak dastasi dumaloq emas, aksincha, skripka dastasidek yassi qilib ishlangan, oyoqchasi stulda o'tirib chalish uchun qulaylashtirilgan.



RUBOB

Osiyoning ayrim xalqlari, xususan, o'zbeklar, tojiklar o'rtasida qadimdan keng tarqalgan torli tirnama cholg'u asbob rubobdir. O'rta Osiyo xalqlariga nisbatan Janubiy Xitoyning Sinszyan viloyatida yashovchi uyg'urlar o'rtasida keng tarqalgan turi qashqar rubobi deyiladi. Rubob kosasi kazma, ya'ni o'yilib, ustiga teri koplangan, dastasiga ipak yoki ichakdan qilingan pardalar bog'langan.

Rubobda beshta tor bo‘lib, uchta ipak tor, ikkitasi sim tordir. Bular 5 va 4 torlar katta oktavadagi Lyaga unison. Z-tor kichik oktavadagi Miga va asosiy melodik, 2 va 1-torlar kichik oktavadagi LYaga unison sozlanadi. Hozirgi vaqtda qo‘llanilayotgan rubob qayta ishlanib, yarim pardalar asosida ishlangan va pardalar doimiy surilmaydigan qilib yasalgan. Bu rubobdagi beshta torning to‘rttasi sim tor bo‘lib, beshinnchisi ichak tordir, kvarta bo‘yicha - tor katta oktavadagi Siga, 4 va 3 torlar kichik oktavadagi Miga unison, 2 va 1-torlar esa kichik oktavadagi Sidan, ikkinchi oktavadagi Lyaga qadar. Rubob notalari eshitilishga nisbatan oktava yuqorida skripka kalitida yoziladi.



AFG‘ON RUBOBI

Afg‘on rubobi-o‘zbek xalq cholg‘u asboblari orasida o‘zining tashqi tuzulishi bilan ajralib turadi. U juda boy tembr tovushiga egadir.

Afg‘on rubobi nafaqat Respublikamizda, balki Tojikiston, Afg‘oniston, Buxoro va boshqa vohalarda ham keng tarqalgan. Bu cholg‘u asbobda xalq kuylari bilan bir qatorda, barcha qardosh kompozitor kuylarini ham mohirona ijro etish mumkin.

Afg'on rubobini Buxoro rubobi ham deyishadi O'zbekistonga ham bu cholg'u asbobini Buxorolik cholg'uchi, sozandachilar olib kelishgan.

Afg'on rubobi qayta takomillashtirilgandan keyin 1960 yili Toshkentdagi Glier nomli musiqa maktab internatida afg'on sinfi ochildi va keyinchalik Toshkent Davlat konservatoriyasining o'zbek cholg'u asboblari bo'limida 1964 yili shu sinf ochildi. Bu sinfda qashqar rubobida o'qigan talabalar olinib, ular shu sinfni tugatishib, boshqa viloyatlarda ham afg'on rubobi sinfi vujudga keldi.

Bizni viloyatimizdagi Termiz musiqa bilim yurtida ham shu sinf 1978 yili Toshkent Davlat Konservatoriyasini tamomlab kelgan yosh mutaxassis o'qituvchi Mardaeva Klara Abdurasulovna tashabbusi bilan tashkil topdi. Hozirgi kunda shu sinfni bitirgan yosh mutaxassis talabalar ham o'z tumanlarida shu afg'on rubobi sinfi musiqa maktablarini ochib bizlarga yaxshi talantli o'quvchilarni yubormoqdalar. Ko'pgina talabalar esa bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida oliy o'quv dargohida, ya'ni Toshkent Davlat konservatoriyasiga, Toshkent madaniyat institutiga borishib, o'qishlarini davom ettirib va tugatib Termiz musiqa bilim yurtida o'qituvchilik faoliyatlarini boshlab yuborishgan.

Hozirgi kunda afg'on rubobiga moslashtirilgan darsliklar yetarlicha emas, lekin shu sohada ishlayotgan mutaxassislarning umidi katta, kelajakda kompozitorlarimiz shu cholg'u asbobi uchun ko'pgina kuylar yaratishi mutaxassis o'qituvchilar esa shu afg'on rubobi moslashtirilgan darsliklar chiqarishlariga to'g'ri keladi.



DUTOR

Dutor- o‘zbek, tojik, turkman va uyg‘ur xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan torli tirnama cholg‘u asbob.

Dutor ikki qismdan, dasta va kosadan iborat bo‘lib, ularni birlashtiruvchi qismi «bo‘g‘iz» deb ataladi. Dutor kosasi o‘yma yoki «qobirg‘a»chalarning birlashganidan yasalishi mumkin. O‘yma dutor Samarqandd, Xorazm va Turkmanistonda qo‘llanilib, bir bo‘lak tut yog‘ochdan o‘yib ishlanadi.



TANBUR

Tanbur-bu tan, yurak, dil, ya'ni yurakni qitiqlamoq, larzaga solmoq demakdir. Tanbur ham uzoq asrlardan beri o'zbek, tojik va uyg'ur xalqlariga madaniy xizmat qilib kelayotgan sernola, sersado, serohang, dilrabo milliy musiqa cholg'ularimizdan biri bo'lib, uni tinglayotgan shinavandalar qalbini larzaga solib kelmoqda.

Tanburning kosasi tut yog'ochidan, dastasi esa asosan o'rik va boshqa yog'ochlardan yo'nilib, dastasiga ichak pardalar bog'landi, torlari misdan tortilib, noxun deb ataluvchi metaldan ishlangan moslama yordamida chalinadi.

Tanbur fortepianoning kichik oktava "sol", "re" siga sozlanadi. Tanburchilar ko'p, ammo ular orasida el-yurt hurmatiga, shinavandalar taqsiniga sazovor bo'lganlardan:

Sultonxon Hakimov, Rixsi Rajabiy, Shobarot tanburchi, Maqsud Xo'ja Yusupov, Jo'rabek Saydaliev, Abdumutal Abdullaev, Otavali Nuriddinov, usta Ro'zimatxon Isoboev, Qayum Shobarotov, Emmanuel Baraev, Yoqubov, Davidov, Shonazar Sohobov (Tojikiston), Nizomiddin Mirzaxo'jaev, Turg'un Alimatov, Abdulla Umarov.



UD

Ud juda qadimiy musiqa asbobidir. Uning bizga ma'lum bo'lgan dastlabki shakli Ayritomdan topilgan, eramizning birinchi asrlariga oid ajoyib madaniyat yodgorligida o'z aksini topgan.

Ud arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi turlichadir. U birinchidan yog'ochi qora tusli daraxtning nomidir. Ud dastlab shu daraxtdan yasalgan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, ud iborasi bayram, to'y-tomosh, xursandchilikni ifodalaydigan «iyd» iborasining ma'lum shaklidir. Bu o'rinda xushchaqchaqlik kayfiyatni bag'ishlovchi soz ma'nosida ham kelishi mumkin.

Udning dastlabki nomi "Barbad» bo'lganligi ba'zi manbalarda ko'rsatib o'tiladi. Barbad ikki so'zdan iborat bo'lib, bar-qomat, bad - o'rdak ma'nolarida keladi. Barbad qorni katta va dastasi -kalta musiqa asbobidir. Unga o'rdak qomatiga o'xshagani uchun barbad nomi berilgan emish. Barbad eng qadimiy torli asbobdir. Uning yaratilishi haqida bizgacha turli afsonalar yetib kelgan. Bir afsonada hikoya kilinishicha, barbadni yunon olimi Fisogurs hakim (Pifagor eramizdan oldingi VI asr) ixtiro qilgan. Afsonada aytilishicha, bir kuni Fisog'ursni tushida bir noma'lum mo'ysafid uning boshiga kelib shunday dedi: "sen ertaga barvaqt turib naddof (paxta tituvchilar) bozoriga borgil. U yerda senga hikmat sirlaridan biri namoyon bo'ladi». Fisog'urs ertalab

naddoflar rastasiga boribdi va u yerdan hech narsa tushuna olmay qaytib kelibdi. Mo‘ysafid shu kuni tushida yana kelib, kechagi aytgan gapini takrorlabdi. Shundan so‘ng Fisog‘ypc ertalab uyg‘onib ikkinchi marta bozorga borganda paxta tituvchilar yoyining ipidan chiqayogan tovush uning diqqatini jalb etibdi. Fisog‘ursning ongida bir fikr paydo bo‘libdi, shunda u yerda yotgan ot dumining tolasini olib, bir uchini tishi bilan tortib turib chertgan ekan, mayin va yoqimli bir ovoz eshitilibdi. Endi shu ipni taqib chaladigan torli asbob yaratish ustida mulohaza yurita boshlabdi. Ma’lum bir vaqt o‘tgandan so‘ng, kunlarning birida Fisog‘urs hakim tog‘ tomon yo‘l olibdi. Tog‘ning etagida kuchli shamol esib, qandaydir bir sehrli tovush, ya’ni hushtaksimon bir sado eshitilibdi. Shunda u atrofga nazar solib yaqin orada turgan ichi kovak, bo‘shab qolgan toshbaqa kosasiga ko‘zi tushibdi. Uning bosh, qul oyog‘i va dumi chiqib turadigan teshiklardan o‘tayotgan shamol ana shunday sehrli tovush hosil qilayotgan ekan. ”Bir narsaga yarab qolar”, deb uni yerdan olibdi. Keyinchalik toshbaqa kosasidagi eng katta teshikka — boshi chiqib turadigan erga dasta o‘rnatibdi. Unga ipni taqib, chala boshlabdi. Rubob dastlab juda sodda va oddiy shaklda tuzilibdi.

Fisog‘ursdan so‘nggi davrlarda yashagan musiqachilar barbadni takomillashtirdilar va uning asosida ikki, uch, turt torli musiqa asbobi yasaganlar. Barbad esa ko‘p manbaalarda hamma torli asboblarning yuzaga kelishida asos bo‘lgan, deb ko‘rsatilgan. Uning shu takkomillashgan keyingi shakli guyo ud emish.

Ud qariyb XVII asrlargacha yashagan, deb taxmin qilish mumkin, Keyinchalik esa O‘rta Osiyoda iste’moldan chiqib ketgan hamda boshqa qadimiy musiqa asboblarni uning o‘rnini ola boshladi.

O‘rta Osiyo xalqlarining, jumladan, o‘zbek, tojiklarning cholg‘u asboblari rang-barangdir. Albatta, bu xalqlarning madaniyati qadimdan boy bo‘lganligi, tinmay rivojlanganligidan dalolat beradi.



DOIRA

Doira - o'zbek, tojik va uyg'ur xalqlari orasida keng tarqalgan, tovush balandligi noaniq urma cholg'u asbob. Doira gardishiga buzoq yoki baliq terisi qoplanadi, qirqdan ortiq halqachalari taqilib, bular doirani chalganda qo'shimcha sado beradi. Doirada ikkita asosiy tovush bor. Biri past "Bum" ikkinchisi baland "bak" deb yuritiladi. Ketma-ket kelgan ikkita qisqa tovush «bakko" yoki "bakka" yoki "baxa" deb yuritiladi. Doira keng tarqalgan cholg'u asboblardan. Doira ijrochiligidagi raqslar o'zbek va tojik xalqlari orasida juda keng tarqalgan. Shoshmaqom doira usulisiz ijro qilinmaydi. Buxoroda har bir maqom aytuvchi hofiz maqom usullarini doirada ustalik bilan o'zlashtirgan va o'z ashulalariga jo'r bo'lgan. Doira tovushlari notada puflama va simfonik orkestrdagi urma cholg'u asboblarinikidek bir chiziqqa yoziladi.

Zarbli cholg'ular eng qadimgi cholg'u asboblari turiga kiradi. Ularning kelib chiqishi insonning qadam bosishi, qo'llarini bir-biriga urishi, mehnat jarayoni, raqs harakatlari, ov va harbiy yurishlar bilan bog'liq. Uzoq tarixiy rivojlanish davomida turli xalqlar musiqa amaliyotida o'zining tuzilishi, tovush hosil qilinishi, ijro va ifoda imkoniyati hamda chalinishi jihatidan xilma-xil zarbli cholg'ularning turlari shakllangan.

Zarb arabcha – urmoq, urish ma’nosini bildiradi va mazkur cholg’ularda asosan qo‘l, cho‘p va tayoqchalar yordamida zarb bilan urish, barmoq bilan chertish, silkitish va boshqa harakatlar orqali tovush hosil qilinadi. Ularda tovush hosil qiluvchi unsur sifatida maxsus qoplama (membrana) yoki cholg‘u asbobining tanasi (korpus) xizmat qilishi mumkin va bular ikki turga bo‘linadi:

a) Membranafon – qoplamali cholg‘ular, ularga maxsus teri qoplangan nag‘ora, doiralarning turli xillari kiradi;

b) Avtofon – o‘zi tovush beruvchi cholg‘ular bo‘lib, ularning vujudiga mexanik ta’sir qilish natijasida o‘z tanasidan tovush hosil bo‘ladi. Bular: turli qayroq, safoyil, va boshqalar.

Ijro texnikasi jihatidan zarbli cholg‘ularning bolg‘achalar yordamida, qo‘l barmoqlari bilan, bir-biriga tekkazib (urib) va silkitgan holda chalinadigan har-xil turlari mavjud. Bundan tashqari zarbli cholg‘ular aniq balandlikka ega bo‘lmaganlar (nog‘ora, doira, qayroq, safoyil, va h.k.) turiga hamda past, o‘rta va yuqori registrilarga ajratiladi.

Ko‘pchilik zarbli cholg‘ular cho‘p-tayoqchalar yordamida chalinadi. Ularni mohirona ishlata bilish zarbli cholg‘ular ijrochisi mahoratining asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘quvchilarga birinchi navbatda tayoqchalar bilan chalish mahoratini egallash eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli deyarli barcha darslik va qo‘llanmalar doirada ijro texnikasi o‘rgatilishi bilan boshlanadi. Doira zarbli cholg‘ular guruhining yetakchi asbobi bo‘lib, uning va boshqa zarbli cholg‘ularning ansambldagi roli tobora ortib bormoqda. Bu holat ularning bajaradigan vazifasi bilan bog‘liqdir. Ilgarilari doira va boshqa cholg‘ular ko‘pincha namoyishkorona – ko‘rgazmali maqsadlarda ishlatilgan bo‘lsa, hozirgi kun ansambl ijrochiligida ular fundament – asos hisoblangan ritmik yo‘nalishni boshqarish, shuningdek, nafaqat dinamik balki, mazmunni belgilaydigan kulminatsiya va avjlarga urg‘u berish, ansambl tovush bo‘yoqlari jilosini o‘zgartirish, o‘ziga xos kuy yo‘nalishini belgilash kabi murakkab vazifalarni bajaradi. Shu

munosabat bilan ijrochilik vositalari yanada boyib bormoqda. Turli registrdagi har-xil urma-zarbli cholg'ular turlari ko'paymoqda. Ularning ichida rang-barang tovush tuslarini beruvchi, kuy izchilligini ta'minlovchi tovushqatorli majmualar qo'llanilmoqda. Zarbli cholg'ular majmuasining tuzilishi, konstruksiyasining o'zgarishi va ansambl fakturasidagi ahamiyatiga qarab o'qitishning yangi uslublarini izlash talab qilinmoqda. Bunda qo'lning ijro holati, turli ritmik ko'rinishlar va zarb tuslarini rang-barangligiga erishishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Barcha cholg'ularda bo'lgani kabi zarbli cholg'ularda ham qo'l harakatining erkin va tabiiy holati, kam kuch sarflagan holda yuksak mahoratga erishish asosiy maqsad hisoblanadi. Bunda qo'llarning ijro holati asosiy unsurlardandir. Agar qo'l skletini ko'rib chiqadigan bo'lsak u uch qismdan tashkil topadi:

- a) yelka qismi (yelka suyaklaridan tirsakkacha);
- b) tirsak (tirsakdan bilak bo'g'inlarigacha) qismi;
- v) kist-bilak bo'g'inidir.

Bilak ham o'z navbatida uch bo'lakka ajratiladi: panjagacha bo'lgan qismi, panja va barmoqlardan tashkil topadi. Barmoqlarning bosh barmoqdan boshqa barchasi uch bo'g'inli bo'lib, bosh barmoq ikki bo'g'indan tashkil topgan.

Zarbli cholg'ular ijro holatida qo'lning barcha qismlari bir-biriga bog'liq holda harakat qiladi. Ammo har bo'lagining o'ziga yarasha bajaradigan vazifasi bor. Agar yelka qismini olib ko'radigan bo'lsak, qo'lni yelkadan boshlanadigan harakatining zarbi juda kuchli bo'lib, katta kuchlanishli sadolanish uchun ishlatiladi. Tirsaklar bo'lsa, elka bilan bilaklarni bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi va «bilak zarb»ni kuchlantirish va chuqurlashtirishda faol ishtirok etadi. Tirsak mushaklarining faolligi va to'laqonliligi natijasida tovush kuchi va bidratma (rez)ning zichligi ortadi. Lekin, tirsak mushaklarini erkin-bo'sh tutish, zo'riqtirmaslik ustoz va shogirdning doimo diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Zarbli cholg'ularda bilak murakkab vazifani bajaradi. U doimo egiluvchan, harakatchan va chidamli bo'lmog'i kerak. Tovush hosil qilish bilak harakatiga bog'liq bo'lib, ayniqsa panja bo'g'inlarining erkinligi katta ahamiyat kasb etadi. Bunda urilgan zarb qancha kuchli bo'lmasin bilak o'zining egiluvchan holatini saqlagan holda cho'plarni teri qoplamasidan orqaga qayta sakrashini ta'minlashi lozim. Bilakning bunday «prujina» vazifasini bajaruvchanligi teri qoplamani kuchli zarb natijasida yorilishdan asraydi. Shu sababli ijrochi qo'l mushaklariga kuchni qanday taqsimlashni xayolida – tasavvurida muvofiqlashtirmog'i kerak. Faqat oqilona tutilgan yo'l ortiqcha zo'riqishdan saqlaydi.

Nog'ora ijrochiligida ikki xil holat qo'llaniladi. Birinchisi simmetriholat bo'lib, bunda ijrochining panjalari cho'plarni pastga qaragan holda ushlaydi va nog'ora yuzasi gorizontal vaziyatda turadi. Ikkinchisi simmetriyasiz holat bo'lib, bunda o'ng qo'l oldingi holda qoladi.

Hozirgi davr zarbli cholg'ular ijrochisi ikkala cholg'uchilik holatini ham mukammal o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Ularning ikkalasini tafsilotlari ham o'ziga xosligi va ayrim xususiyatlarini yoritish mazkur cholg'ular uchun darslik va o'quv qo'llanmalarining uslubiy bo'limlariga aloqador bo'lib, xususiy metodika tarkibiga kiradi. Bunda yelka, tirsak, bilak va barmoqlar harakatini rivojlantiruvchi mashqlarning ahamiyatini har bir ustoz o'z uslubiga yarasha talqin etadi va sharhlaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ijrochilik holati deganimizda nimani tushunasiz?
2. Mezrob (mediator) bilan chalinadigan cholg'ular turkumiga qaysi cholg'ular kiradi?
3. Tovush chiqarish vositalari, ijro etish uslublari deganda nimani tushunasiz?
4. Musiqa cholg'ularining ijrochilik imkoniyatlari qanday?

5. Ijrochi holati deganda nimani tushunasiz ?
6. Hozirgi cholgʻulardan qaysi birlari ijrochilik holatining oʻzgarishlariga uchragan?
7. Ijrochi sozanda sahnada oʻzini qanday tutishi kerak?
8. Konservatoriyaga kirishda abituriyentlarda qanday nuqsonlar kuzatiladi?
9. Cholgʻu ijrochilarini tayyorlashda Respublikamizda qanday muammolar mavjud?
10. Uslubiyat fanining maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
11. Ushbu fanning tarixiy rivojlanish bosqichlarini bilasizmi?
12. Ustoz sozanda pedagoglar tomonidan ilgari surilgan ijrochilik tamoyillari nimalardan iborat?
13. Mustaqil mamlakatimiz taʼlim islohotlarida musiqiy taʼlim-tarbiya jarayonining uzluksizligi oʻz aksini topganmi?
14. Musiqiy taʼlim rivojiga hukumatimiz tomonidan berilayotgan eʼtibor nimalarda namoyon boʻlmoqda?
15. Zarbli cholgʻularning kelib chiqishiga qanday hayotiy zaruriyat taʼsir qilgan?
16. «Zarb» soʻzi qanday maʼnoni bildiradi?
17. Aniq balandlikka ega boʻlmagan zarbli cholgʻularni ayting.
18. Zarbli cholgʻularda ijrochilik mahorati asosan qaysi asbobda oʻrgatiladi?
19. Qoʻl skleti qanday suyaklardan tashkil topadi.
20. Zarbli cholgʻularda bilak (kist)ning roli qanday?
21. Nogʻora ijrochiligida qanday holatlar qoʻllaniladi?

Mustaqil taʼlim uchun topshiriqlar:

1. Cholgʻularining ijrochilik imkoniyatlarini oʻrganib chiqing.
2. Cholgʻularning applikaturalari bilan tanishib chiqing.

Foydalanish uchun adabiyotlar.

1. O.Matyoqubov, “Maqomot” Toshkent, 2004 yil.
2. O‘.Rasulov, “An’anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi” Toshkent, 2006 yil.
3. I.Rajabov, “Maqomlar masalasiga doir”, Toshkent, 1963 yil.
4. A.Nazarov, “Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida” Toshkent, 1995 yil.

Foydalanish uchun adabiyotlar.

1. Ibroximov O., “Fergano-Tashkentskiye makomi” Toshkent, 2006.
2. Jabborov A.H. “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” Toshkent, 2004 yil.
3. Jalilov A. “Kommuna Ismoilova” Toshkent, 2009 yil.
4. Rajabov I., “Maqomlar masalasiga doir”, Toshkent, 1963 yil.
5. Rasulov O‘., “An’anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi” Toshkent, 2006 yil.
6. Matyoqubov O., “Maqomot” Toshkent, 2004 yil.
7. Rasulov O‘., “An’anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi” Toshkent, 2006 yil.
8. Rajabov I., “Maqomlar masalasiga doir”, Toshkent, 1963 yil.
9. Nazarov A., “Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika hususida” Toshkent, 1995 yil.

1.3. Ijrodagi bezaklar, zarblar, yakkanavoz, va turli tarkibdagi cholg'u ansambllarida ijrochilik masalalari

Reja:

1. Ijrodagi bezaklar, zarblar.
2. Yakkanavoz, va turli tarkibdagi cholg'u ansambllarida ijrochilik masalalari

***Kalit so‘zlar:** ljobezak, yakkanavoz, ansambll, zarb, ufor, qo‘sh zarb, zarbi parron, maqom, lad.*

1. Ijrodagi bezaklar, zarblar

Ushbu ijrodagi bezaklar, zarblar haqidagi tushuncha va nota misollarini 2002 yili O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori Rifatilla Qosimov muallifligida nashr etilgan “An’anaviy tanbur ijrochiligi” nomli darsligidan foydalanishni lozim deb topdik. (“Cho‘lpon” nashriyoti, 11-13 betlar) “Tanbur cholg‘usi ijrochiligida noxun orqali hosil qilinadigan oddiy va murakkab bo‘lgan zarblar bir necha xildan iborat. Bular: yakka zarb, qo‘sh zarb, zarbi parron, (urma zarb), pirrang, bilak zarb, rez, kalta rez, teskari zarb, ufor zarb.”

Mazkur zarblarni yosh sozandalar o‘rganishlari qulay bo‘lishi uchun o‘quv darslikda mavjud bo‘lgan musiqiy asarlardan biri misol tariqasida olindi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki darslikda keltirilgan barcha musiqiy asarlarda xilma-xil zarblarni qo‘llash mumkinligi bois va nota yozuvi murakkablashib ketmasligi uchun birgina “ Ey sabo” kuyi misolida turli zarblarni tushuntirmoqchimiz. Chunki ustoz- shogird an’anasida mazkur zarblarni qo‘llash, ularni tanlab har bir musiqiy asar ustida ishlash jarayonida, shogird ustoz tajribasi va mahoratiga tayanish tabiiydir. Shu sababli shogird o‘z ustozini ijrosida har bir musiqiy asarni to‘laqonli tinglashi zarur. Bu borada ustoz doimo o‘z shogirdiga namuna bo‘lishligi ayni muddaodir.

Yakka zarb – tanburda tovush chiqarishning oddiy va birlamchi usulidir. Yakka zarb noxunni torlarda pastga yoki yuqoriga bir zarb urish bilan hosil qilinadi. Noxunni pastga urish- nota ustiga P belgisi, pastdan yuqoriga urish esa V belgisi bilan ifodalanadi. Misol: “Ey sabo” D. Zokirov musiqasi

Qo‘sh zarb – noxunni pastga va yuqoriga urib chalingan yakka zarb harakatlarining bir tekisda almashinib turishi natijasida hosil bo‘ladigan tovush chiqarish usulidir.

U bir xil uzunlikdagi  shuningdek, turli uzunlikdagi tez va o‘rtacha sur‘at (temp) li tovushlarni ijro etishda qo‘llaniladi.



Zarbi parron (uchma zarb) – muntazam va tez-tez qo‘llaniladigan usul bo‘lib, milliy kuylarni ijro etishda xarakterlidir. U noxun bilan yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga tez zarb berib chalinadi. Zarbi parron asosiy tovushga yordamchi sifatida keladigan bittalik forshlagi eslatadi.



An‘anaviy musiqiy ijrochiligida mazkur zarb qo‘sh forshlag ko‘rinishida ham uchraydi. Bir tovushning o‘zida zarbi parron hosil qilish, an‘anaviy ijrochilikka xosdir.



Bilak zarb – o‘ng qo‘lni butun torlar bo‘ylab yuqoridan pastga sirg‘anma xarakatlanishidagi noxun bilan tovush chiqarish usulidir. U soz ijrosidagi “arpedjio” uslubini eslatadi. Bilak zarb taktning kuchli hissassi va musiqiy jumlaning oxirida ham kelishi mumkin.

Bilak zarbga xos intervallar – kvarta, kvinta va oktava hisoblanadi. U nota oldidagi to‘lqinsimon tik chiziq bilan belgilanadi.




Kalta rez – an‘anaviy musiqa ijrochiligida har bir notaga alohida – alohida, bir tovushdan ikkinchi tovushga o‘tmay rez berish hollari uchrab turadi. Bunday usul kalta rez deb ataladi.

Kalta rez bir xil va turli balandlikdagi tovushlarni ijro etishda qo‘llaniladi. Nota yozuvida kalta rez kichik chiziqcha bilan belgilanadi.



Rez – noxun bilan pastga va yuqoriga zarb berishning tez va ustma – ust almashinuvidan iborat bo‘lib, chertib chalinadigan torli cholg‘ular, tovushlarni bir – biriga bog‘lab (uzluksiz) ijro etish usulidir. Rez ko‘proq erkin ijroga xos bo‘lgan surnay yo‘llarini, katta ashulalarni tanbur cholg‘usiga moslashtirib ijro etishda xarakterlidir. Nota yozuvida rez usulining chegaralari “liga” bilan belgilanadi.

Teskari zarb – o‘ziga xos “sinkopa” li ritm xarakteriga ega. U noxun bilan bir tomon (past) ga zarb berishning ikkinchi choragiga qat’iy rioya qilish va bir yo‘nalishdagi zarbning oxirgi choragining sakkizdan uchini birlashtirilishi natijasida hosil bo‘ladi. YA’ni noxunning 1,3,4,6,7 – zarblari pastga, 2,5,8 – zarblari yuqoriga qaratib beriladi.




Bu o‘rinda qo‘sh zarbning joyi (noxun bilan pastga va yuqoriga bo‘lgan bir tekis xarakat) o‘zgaradi va 1-,4-,7-tovushlar urg‘u bilan ijro etiladi. Urg‘u zarblar ustidagi “ > ” belgisi bilan ifoda etiladi.

Ufor zarb – o‘zbek xalq yalla va raqs kuylari uchun xarakterlidir. Mazkur usul an’anaviy musiqa ijrochiligida keng qo‘llaniladi. Ufor zarblar ikki xil bo‘lib, 6/8 va 3/4 o‘lchovlarda notada aks ettirilgan.



Pirrang – an’anaviy ijrochilikda ko‘proq qo‘llaniladigan zarblardan hisoblanadi. U tanbur bilan birga rubob, ud, chang kabi cholg‘ular uchun ham xarakterlidir. Pirrang zarbi o‘ziga xos xususiyatiga ayniqsa tanburda to‘laroq namoyon etadi. U birin – ketin chalinadigan to‘rtta zarbning birikmasidan iborat.



AN'ANAVIY MUSIQA IJROCHILIGIGA XOS BEZAKLAR

Odatda, o'zbek xalq va mumtoz musiqa ijrochiligida oddiy tovushlarni turli xildagi bezak va sayqallar bilan boyitib ijro etish muhim mezonlardan hisoblanadi. Zero, tovushlarni sayqal bilan ijro etish har bir Sharq xalqlari musiqa ijrochiligiga xos an'anadir. Bu omil xalqlarning ruhiyati ifodasi damakdir.

Milliy musiqa ijrochiligida qo'llaniladigan bezaklarning maxsus atamalar bilan nomlanishi ko'pchilik sozanda va xonandalarga ma'lum. Masalan: "qochirim", "to'lqinlatish", "nolish", "molish", "kashish" va boshqalar. Ularning ayrimlari tovushning sifatini belgilaydi.

Qochirim – oddiy va murakkab melizm (kuylarni turlicha qisqa tovushlar bilan bezatuvchi belgi) larning barcha turini o'z ichiga oladi:

Bezakarlar – forshlag turlari;

Bidratma – trellar turlari;

Sayqal – mordentlar turlari.

O'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligida bezaklarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Oddiy - bir tovushdan tashkil topgan
2. Qo'sh – ikki tovushdan tashkil topgan
3. Uchtalik – uch tovushdan tashkil topgan

Ijro jarayonida bu bezaklar yangrash lozim bo'lgan asosiy tovushlar hisobida bo'ladi.

Torga ulab ijro etiladigan bezaklar nota yozuvida keng rasm bo'lib qolgan zarb belgilarining biri bilan P, torga urmagan holda erishiladigan bezaklar esa nota ustiga qo'shuv (+) belgisini qo'yish bilan belgilanadi.

Bidratma – ikki yonma-yon tovush tebranishidan hosil qilinadi. U eng qisqa va eng uzun tebranishdan iborat bo‘lishi mumkin. Noxunni torga urib va torga urmasdan ijro etish usuli bidratmaga ham taalluqlidir.

Qo‘shuv belgisi bilan belgilanadigan trellar quyidagicha ijro etiladi: birinchi tayanch tovush noxun yordamida chalinadi, qolgan amallar (yordamchi tovushlar) torga urmagan holda hosil qilinadi:

Qo‘shuv belgisi bo‘lmaganda tovushlar noxunni pastga va yuqoriga urish bilan ijro etiladi.

Sayqal (mordent) – bidratmadan tamomila farq qiladi. Agar bidratma uzun va qisqa notalarga (nota cho‘zimiga qarab) bevosita taalluqli bo‘lsa, sayqal uch yoki besh tovushdan tashkil topadi. Sayqalni ijro etishda dastlabki asosiy notadan uni cho‘zimi yarmigacha qisqartiriladi. Sayqalni nota yozuvida quyidagicha belgilaymiz:

a) uch tovushdan iborat sayqal - oddiy mordentning melizmatik belgisi bilan belgilanadi. Yuqoridagi ko‘rsatma tovushlar oralig‘ini anglatadi;

b) pastda yotuvchi yordamchi tovush – oddiy o‘chirilgan mordent belgisi bilan belgilanadi. Yuqoridagi ko‘rsatma – tovush oralig‘idir;

v) besh tovushdan iborat sayqal – mordentning melizmatik belgisi bilan belgilanadi. Yuqoridagi ko‘rsatma – tovush oralig‘idir;

g) pastga yotuvchi yordamchi tovush – ton yoki yarim ton – qo‘sh chizilgan mordent belgisi bilan belgilanadi.

An’anaviy ijrochilikda sayqalning yuqorida keltirilgan barcha shakllari asosan torga bir zarb berish bilan ijro etiladi. Bu zarb asosiy tovushga to‘g‘ri keladi. Bunda mordentlarning (bittalik, qo‘shaloq chizilgan) hamma belgilari ustiga qo‘shuv (+) belgisi qo‘yiladi.

Mazkur ijro bezaklariga kichik bir misol:

To‘lqinlatish – (vibrato) deyarli barcha xalq cholg‘ulari va ashula ijrochiligi uchun xos bezak. Tanburda barmoqni pardaga bosib noxun bilan urilgandan so‘ng barmoqning o‘zida torni vertikal holda bosib titratish yo‘li bilan hosil qilinadi. Shuningdek, ushbu bezakdan butun,

yarimtalik, choraktalik va nimchorak notalarni ijro etganda foydalanish mumkin.

Nolish – yarim tongacha bo‘lgan o‘ziga xos yirik bidratma. Tanburni chalganda bu usul chap qo‘l barmoqlarini bir tekisda dastada vertikal, chuqurroq bosib harakatlantirish bilan ijro etiladi. Bu bezak belgisi orqali ifodalanadi.

Molish – barmoqni bir tovushdan ikkinchi tovushga ohangdor, ohista sirg‘altirish usuli. U “glissando” ga yaqin bo‘lib, badiiy talqin etishning muhim vositalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, tovush chiqarishning bir necha turlari bilan xarakterlanadi:

a) kvartadan oktavagacha va undan ham ortiq intervallarda (pastdan yuqoriga, shuningdek, ba’zi hollarda yuqoridan pastga) bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg‘alib o‘tish. Bunda sirg‘alish boshlang‘ich tovushni oluvchi barmoqdan boshlanadi, keyingi ton boshqa barmoq bilan olinadi;

b) kichik va katta sekunda hamda tersiya intervallarida pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga bir tovushdan ikkinchi tovushga bir barmoqda sirg‘alib o‘tiladi.

Bir barmoqning sirg‘alishi boshqa (yuqoridagi yoki pastdagi) barmoq bilan almashtirilgan usul ham uchrab turadi. Bu holda, qo‘lning tanbur dastasiga ko‘proq tayanch holdagi o‘ziga xos glissando hosil bo‘ladi, bunda tor bir xil kuch bilan tekis musiqiy sado beradi;

v) barmoqning bir necha yondosh tovushlar (ton yoki yarim ton) bo‘yicha birin-ketin sirg‘alishi. Bu usul faqat bir barmoq bilan bajariladi.

Molish an’anaviy musiqa ijrochiligida keng qo‘llaniladi.

Kashish – yarim ton doirasida amalga oshiriladigan bezak usuli. Bunda barmoqlar tanbur dastasida pardaga bosiladi va ikkinchi barmoq bilan vertikal holda yarim tongacha tor eziladi. Yarim tongacha bo‘lgan kashishning nota ustidagi belgisi

Butun ton doirasida amalga oshirish uchun ikkinchi barmoq asosiy pardaga bosiladi va birinchi barmoq yordamida vertikal holda pastdagi pardada tor eziladi.

Bir tongacha bo‘lgan kashishning nota ustidagi belgisi

a) bir zarbli kashish:

b) ikki zarbli kashish:

v) uch, to‘rt zarbli kashish (bunda zarblar ixtiyoriy ravishda har xil bo‘lishi mumkin):

g) rez – (tremola) – usulli kashish:

kashishning barcha ko‘rinishi an‘anaviy musiqa ijrochiligida keng qo‘llaniladi.

Quyida yarim ton doirasidagi bir, ikki, uch, to‘rt va rez usulli kashishlarni kuy ijrolarida qo‘llanilganligiga (qisqa kuy jumalari orqali) misollar keltiramiz.

Mazkur darslikda berilgan barcha kuylarni ijro etishda qo‘llaniladigan zarblar, bezaklar Rifatilla Qosimovning “An‘anaviy tanbur ijrochiligi” (“Cho‘lpon” nashriyoti, Toshkent – 2002 yil) nomli darsligidan namuna sifatida olindi. Ushbu darslikdagi kuylar esa oddiy va ravon nota yozuvlari asosida berildi. Sababi, o‘ta murakkab nota yozuvi va unda aks etadigan zarb hamda bezaklarni to‘laligicha yozish o‘rganuvchiga bir oz bo‘lsada qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun mutaxassis ustoz – sozanda va tajribali o‘qituvchilar darslikdagi kuylarni o‘z shogirdlariga o‘rgatishlarida jonli muloqot orqali musiqiy asarlarga ijodiy yondoshishlarini tavsiya etamiz.

2. Yakkanavoz, va turli tarkibdagi cholg'u ansambllarida ijrochilik masalalari

Ma’lum bir musiqiy asar B.Asafev ta’biri bilan aytganda uch xil ko‘rinishda mavjud bo‘ladi. Bu nota matni, ya’ni yozuv asosida, ijrochi tomonidan talqin qilingan jonli ijroda va tinglovchining hayotiy

tajribasi va badiiy obrazlarning uning tomonidan qabul qilinishi natijasida asarning haqiqiy ijro jarayoni amalga oshiriladi.

Musiqiy asarni ijro qilish faqat o'sha kompozitor notaga tushirgan fikru-xayollarining talqini bo'libgina qolmasdan, ijrochi uchun o'ta murakkab jismoniy va ruhiy kechinmalardan iborat jarayondir.

Ijro badiiy jihatdan yuksak bo'lishi uchun unda sozandaning diqqati, sezgisi, idroki, tafakkuri, tasavvuri va emotsiyasi (his-tuyg'u va hayajon) faol ishtirok etishi zarur. Bundan tashqari uning shaxsiy sifatlari, ya'ni musiqiy qobiliyati va iqtidori, quvnoqligi va jo'shqinligi, dunyoqarashi va erkin fikrlashi, xarakteri va mintaliteti aks etmog'i lozim. Ushbu shaxsiy sifatlarning barchasi inson ruhiyatining o'ziga xos xususiyati, badiiy-ijrochilik ijodining tarkibiy qismi bo'lib, hali yaxshi tadqiq qilinmagan musiqiy ruhshunoslik (psixologiya) sohasiga aloqadordir.

Diqqat – inson faoliyatining barcha turlarida bo'lgani kabi, musiqa san'atida ijrochining hissiy, intellektual, harakatga keluvchi jarayonlardagi faoliyat samaradorligining muhim shartidir. Musiqiy faoliyatning barcha turlari diqqat bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa jamoa bo'lib ijro qilishda u juda muhimdir. Ya'ni ansambl chalishdan avval doirachining yoki changchining ko'tarilgan qo'llari, auftakt, yakkaxon va jo'rnavoz o'rtasidagi ishora va harakatlarning hammasi musiqada diqqat deb ataladi.

Ayniqsa damli cholg'ular ijrochisi jismoniy va ruhiy jihatlarining barcha tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ijro jarayonida har bir cholg'uchi o'zining murakkab markaziy asab tizimi, butun sezgi a'zolari, ko'rish, eshitish, xotira, harakat mayllari, musiqiy-estetik tasavvurlari va aqliy faoliyatining bir-biriga bog'langan, mujassam holda qatnashishining guvohi bo'lamiz. Bulardan «sezgi» – inson organizmi tomonidan eshitish, ko'rish, hid bilish, tana sezgisi, ta'm bilish va h.k. a'zolari orqali moddiy dunyoni anglaydi.

Bu murakkab jarayonda sozandaning aql-idroki va ruhiy faoliyati ijroga qaratilgan bo'lib, u o'zi hosil qilgan va yonidagi hamrohlari yoki

joʻrnavoz chalayotgan tovushlarni eshitishi, nota matni, barmoqlar applikatura pardalarini his qilishi, (Nay, qoʻshnay, bolabonda) lablari puflaydigan qismini sezishi natijasida bosh miyaga axborot yetadi. Narsalar yoki hodisalarning sezgi aʼzolariga bevosita taʼsiri orqali ongimizda aks etishiga «idrok» deyiladi. Sezgida jismning alohida qismlari, idrokda esa oʻsha jismning barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda his qilinadi. Oʻz ijrosini eshitgan sozanda tajribasiga tayanib uni tahlil qiladi va umumlashtirgan holda xulosa yasab xatolarini tuzatish uchun qarshi harakatga shaylanadi. Ammo umumlashtirish va xulosa yasash uchun inson fikrlashi, mushohada va mulohaza qilishi zarur. Bu tafakkurning vazifasi boʻlib, «Tafakkur» – obʼektiv borliqning fikrda, mushohada va aqlda uning tahlili va sintezi bilan aks etish jarayonidir. U oliy miyaning eng yuqori mahsuli boʻlib, idrokdan farqli oʻlaroq, narsalarning chuqur mohiyati va mazmunini aks ettiradi. Cholgʻu ijrochiligida buni uch bosqichda koʻrish mumkin. Ijrochi dastlab koʻrish, eshitish, his qilish va boshqa sezgilari orqali asarni bir butun holda (uslub, xarakteri, asosiy matni, tonligi, va h.k.) anglaydi va har xil mayda jihatlarini aniqlashga intilmaydi. Ikkinchi bosqichda oʻz ijrochilik fikrini amalga oshirish uchun turli ijro uslublarini qoʻllagan holda sadolanish, metroritm, surʼat, agogika, dinamika va kuy jumllariga aniqlik kiritadi. qisqasi har bir kuy boʻlagi ustida qunt bilan alohida ishlaydi. Uchinchi bosqich ijodiy jarayonning murakkab pogʻonasi boʻlib, bunda ijrochi koʻrish, eshitish, sezgi harakat omillariga va ikkinchi bosqichda oʻz tajribasidan oʻtkazgan amaliyotiga tayangan holda asarni toʻliq va pishiq analiz va sintez qilingan shaklini bir butun holda tasavvur etadi. «Tasavvur» bilimning ibtidosi boʻlib, bosh miyada (analiz va sintez asosida) hosil boʻladi va tafakkurdan farqli oʻlaroq ijrochi hayolida oldindan aks etadigan tushunchalar tizimi boʻlib, badiiy ijodiyotning barcha turlariga xosdir. Tasavvurda inʼikos aks etib bosh miyaga axborot yetgandan keyin bosh miya orqali buyruq beriladi va vujud reflektorlarning turtkisi, yaʼni toʻxtash va yoʻnalish

harakatlari boshlanadi. Reflektorlarga javob tariqasida ijro harakatlari va boshqa signal tizimlari ishga tushadi.

Bunda sozanda tayyor bo'lgan asarni qanday talqinda chalishni va uning timsollarini hayolida tasavvur qiladi va ongida qanday shakllangan bo'lsa shundayligicha tinglovchiga taqdim etadi.

Musiqani badiiy anglash va tushunib yetishda musiqiy tasavvur jarayoni asos sifatida xizmat qiladi. Tajribali tinglovchining tasavvurida faqat jaranglab turgan tovushlar yig'indisigina eshitilib qolmasdan undan keyin keladigan ohanglar, kuy harakati, lad o'zgarishi, mavzu ham aks etadi.

Inson ruhiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri his, tuyg'u va hayajon (emotsiya)dir. Kishi o'zining hayotiy faoliyati jarayonida atrofini o'rab turgan moddiy borliq bilan doimo muloqotda bo'ladi. Buning natijasida shodu-xurramlik, qayg'u va g'am, to'lqinlanish va hayajon, mag'rurlik va iftixor, jahl va g'azab, hayratlanish, xafa bo'lish kabi boshqa ko'plab mayil va tuyg'ular (ob'ektiv dunyoga sub'ektiv munosabat kechinmalari) insonning emotsional his-hayajon holatini ifodalaydi.

Emotsiya (tuyg'u kechinmalarining shakli) ijobiy va salbiy turlarga bo'linadi. Ijobiylari: shodu-xurramlik, to'lqinlanish va hayajon, mag'rurlik va iftixor, hayratlanish va boshqalar. Salbiylari: qayg'u va g'am, jahl va g'azab, xafa bo'lish kabilaridan tashkil topadi.

Ijrochi-sozandaning faoliyati his-hayajon va emotsiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u ijodkor tomonidan yaratilgan asardagi fikr va maqsadni undagi badiiy emotsional qiyofalar tizimini tinglovchiga yetkazib bera olishi zarur. Bunda sozanda asar kayfiyatiga mos, cholg'u sadolanishida o'ziga xos ravishda qizg'inlik, ifoda va joziba baxsh etgan holda ijro qiladi. Cholg'u asari hech qanday emotsiya va his-hayajonsiz chalingan bo'lsa, tinglovchi yuragiga yetib bora olmaydi, uni befarq qoldiradi va u ijrodan va cholg'uchidan norozi bo'ladi. Shuning uchun sozanda har bir asarning badiiy-emotsional timsollar mazmuniga chuqur kirib bora olishi, undagi qayg'urish,

zorlanish, quvonish, tantana, hazil va boshqa kayfiyat turlarini ishonchli yoritib bera olishi kerak.

Musiqiy ruhshunoslikda badiiy obraz uch omil asosida ochib – ifodalanib beriladi. Bularning birinchisi moddiy, ya'ni nota matni, cholg'u tovushi, kuy, garmoniya, usul, dinamika, tembr, registr va h.k. Ikkinchisi ruhiy, ya'ni kayfiyat, tasavvur, ifoda, iroda, hissiyot. Uchinchisi mantiqiy, ya'ni shakl, janr, mazmun kabi omillardir.

Sozandaning ijrochilik amaliyotida intellektual va estetik, ya'ni eng nozik va go'zal oliy nafosat emotsiya shakllanadi. Ushbu his tuyg'ular sozanda ijrochilik faoliyatida o'z oldiga aniq maqsad qo'yib ongli ravishda turli vosita va yo'llardan foydalangan holda musiqiy asardagi badiiy obrazni ochib berish uchun xizmat qiladi.

Ijrochilik jarayonining jismoniy va ruhiy asoslarini chuqur o'rganish bo'lg'usi o'qituvchi, tarbiyachi va sozanda uchun juda muhim shartlardan biridir.

Nazorat uchun savollar:

- 1. Ijrochilik jarayonining murakkab jismoniy va ruhiy kechinmalardan iborat ekanligini bilasizmi?*
- 2. Unda har bir cholg'uchining qanday sezgi a'zolari qatnashadi?*
- 3. Bu murakkab jarayonda ijrochining aql-idroki, ruhiy faoliyati ham ishtirok etadimi?*
- 4. Emotsiya nima?*
- 5. Badiiy obrazning uch omili nima?*
- 6. Ijrochilik jarayonining jismoniy va ruhiy asoslarini o'rganish bo'lg'usi o'qituvchi, tarbiyachi va sozanda uchun qanday ahamiyatga ega?*

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

3. Ijro bezaklari ijrochilik uslublarini o'zlashtiring.
4. Cholg'uda zarblar ijrochilik uslublarini o'zlashtiring.

5. Ijrochi sozandaning sahna madaniyati yuzasidan adabiyotlar bilan tanishib chiqing.

Foydalanish uchun adabiyotlar.

1. Hamidov H. “O‘zbek an’anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi” Toshkent, 1996 yil.
2. Hamidova M.A., Ibroqimov O., Mulajonov D., “Xonandalik san’ati, Jahon va O‘zbek milliy an’analari”, Toshkent, 2009 yil.
3. Ibroqimov O. “Sahih suvoriylar” Toshkent, 2004 yil. O. Matyoqubov, “Maqomot” Toshkent, 2004 yil.
4. Rasulov O., “An’anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi” Toshkent, 2006 yil.
5. Rajabov I., “Maqomlar masalasiga doir”, Toshkent, 1963 yil.
6. Nazarov A., “Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida” Toshkent, 1995 yil.

1.4. Ijrochilikning nazariy va amaliy asoslari

Reja:

1. Ijrochilikning pedagogik, psixologik asoslari.
2. Ijrochilik nafasi.
3. Qo‘l va barmoqlar harakati, uning ahamiyati va rivojlantirish yo‘llari

Kalit so‘zlar: pedagogika, psixologiya, ijrochilik nafasi, qo‘l va barmoqlar harakati, iste’dod, maqom, lad.

1. Ijrochilikning pedagogik, psixologik asoslari.

Jahon umummusiqiy pedagogika tajribasida musiqa cholg‘ularini chalishga qiziquvchi nomzodlar qobiliyatini sinab ko‘rishning turli yo‘llari mavjud bo‘lib, birinchi navbatda uning musiqiy eshitishi, kuyni

eslab qolishi va usul sezgisi aniqlanadi. Bunda nomzod cholgʻu asbobida chalingan tovushni ovozda takrorlay olmasa yoki qoniqarsiz aytsa, buning sababi uning oldin qoʻshiq aytmagani yoki fortepianoni eshitib koʻrmagani va tovush xususiyatini tushuna olmayotgani boʻlishi mumkin. Shuningdek, bolani oʻqituvchi yoki komissiya oldida tortinishi, oʻzini yoʻqotishi, hayajonlanishi natijasida oʻz qobiliyatini toʻla namoyon qila olmayotganligini ham hisobga olish kerak.

Isteʼdodni dastlabki musiqiy qirralarini namoyon qilish uchun nomzodlar guruhlar bilan har xil sinovlar, musiqiy musobaqalar oʻtkazgan holda eng iqtidorlilarini va qobiliyatlilarini tanlashga imkon yaratish zarur. Ushbu tanlovda ularga oʻzini erkin tutish, qoʻshiq aytish va raqs tushishdan tortinmaydigan muhit yaratilsagina bola oʻziga tanish boʻlgan qoʻshiqni bexato kuylashi, yoki sheʼrni yoddan ifodali oʻqishi mumkin va bu katta ahamiyatga ega. Shundan keyin oʻqituvchi tomonidan berilgan kuy yoki tanish qoʻshiqni boshqa pardada kuylatib uning ovozidagi parda tozaligi (intonasiya) va tovush oraliqlari (intervallar, ayniqsa tersiya, kvarta, kvinta va h.k.) ning tozaligini aniqlash mumkin.

Musiqiy xotirasini sinash uchun bolaga ikki, toʻrt takt hajmdagi kuyni cholgʻu asbobida chalib berib, kuylash soʻraladi.

Nomzodning usulni sezish qobiliyatini tekshirganda unga tanish boʻlgan usulni takrorlatiladi keyin esa sekin asta notanish va murakkabroq usullarni chaldirib sinab koʻriladi. Ushbu jarayon muvaffaqiyat bilan yakunlangandan keyin bolaning tana tuzilishi va jismoniy rivojlanishini hisobga olgan holda va asosan oʻz xohishiga qarab maʼlum damli, mizrobli, tirnama yoki zarbli cholgʻuda oʻqishga tavsiya qilish mumkin.

Milliy cholgʻular chalishni oʻrganmoqchi boʻlgan nomzodlar jismoniy barkamol, nafas yoʻllari, oʻpkalari toza va sogʻlom, tish va jagʻlari, lab va chakka mushaklari, barmoqlari va tana tuzilishi normal rivojlangan boʻlishi juda muhim. Damli cholgʻularda oʻqitishga tanlanadigan nomzodlar 10-12 yoshga kirgan boʻlishlari maqsadga

muvofig. Ammo keyingi yillarda mamlakatimizda 6-7 yoshli bolalarni dutor, doira rubob kabi boshlang'ich tayyorgarlikdan o'tkazish orqali milliy cholg'ularda o'qitish tajribasi qo'llanilmoqda. Nomzodlar jismoniy sog'lom, tana tuzilishi normal rivojlangan bo'lishi bilan birgalikda milliy cholg'ularning har biriga alohida tanlanadi. Eng asosiysi har bir nomzod u yoki bu cholg'uda o'z xohishiga qarab o'qisa, uning barcha jihatlari shu cholg'uga mos kelsa, bunday mashg'ulot ustozga ham, shogirdga ham birday zavq keltiradi va muvaffaqiyatlar garovi bo'lishi muqarrar.

2. Ijrochilik nafasi

Inson organizmida nafas asosiy o'rin tutadi va o'pkaga olingan kislorod iste'mol qilingan har xil uglevodlar, yog' va oqsillarning parchalanishida muhim rol o'ynaydi. Nafas olingan paytda havo burun teshiklaridan changlardan tozalangan va biroz qizigan holda o'pkaga o'tadi. O'pkalar odam ko'krak qafasida joylashgan ikkita elastik qopchalar bo'lib, ularga nafas olinib to'lganda ko'krak qafasi kengayadi va qorin diafragmasi pastga cho'ziladi. Nafas chiqarilganda esa aksincha holat yuz beradi. Inson o'pkasi hajmining nafas sig'imi 3500-4500 ml bo'lib, jismoniy mashqlar va suzish bilan muntazam shug'ullanish natijasida uning havo sig'imi hajmini 6000 ml ga etkazish mumkin.

Inson tinch turgan paytda bir minutda 18-20 marta nafas olib chiqaradi. Bu oddiy nafas hisoblanadi. Ijrochilik nafasi bilan oddiy nafas bir-biridan farq qiladi. Oddiy nafas burundan erkin olinadi, uning olinish va chiqarilish vaqtlari bir-biriga tengdir.

Damli cholg'ularda tovushning balandligi, kuchi, tembri va davomiyligini ta'minlash uchun nafaqat til zarbi yoki lab mushaklari ishi balki, ijrochilik nafasi eng muhim omillardan hisoblanadi. Chunki tovushning paydo bo'lishida til birinchi zarb (attaka)ni berib tovush

hosil qilsa uning davomiyligini, ya'ni cho'zimini nafasning uzluksiz oqimi ta'minlaydi.

Ijrochilik nafasi ongli ravishda og'iz burchaklari orqali olinadi (uzluksiz nafasdan tashqari) va olinishida tez, chiqarilishida esa tejamkorlik bilan asta sekin sarflanadi.

Ijrochilik nafasini og'iz orqali olgan paytda u til chekkalariga tegib o'tsa yoki tomoqni qisgan holda olinsa shovqinli xissillagan tovush hosil bo'ladi va u barchaga xalaqit beradi. Bunday kamchilikdan juda ehtiyot bo'lish zarur.

Ijrochilik nafasida o'pkaning to'liq hajmidan foydalaniladi. Uning asosan uch turi mavjud bo'lib, bular:

a) ko'krak nafasi, bunda o'pkaning yuqori qismi havoga to'lishi natijasida ko'krak qafaslari kengayadi, qorin bo'shlig'i (diafragma) esa passiv holatda bo'ladi;

b) qorin nafasi, bunda o'pkaning pastki qismi havoga to'lishi natijasida qorin bo'shlig'i (diafragma) pastga cho'ziladi. Ko'krak qafaslari esa passiv holatda qoladi;

v) aralash nafasda o'pkaning butun hajmi havo bilan to'ladi, bunda olingan nafas o'pkaning pastki qismidan to'lishib, qorin (diafragma) pastga cho'ziladi va yuqori qismi ham to'lishi natijasida ko'krak qafasi kengayadi. Bu ko'krak va qorin nafaslarining aralashgan turi bo'lib, ijrochilikda eng ko'p qo'llaniladigan samarali nafas hisoblanadi.

Diafragmani nasosga va o'pkalarni nafas xalqumiga havoni haydovchi temirchining meshqopiga o'xshatish mumkin. O'pkaning pastki qismi kengroq bo'lib, unga ko'proq havo sig'adi.

Nafas olish paytida o'pkalarning bosimi ostida diafragma pastga cho'ziladi. Nafas chiqarishda esa diafragma sekin ko'tariladi, lekin bo'shashmaydi.

Ushbu nafas turlaridan tashqari Kavkaz xalqlari damli cholg'uchilari va O'zbekiston surnaychilarida qaytarma nafas yoki Xorazmda dam aylantirish deyiladigan nafas turi hozirgi davrda ham qo'llaniladi. Bunda ijrochi lunjini shishirgan holda unda zahira havoni

saqlaydi va burundan nafas olayotgan paytida o'sha havoni chakka mushaklari yordamida surnay naychasiga yo'llaydi. Natijada o'pkaga havo ham olinadi va surnayga yuborilayotgan nafasda ham uzilishga yo'l qo'yilmaydi va uzluksiz tovush hosil bo'ladi.

Bundan maqsad qadimda va hozir ham musiqiy tovushning uzluksizligi, kuy-ohang vaqt bo'shlig'ini to'ldiruvchi, qadimgi devorlardagi islamiy naqshlarga o'xshab uzilmasdan, inson ruhiga oziq beruvchi omil, ya'ni ollohning ne'mati deb hisoblanadi. Shuning uchun ham u ma'lum muddat ichida qancha ko'proq davomli bo'lsa shuncha yaxshidir.

Qaytarma nafasni o'rgatish uchun Xorazmlik mashhur xon surnaychisi Xudak ota – Xudoybergan qurbon o'g'li o'z shogirdlarini qo'llariga nay qamish berib dam aylantirish tamoyilini tushuntirgach, boshlovchi surnaychini ariqcha chetiga yotqizgan holda naychani suvga tiqib puflatar va suvda pufakchalar hosil bo'lishi uzluksiz davom etsa, ya'ni nafas aylansa shogird surnayni qo'lga olgan. Agar dam aylanishida uzilish ro'y bersa suvda uzluksiz pufak chiqqunicha mashg'ulotni yana davom ettirgan.

Ijrochilik nafasining qaysi shakli bo'lishidan qat'iy nazar sozanda uni olgan – ya'ni o'pkasini havoga to'ldirgan paytda iloji boricha yelkalar ko'tarilmagani ma'qul. Shuningdek, nafasni puflash, ya'ni sarflash jarayonida o'pkada zahira nafas qolishi kerak. Chunki u o'pkani qaytadan havoga to'ldirishda katta ahamiyatga ega.

Musiqiy asarlarda nafas olinishi mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan joylar mavjud bo'lib, ularga rioya qilinsa kuy jumlas, davriyasi va umuman musiqa matni badiiy ifodali chiqadi va uzilishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Nafas olishning imkoni bo'lmagan passajlarda – kuyning qiyin bo'laklarida ijrochi qanday yo'l tutishi kerak? Bunda sozanda kuy jumalari yakunida va passajlarning qulay joyida ustoz maslahatiga asosan nafas olishi mumkin.

Ijrochilik nafasini rivojlantirish uchun toza havoda jismoniy mashqlar, ta'lim jarayonida cho'zimli tovushlarni chalish, har xil dinamik tusdagi tovushlarni zamzama qilish va turkumli asarlarning vazmin sur'atdagi qismlarini qunt va chidam bilan ijro qilish zarur.

3. Qo'l va barmoqlar harakati, uning ahamiyati va rivojlantirish yo'llari

Cholg'u ijrochiligi mahorati barmoqlar harakati, tilning bajaradigan vazifasi, lab va nafas organlari ishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular bir-biriga mutanosib kelgandagina umumiy ijrochilik holati harakatga keladi va ijro jarayoni amalga oshiriladi.

Barmoqlar harakati mohiyatini tushunish uchun qo'l va barmoqlar skleti tuzilishini ko'rib chiqishimiz zarur. Ular quyidagicha: yelka, bilak, panja oldi, panja va barmoq bo'g'inlari suyaklaridan tashkil topgan. Bosh barmoqdan tashqari barcha barmoqlar uch bo'g'indan iborat bo'lib, asosiy, o'rta, va tirnoq bo'g'inlariga ajratiladi. Bosh barmoqda esa asosiy va tirnoq bo'g'ini mavjud.

Cholg'u asbobida barmoqlar joylashuvi (applikatura)ning tabiiy holati ijro mahoratini egallashning birinchi bosqichi hisoblanadi. Ayniqsa nay va tilli-naypachoqli cholg'ular pardalarida o'quvchi barmoqlari yarim egilgan tabiiy holatda bo'lishi, yuqoriga ortiqcha ko'tarilmasligi, yon tomonga surilib ketmasligi zarur. Tirnab chalinadigan cholg'ularda esa barmoqlar cholg'u asbobi pardalaridan uzilmagan holda harakatlanmog'i kerak. Kamonli cholg'ularida o'ng qo'l holati, zarbli cholg'ularda qo'l va bilaklarning holati ko'zda tutiladi.

Ijrochilik mahoratini egallashning ikkinchi bosqichida gamma, uch tovushlik, ayniqsa arpedjiolarning turli aylanmalari har xil mashq va etyudlarni chalish juda muhim. Shuningdek, barmoqlar harakatchanligini rivojlantirishda bidratma (trel)larni chalish foydali.

Bunda barmoqlar ko'tarilib tushishi izchilligi ravon va bir tekkisda bo'lishiga e'tibor qaratish lozim.

Ijrochilik mahoratini egallashning uchinchi bosqichida qo'shimcha applikaturani qo'llash ham muhim ahamiyatga ega. qo'shimcha applikatura tovushqatorni yanada qulay va tez chalish yoki tovushning intonasiya sifatini toza chiqarish maqsadlarida qo'llaniladi.

Nazorat uchun savollar:

1. *Nomzodlarning musiqiy qobiliyatlarini aniqlashning qanday ilg'or yo'llari mavjud?*
2. *Damli cholg'ularda o'qitishda nomzodlar yoshining qanday ahamiyati bor?*
3. *Cholg'u asbobiga tanlash va taqsimlashda nomzodlar jismoniy sog'lig'i va rivojining qaysi tomonlariga ko'proq e'tibor qaratiladi?*
4. *Inson organizmida o'pka va unga olinadigan nafas qanday rol o'ynaydi?*
5. *Damli cholg'ularda oddiy nafas bilan ijrochilik nafasini farqi bormi?*
6. *Ijrochilik nafasini qaysi turlarini bilasiz?*
7. *Kuy matnining qanday joylarida nafas olish mumkin va qaysi joylarida tavsiya etilmasligini tushuntirib bering.*
8. *Ijrochilik nafasini rivojlantirishning qanday yo'llari mavjud ?*
9. *Qo'l va barmoqlar skleti tuzilishini bilasizmi?*
10. *Tirnab chalinadigan cholg'ularda barmoqlar, kamonli cholg'ularda o'ng qo'l, zarbli cholg'ularda qo'l va bilaklarning holati qanday bo'lishi kerak?*
11. *Ijro mahoratini egallashda gamma, uch tovushlik, har xil mashq va etyudlar qanday rol o'ynaydi?*
12. *Ijrochilik texnikasi badiiy asarning mazmunini ochishdagi maqsadmi yoki vosita?*

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

1. Ijrochilikning pedagogik, psixologik asoslari yuzasidan xorijiy adabiyotlarni toping va tarjima qiling.
2. Ijrochilik nafasi uchun mashqlar to'plamini bajaring.
3. An'anaviy cholg'u sozlari applikaturasi bilan to'liq tanishib chiqing.

Foydalanish uchun adabiyotlar.

1. Begmatov S. "Hofizlik san'ati" Toshkent, 2007 yil.
2. Begmatov S. "Orifxon Hotamov" Toshkent, 2000 yil.
3. Belyaev V., "Muzikalnaya folkloristika v Uzbekistane" Toshkent, 1963 yil.
4. G'ofurbekov T.B. "Folklorniye istoki uzbekskogo professionalnogo muzikalnogo tvorchestva" Toshkent, 1984.
5. Golubev P.V., "Soveti molodim pedagogam – vokalistam", Moskva, 1963. Matyoqubov O., "Maqomot" Toshkent, 2004 yil.
6. Rasulov O'., "An'anaviy xonandalik o'qitish metodikasi" Toshkent, 2006 yil.
7. Rajabov I., "Maqomlar masalasiga doir", Toshkent, 1963 yil.
8. Nazarov A., "Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida" Toshkent, 1995 yil.

1.5. Musiqa asarlari ustida ishlash, o'rgatish, turli ijro yo'llarini farqlay olish, ustoz sozanda va xofizlar ijrochilik faoliyatlari haqida ma'lumot

Reja:

1. Insonda musiqani zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) eshitish xususiyatlari.
2. O'quvchining musiqa san'atiga va tavsiya qilingan cholg'uga bo'lgan munosabatini

3. Turli ijro yo'llarini farqlay olish.
4. Ustoz sozanda va xofizlar ijrochilik faoliyatlari haqida ma'lumot.

***Kalit so'zlar:** zohiriy, botiniy, turli ijro yo'llari, ustoz, sozanda, xofiz, kasb.*

1. Insonda musiqani zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) eshitish xususiyatlari

Ijrochilik jarayonida sozandaning labi, nafas organlari, tili va barmoqlari bilan chambarchas bog'liq holda uning musiqiy eshitish tasavvuri ham faol ishtirok etadi. Musiqiy eshitish sozanda umumiy qobiliyatining yetakchi omillaridan biridir.

Musiqiy asar mazmunini ijrochi musiqiy tovush, go'zal ovoz orqali talqin qiladi va tinglovchi tomonidan eshitiladi – qabul qilinadi. Bu jarayonda asosiy rolni eshitish, tinglash va tasavvur qilish holatlari bajaradi. Demak musiqiy eshitish va tasavvursiz san'atga, musiqaga, xususan ijrochilikka oshno bo'lish aslo mumkin emas. Chunki musiqani hamma eshitadi, ammo uni barcha ham tinglab idrok eta olmaydi.

Kasb nuqtai nazaridan musiqiy eshitish ham ikki turga bo'linadi: Birinchisi rivojlanuvchi yoki qiyosiy eshitish qobiliyati sozandaga bir tovushni eshitgandan so'ng boshqalari bilan taqqoslagan – qiyoslagan holda balandligini aniqlashda yordam beradi. Ikkinchisi mutlaq (absolyut) eshitish qobiliyati bor sozanda esa tovush balandligini to'g'ridan-to'g'ri boshqalari bilan taqqoslamasdan aniq ayta oladi. YA'ni real tovush hosil bo'lmasdan oldin, (notani ko'rsa yoki unig balandligi nomini eshitgan zahoti) mutlaq eshitish qobiliyatli sozandaning tasavvurida uning balandligi aniq jaranglaydi va ijrochilik holatini o'sha tovushni hosil qilish uchun tayyorlaydi.

Ijrochilik tajribasida musiqiy eshitishning boshqa jihatlari ham mavjud bo'lib, ular:

a) tovush tuslarini (tembri) anglash, bunda tovushning tembrini ya'ni tovush ranggini, erkak yoki ayol ovozi, ma'lum cholg'u asbobining tovushi va h.k. eshitish ko'zda tutiladi;

b) ritmik eshitish, bunda usul sezgisi orqali makonda musiqiy harakatni payqash, ya'ni ovozlari bilan uning cho'zimlarini mutanosib holda zarb va usullarini his qilish;

v) tovush balandligini tinglash;

g) tovushqator va lad asoslarini aniqlash (garmonik yoki melodik va h.k.);

Yuqoridagilardan tashqari insonda zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) eshitish xususiyatlari ham mavjud bo'lib, zohiriy (tashqi) eshitish orqali yakkaxon sozanda, hofiz, ansambl tomonidan ijro qilingan asarni barcha jihatlari: balandligi, tembri, usuli va musiqiy matnini anglab oladi. Ma'lumki bunday ustozona uslub Sharq xalqlarida juda keng tarqalgan bo'lib, qadimdan otadan bolaga, ustozdan shogirdga ayniqsa musiqiy meros namunalari og'zaki, ya'ni eshitish-tinglash orqali amalga oshirilgan va bizgacha yetib kelgan. Sozandani tarbiyalashda esa doimo o'zini eshitish orqali nazorat qilib borish, bunda tovush sifati, intonatsiya, dinamik belgilar va boshqa jihatlari e'tibor qaratish muhim omillardan biridir.

Botiniy (ichki) eshitishda insonning ichki tug'usi, ya'ni oldin eshitilgan, qulog'iga tanish bo'lgan hayolidagi asar ko'zda tutiladi. Bu hissiyot beshta jihatda namayon bo'ladi:

a) oldin kimningdir ijrosida eshitilgan va xotiraga o'rashib qolgan musiqiy timsollar;

b) o'zi qachonlardir ijro qilgan asar yoki kuy qismini xotirlash;

v) asarni notadan cholg'u asbobisiz o'qigan holda sadolanishini tasavvur qilish;

g) chalish yoki o'quvchiga tushuntirish uchun asar va uning qismlari bastalangan asarni hayolda shakllantirish;

d) ijro jarayonida birdaniga tayyorgarliksiz (ekspromt) badiha (improvizatsiya), namud (ko‘rinish), avj, (gul partav) yoki yangi qismlar ijod qilish.

Botiniy va zohiriy eshitish yillar o‘tishi bilan bilim, tajriba, malaka oshgani sayin rivojlanib, sayqallanib boradi. Shuning uchun ham ta’limning birinchi qadamlaridan boshlab musiqiy eshitishni va eshitish nazoratini rivojlantirish o‘ta muhimdir.

Musiqiy xotira – inson ruhiy jarayonining muhim jihatlaridan biri yod olish va xotirada saqlash bo‘lib, uning mohiyati esda saqlab qolish va zarur paytda o‘sha xotiradagilarni ma’lum bir vosita orqali yuzaga chiqarish – namayon qilish hisoblanadi.

Musiqiy xotira insonda ona allasi ohanglari orqali balki, ona qornidalik paytidanoq shakllanadi. Yengil, esda saqlanadigan, qisqa jumlati, jozibador, yorqin kuy va qo‘shiqlar yosh bolaning murg‘ak xotirasida doimo muhrlanib qoladi va butun umri davomida unga yoshligini eslatib turadi.

Sozandaning kasbiy faoliyatida turli musiqiy tuzilma va shakllarni yod olish hamda esda saqlab qolish malakalari singdiriladi. Bunda kichkina kuy jumllalaridan tortib to katta turkumli asarlargacha yodda saqlash va uni esdan chiqarmasdan ijro qilish musiqiy xotirani rivojlantirishning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Xotiraning quyidagi turlari mavjud:

a) tovush balandligi, kuchi, tembri, lad tizimi, usuli, ohangdoshligi, kuy va qo‘shiq shaklini esda saqlash bilan bog‘liq xotira turlari;

b) inson qiyofasi, tabiat manzarasi, buyum namunasi, biror timsol, nota yozuvi, ularning cho‘zimi, turoqlanishi va boshqalarning qog‘ozdagi yozuvda, ekranda ifodalanishi ko‘zda muhrlanadi va ko‘rish xotirasiga kiradi;

v) turli harakatlarni eslab qolish va uni qaytarish (dirijorlik, raqs, pantomima va h.k.), cholg‘u asbobini tana sezgi organlari (lab, qo‘l va

barmoqlar, nafas organlari harakati va h.k.) sezib eslab qolinishi sezgi-harakat xotirasi;

g) esnash, kulish, yig‘lash, lazzatlanish, ta’sirlanish, emotsiya tuyg‘ularini esga olib o‘zida aks ettirish his-hayajon xotirasi;

d) hikoya, doston, roman, she’r, maqol, topishmoq va boshqalar so‘z-mantiq xotirasi turlariga kiradi.

Xotirani yanada mustahkamlash uchun ustoz sozandalar Maxmudjon Muhammedov tomonidan musiqiy asarni yod olishda quyidagicha yo‘l tutilishi uqtiriladi:

a) asarni magnit tasmasidan eshitib esda qoldirish nota bilan cholg‘u asbobida chalib esda saqlashga harakat qilish;

b) notasiz cholg‘uda yoddan chalish;

v) cholg‘u asbobisiz notaga qarab ko‘rish orqali ko‘z xotirasida mustahkamlash;

g) notasiz va cholg‘u asbobisiz hayoldan o‘tkazish orqali musiqiy xotira mustahkamlanadi.

Musiqiy xotira mustahkam bo‘lishi uchun nafaqat aqliy xotira (quvva'iy hofiza), balki, «qalb xotirasi» zarurligini ko‘pchilik olimlar ta’kidlashadi.

Usul sezgisi musiqiy asarlarning tuzilishida eng asosiy omillardan biri bo‘lib, ijrochilik jarayonida katta ahamiyatga ega. U inson organizmi bilan tabiatdagi o‘zaro o‘lchov va ritmik bog‘liqlik hamda mutanosiblikni ifodalaydi. Bunda insonning yurak urishi, nafas olishi, qadam tashlashi, hissiy (emotsional) harakat sezgilari tabiatining barcha jihatlari bilan bog‘liqdir.

Usul sezgisi rivojlantirish juda qiyin bo‘lgan qobiliyatlardan biridir. Shuning uchun ham o‘quvchida ta’limning dastlabki bosqichlaridan boshlab usul sezgisini tarbiyalab borish zarur. Bunda berilgan kuyni xirgoyi (solfedjio) usulida kuylash, ularda har bir tovush cho‘zimi va tovush turoqlarining tashkiliy tuzilishi haqida aniq tasavvur hosil qilishda katta zamin yaratadi. Ayniqsa O‘zbekiston davlat konservatoriyasida solfedjio fanidan dars beradigan tajribali

o‘qituvchilarning mashg‘ulotlarida xalq kuylari va maqom usullarini talabalarga doirada yoki stol chetiga chertgan holda solfedjio qilib kuylatish malakalari ritmik jihatdan murakkab bo‘lgan milliy musiqa va maqomlarni o‘zlashtirishda katta ahamiyatga ega ekanligini namayon etmoqda.

O‘quvchilarda ijrochilik vazifalarining murakkablashib borgan sari usul sezgisi rivojlana boradi. Buning natijasida ularda erkin fikrlash, asarni o‘zicha erkin talqin qilishga moyillik seziladi. Bunda u o‘qituvchi yordamida Rubato – (lotincha – o‘g‘irlangan, notalarning cho‘zim miqdori aniq saqlanmagani holda ijrochining xohishi bo‘yicha kengaytirib yoki qisqartirib ijro qilish) va Agogika – (lotincha – yurgizish, ergashtirish. Musiqa ijrochiligidagi badiiy niyatni ko‘zlab asar sur‘atini biroz o‘zgartirish, ya’ni tezlatish yoki sekinlatish) o‘zgarishlarini qo‘llay olish malakalarini egallaydi. Bulardan tashqari o‘quvchining ansambllarda qatnashishi, zarbli cholg‘ular jo‘rligida hamohang bo‘lib ijro etishi, yonidagi jo‘rnavozni yaqindan his qilishi usul sezgisini shakllantirish va mustahkamlashning eng muhim shartlaridan hisoblanadi.

2. O‘quvchining musiqa san‘atiga va tavsiya qilingan cholg‘uga bo‘lgan munosabatini tarbiyalash

Milliy cholg‘ularda o‘qish istagini bildirgan nomzodning to‘g‘ri tanlanganligiga muallimning ishonchi hosil bo‘lishi uchun bolaning jismoniy rivojlanishini va cholg‘u asbobiga to‘g‘ri tavsiya qilinganligini takroran tekshirib u bilan suhbatlar o‘tkazishi maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi shogirdining mazkur cholg‘uni tanlagani va unda o‘qib ketishiga ko‘zi yetgandan keyingina o‘quvchini cholg‘uning tuzilishi, sozlanishi va bo‘laklari bilan tanishtiradi va unga cholg‘u asbobi anjomlari (Nohun, mezrob, changcho‘p, kamon va hk.) tanlashga kirishadi. Birinchi mashg‘ulotlarni cholg‘u asbobining imkoniyatlarini namoyish qiladigan milliy yorqin kuylarni chalib berish

orqali o'quvchini qiziqtirish hamda mazkur cholg'u haqida qiziqarli hikoya qilib berish bilan boshlaydi. Agarda o'quvchi avvalida ana shu cholg'uda o'qigan va ma'lum malakalarni egallagan bo'lsa bunda ish yanada oson kechadi.

O'qituvchining bosh vazifasi shogirdida mutaxassislik darsiga va tanlagan cholg'u asbobiga nisbatan muhabbat uyg'otishdir. U o'quvchini qiziqtirish va ta'sir qilish orqali undagi ruhiy jarayonni (qabul qilish, diqqat, xotira qobiliyati, fikrlash va h.k.) faollashtiradi. Bunda muallimning mutaxassislik sinfida o'zi ijro qilib ko'rsatishi, konsertlarda chiqishi, ochiq dars o'tishi, sinf konsertlari berishi, nota adabiyotlarining rang-baranglaridan tanlab o'rgatishi, "muammoli dars" o'tishi kabi omillarning ahamiyati juda katta.

Darsda yuqori kurs talabalari ijrosini quyi kursdagilar kirib tinglashlari va buning teskarisini qo'llanilishi ham katta samara beradi. Talabada o'qituvchilik malakalari va ko'nikmalari shakllana boradi hamda u pedagogik amaliyotning birinchi pog'onalarini his qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa mashhur ijrochilar chalgan magnit va mexanik yozuvlar, disklarni eshitish hamda ko'rish, ularning konsertlariga borib jonli ijrolaridan bahramand bo'lish, uchrashuvlarda o'zlari bilan muloqotda bo'lish o'quvchi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi talabaga ijro dasturi tanlashda har bir shogirdining shaxsiy xususiyatlarini, uning xohishi, qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ish yuritishi lozim. Ayniqsa milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda qadimgi ustozona ta'lim berish yo'llari va ilg'or metodologiyalarga asoslangan turli uslublardan foydalanish ishning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

3. Turli ijro yo'llarini farqlay olish

O'quvchining tavsiya qilingan cholg'uga ko'nikish hosil qilishi murakkab jismoniy va ruhiy jarayon bo'lib, bunda har bir o'quvchiga

mustaqil yondashish talab etiladi. Ta'limning dastlabki mashg'ulotlaridan boshlab shogirdga cholg'u asbobi, unga mos anjom (nohun, mezrob, kamon va h.k)lar tanlash juda muhim. Yaxshi tanlangan cholg'u keyingi muvaffaqiyatlar garovi bo'lib, uni to'g'ri ushlash va ijro holati paytida butun tana a'zolari, mushaklarni erkin tutish va doimo ustoz nazorati ostida bo'lish zarur. Bu davrda o'quvchilarda yengil va bermalol chalishga ruhiy ko'nikmalar hosil qilinadi. Bosh, gavda, qo'l va oyoqlarni erkin tutish, o'tirib chalgan paytda oyoqlarni chalishtirmaslik malakalari singdiriladi. O'quvchining jag' suyaklari va tishlarning har xil rivojlanganligi natijasida cholg'uni ushlash holati har bolada turlicha bo'lishi mumkin. Bunda tishlarning notekisligi natijasida cholg'ularni chap yoki o'ng tomonga qiyshaytirib ushlashi, puflama cholg'ulari jag' suyaklarining shakllanishiga qarab ko'proq yuqoriga yoki pastga qaratib ushlash holatlari kuzatiladi. Ijrochilik tajribasida bunday o'quvchilarga ustozning tavsiyasiga qarab turli shakldagi anjomlar (nohun, mezrob, kamon va h.k) tanlanadi. Kezi kelganda ular maxsus buyurtma orqali yasatiladi va o'quvchining imkoniga moslangan holda qo'llaniladi.

Ijrochilik nafasini to'g'ri yo'lga qo'yishda o'quvchi nafas olganda o'pkaning pastki qismlari to'lishini sezishi uchun oldin uni stolga yotqizgan holda tabiiy nafas oldirish va diafragma ishini tushuntirish, so'ngra ikkala qo'l barmoqlari (ko'rsatkich, o'rta, nomsiz, jimjiloq)ni qorin va bosh barmoqlarni biqiniga qo'ygan holda nafas olish va asta sekin chiqarish mashqlarini bajartirish maqsadga muvofiq. Bunda shogirdning o'pka qopchalarini pastdan to'lishi, diafragma mushaklari kengayishi va qisqarishini o'z tanasi va barmoqlari orqali sezadi, ko'radi va kelgusida shunga amal qiladi.

Xususan o'quvchiga audio, video yozuvlar va ulardan qanday foydalanish, mashhur sozandalar ijrolarini yig'ish va muntazam tinglab borish, shogird bilan ularning ijrolari to'g'risida mulohaza va muhokamalar yuritish ta'limda juda yaxshi samara berishi muqarrar.

Kichik shakldagi kuylar ustida ishlaganda, ular o'quvchida bastakor uslubi, uning yo'nalishi, musiqiy fikrning ixchamligini aniq va tiniq anglab olinishida katta yordam beradi. Chunki kichik shakldagi asarlar zinapoyaning birinchi pog'onasi bo'lsa, uni bosib o'tgandan keyingina o'rta pog'onaga, ya'ni o'rtacha shakldagi asarlarga qo'l urish mumkin bo'ladi. O'rtacha kuylar esa katta hajmdagi asarlarni o'rganish uchun bog'lovchi vazifasini bajaradi. Misol uchun maqom ijrochiligini o'rganish uchun, xalqchil, lapar, qo'shiq, doston nomalaridan parchalarni kabi eshitilib yurgan asarlardan boshlansa o'rta pog'onada ikki, uch bo'limdan iborat xalq og'zaki ijodiga mansub asarlari yoki maqom yo'lidagi kichkina asarlar, shuningdek maqomlardagi gardun, peshrav qismlarini ijro etsa maqsadga muvofiq bo'ladi. An'anaviy ijrochilikda eng yirik asarlar sirasiga maqomlardagi mushkilot-cholg'u qismidagi asarlardan boshlanib toki ashula yo'llarining saraxbor, talqin, nasr, savt va mo'g'ulchalar ijro ettirish ma'quldir.

Bunday asarlar o'rtacha shakldan ham murakkabroq bo'lib, sozandadan muayyan professionallikni hamda yuksak musiqiy mahoratni talab qiladi.

O'rtacha shakldagi asarlar ustida ishlashda ham kichik, ham yirik shaklga aloqador bo'lgan tamoyillar o'zlashtirilib, murakkab yirik shakldagi asarlarni ijro etishga tayyorlaydi. Misol sifatida O'zbekiston xalq artisti, akademik Y. Rajabiy va professor M. Yusupovlar tomonidan notaga olingan va nashr etilgan XI tomlik "O'zbek xalq musiqasi" va maqom kitoblarida berilgan asarlar ko'zda tutiladi.

Bastakorlar ijodida ham yirik va o'rta shakldagi asarlar ijod qilganlardan X. Abdurasulov, T. Jalilov, D. Zokirov, I. Ikromov, F. Sodiqov, K. Jabborov boshqalarni keltirib o'tish mumkin.

Yuksak ijrochilik darajasiga yirik musiqiy asarlar ustida qunt bilan ishlagandagina yetishish mumkin. Chunki ushbu jarayonda ijrochi oldida musiqiy tafakkur, ijrochilik madaniyati, musiqiy did va ijrochilik mahoratiga oid mohiyati jihatidan turli tuman musiqiy murakkabliklar paydo bo'ladi.

Yirik shakldagi asarlar haqida gapirganda dastlab cholgʻu musiqasi ijodkorligining yetuk shakli boʻlgan, tugal, chuqur va murakkab jarayonlarni rivojlantiruvchi maqomlardagi cholgʻu yoʻllari toʻgʻrisida soʻz ochgan maʼqul.

Oʻzbek bastakorlarining ijodiga buyuk bastakorlarimiz X.Abdurasulov T.Jalilov, D.Zokirov, I.Ikromov, F.Sodiqov, K.Jabborovlar ijodida salmoqli oʻrin egallaydi. Bizning janr va asarlarimiz qadimdan oʻz oʻrnini topib kelgan. Aytib oʻtilgan bastakorlar bastalagan asarlarining andozasini maqomlar va evropa janrlarini uygʻunlashtirgan holda yaratganlar.

Bastakorlik davrining ikkinchi fasliga keladigan boʻlsak, har bir ijrochi oʻz asarini yarata boshladi. Bulardan: X.Abdurasulov, J.Sultonov, K.Otaniyozov, O.Xotamov, F.Mamadaliev, Q.Iskandarov, A.Ismoilovlarni aytib oʻtishimiz mumkin.

Bastakorlik tarixida yaratilgan asarlar oʻzining mazmuni, garmonik tili, kuy yoʻnalishi, metroritmi kabi nafaqat ichki jihatlari balki, tashqi, yaʼni qismlari va shaklining butun tuzilishi bilan ham qisman oʻzgarishlarga uchradi.

Shu asarlarning musiqiy cholgʻu asbobi ifoda vositalarining turli jihatlari va sozandaning mahoratini yaqqol ochib beradigan janrlardan hisoblanadi.

Maʼlumki, 17 asrning yirik musiqashunosi Darveshali Changiy oʻzidan oldingi va zamonasining musiqiy kuylari bilan bir qatorda, lad, pardalari haqida soʻz yuritgan. Oʻn ikki maqomning kelib chiqishi, ustoz-shogird silsilasi, musiqiy sozlar haqida soʻz yuritgan.

19 asrning oʻrtalarida yaʼni 1847-yilgacha Buxoroda Shashmaqomning shakllanishi va qadimdan ijro uslublari va janrlari, oʻtgan asrdagi bastakorlik ijodiga oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Bundan tashqari oʻzbek opera va drammlariga Mumtoz musiqalar asosini maqomlar va xalq kuylari tashkil etadi.

Milliy cholgʻular uchun ijro asarlari boshqa cholgʻularda boʻlganidek asrlar davomida rivojlanib keldi va oʻz takomilini topdi.

Mumtoz va undan oldingi davr asarlari tomonidan milliy cholg'ular uchun ko'plab asarlar yaratilganini ko'ramiz.

4. Ustoz sozanda va xofizlar ijrochilik faoliyatlari haqida ma'lumot

O'zbek xalqining bebaho boyligi hisoblanmish - milliy musiqiy cholg'ularimiz o'zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyat-larining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutadi. Musiqiy cholg'ular azal-azaldan o'zbek xalqining ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o'ziga xos xususiyat-larga ega. Ayniqsa, cholg'u ijrochiligi san'ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakl-lanib, nafaqat musiqa ilmida, balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Uning barcha o'ziga xos xususiyatlari va qirralarini o'rganish esa cholg'u ijrochiligi amali-yotini boyitishga yordam beradi.

Milliy musiqiy sozlarimiz juda qadimiy va boy tarixga ega. Musiqa san'atida dastlabki zarbli (membranofon) cholg'ular eramizdan avvalgi o'n uchinchi ming yillikda paydo bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, bunday cholg'ular qadimgi mehnat qo'shiqlarining ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Keyinchalik shovqinli (idiofon) cholg'ular paydo bo'ldi. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga hos tak-rorlanmas go'zal holatni vujudga keltirar edi. Shu sababli zarbli cholg'ular eng qadimgi cholg'ular turiga kiradi. Ularning kelib chiqishi insonning qadam bosishi, mehnat jarayoni, raqs harakat-lari, ov va harbiy yurishlari bilan bog'liq. Uzoq tarixiy rivojlanish davomida turli xalqlar musiqa amaliyotida o'zining

tuzilishi, tovush hosil qilishi, ijro va ifoda imkoniyati jihatidan xilma-xil zarbli cholg'ularning turlari shakllangan.

Taniqli olim T.Vizgoning ma'lumotiga ko'ra mudovara (tarelka) harbiy cholg'ular qatoridan ham o'rin olgan. Misli mudovara (sanj)lar ham meloddan uch ming yil oldin ma'lum bo'lsa-da, zamonamizgacha xuddi doira cholg'usidek o'z shaklida yetib kelgan. Zarbli cholg'ular - doira, debu, daff, daz, dov, sanj, g'o'lachalar meloddan ikki ming yil muqaddam (nisoniylar davri) vujudga kelib, turli shakllari, tuzilish va zarblari bilan takomillashib bizgacha yetib kelgan.

Musiqiy cholg'ular juda qadimiy rivojlanish tarixiga ega. Arxeologik qazilmalar, qoyatoshlardagi va devoriy tasvirlar, tarixiy va ilmiy hujjatlar, adabiy manbalar, miniatyura asarlaridan musi-qiy cholg'ular uzoq o'tmishda mavjud bo'lgani va turli xalqlar o'rtasida muloqot vositasi bo'lganligini isbotlaydi. O'zbek xalq cholg'ulari haqidagi bebaho ma'lumotlar A.Eyxgorn, V.Bertels, A.Boldirev, B.Riftin, A.Semyonov, R.Sadokov, T.Viz-go, O.Malkeyevalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

So'nggi yillarda musiqiy cholg'ularni o'rganishga bo'lgan qiziqish nafaqat bizning respublikamiz, balki chet davlatlarda ham sezilarli darajada ortdi. Ushbu yo'nalish bugungi kunda zamonaviy san'atshunoslik ilmi oldida turgan dolzarb muammo-lardan biri hisoblanadi. Musiqiy cholg'ular ma'naviy madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, jamiyat rivojining ma'lum bosqichida shakllangan estetik didni ham aniqlaydi. Shuningdek, musiqiy cholg'ular va ularning madaniy yodgorliklardagi tasvirlari o't-mish davr hayotidan dalolat beruvchi haqiqiy va yagona ma'lumot manbai hisoblanadi.

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shu ediki, sozandalar nafaqat bir necha turdagi musiqa cholg'ularini chala olgan, balki o'zlari ham musiqa basta-laganlar. Sozandalar o'z davrining yetuk musiqachilari va shoir-lari ham bo'lishgan. O'rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqiy

ustaxonalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz-shogird an'analari qaror topib rivojlandi. Ayni paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib, cholg'ularining yangi namunalari kashf etilishi ham o'sha uzoq davrlarga borib taqaladi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqa qaning jamiyatda tutgan o'rnini va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar. Forobiyning (873-950) "Katta musiqa kito-bi", Ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" qomusidagi "Mu-siqa haqida risola", Al-Xorazmiyning (X) asr "Bilimlar kaliti", Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) "Oliyjanoblik haqida kitob" yoki "Sharafiya" kitobi, A.Jomiyning (1414-1492) "Mu-siqa haqida risola" kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi sohasidajiddiy o'zgarishlar yuz berdi: yangidan-yangi shakllar paydo bo'ldi. Xalq ijrochiligi an'analari asosida yangi, nisbatan murakkab va mukammal, xalq hayotining turli tomon-larini yorituvchi kuy va qo'shiqlar yaratila boshlandi. Taniqli dutorchi, tanburchi, doirachi, naychi, surnaychi, bulamonchi, g'ijjakchi, qashqar va afg'on rubobchilari paydo bo'ldi. Xalq cholg'ulari musiqa ixlosmandlari orasida keng yoyildi. Ular "Navro'z" bayramlarida va shu singari xalq sayllari va tomosha-larida, hosil bayramlarida faol ishtirok etdilar.

Cholg'ular orasida musiqa tovushlarini yozib ko'rsatadigan maxsus belgilar tizimini (notatsiya) yaratishga intilish paydo bo'ladi. Buni amalga oshirish shoir va musiqachi **Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy 1825-1879)**ga nasib etadi. Iste'dodli musiqa ijrochisi, mohir tan-burchi va g'ijjakchi Pahlavon Niyoz Mirzaboshi sayohat chog'ida nota bo'yicha kuy chalayotgan cholg'ular-ni ko'rib hayratga tushdi. Cholg'uchi tanbur chi-zig'ida joylashgan ladlar miqdoriga muvofiq ravishda o'zida 18 bo'ylama chiziqni mujassam

etgan tabulatura yozig‘i – “Xo- razmcha tanbur notatsiyasi”ni kashf etdi. Ladni bosish joyi nuqtalar bilan belgilandi. Chiziq ustidagi va ostidagi nuqtalar bilan tanbur torlarini usti yoki ostidan chertish soni ifodalangan. Bu Xorazm tanbur yozuvi o‘ngdan chapga o‘qilgan.

Xorazm olti yarim maqomining birinchi maqomi “Rost”ni cholg‘u va aytim yo‘llarini yozib oladi. Bu ishlarda o‘g‘li Mirzo Matrasulboy yaqindan yordam beradi.

Muhammad Rahimxon (Feruz)-ning yordamida mashhur xattotlar to-monidan nusxalar ko‘paytiriladi. Nus-xalardan bittasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti-da, 1 nusxasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasida saqlanib kelin-moqda. Mukammal bo‘lmasada, bu Tanbur notatsiyasi “Rost” maqomi yanga nota yozuv uslubi ijrochilik ta-rixiga musiqa merosini yozib olish va saqlab qolish yo‘lidagi ilk urinish sifatida kirdi. Notatsiya muallifi katta musiqa arbobi va o‘qituvchisi ham edi. Xudoybergan Muxrkan, Xudoyberdi Mahsum, Bobojon bo‘lamonchi, Muham-mad Rasul Mirzo, Matyoqub Xarratov, Matniyoz Yusupov va ko‘pgina boshqa taniqli sozanda va xonandalar undan dutor, tan-bur, g‘ijjak, bo‘lamon, surnay, doira va boshqa cholg‘ular cha-lishni o‘rganishgan.

O‘zbek xalq cholg‘u ijrochiligi taraqqiyotiga Xorazmlik sozandalardan - dutorchi Qambar bobo, bo‘lmonchilar Abdurahmon-bek, Abdulla bo‘loman, Yoqub bo‘lamon, surnaychi Sharif Meh-tar, tanburchi Muhammad Yoqub Xarratov, Usta Xudoyberdi, Niyozxo‘jalar katta hissa qo‘shishgan. Xorazmda garmonchilardan Safo Mug‘anniy, Xo‘ja Otajonov, Jumaniyoz Xayitboyev va boshqalar xalq orasida juda mashhur edilar.

Ta’kidlash kerakki, notatsiya kashf qilinganligiga qaramay o‘zbek xalq musiqa cholg‘uchiligi asosan ko‘p sonli ijrochilik san’ati ustalari tomonidan yaratilgan an’anviy og‘zaki usulda rivojlandi. Musiqa asarlariga jiddiy yondashuv esa har bir ijro-ning takrorlanmas o‘ziga xos bo‘lishini ta’minladi.

Pahlavon Mirzaboshi Komil-ning shogirdi **Muhammad Yoqub Xarratov (1867-1939)** mashhur tan-burchi edi. U nafaqat cholg'uchilik san'atini, balki xattotlik san'atini ham mukammal egallagan. Iste'dodli cholg'uchi Komil Xorazmiy rahbarlik qilgan saroy xalq cholg'ulari ansamblining sozandasi bo'lgan. Muhammad Yoqub Xarratov tanbur notatsiyasini tuzishda xorazmcha maqomlarni yozib olishda qatnashgan. Ustozidan xorazmcha maqom turkumlarini qabul qilib, ularni saqlanib qolishiga katta hissa qo'shgan. M.Xarratov Rossiyada mavjud bo'lgan nota ilmini egallashni orzu qilgan. U qator iste'dodli ijrochilarni tayyorlagan, usta tanburchi sifatida ijrochilik mahorati sirlarini Mustafo, Yunus, Asqar, Matyusuf Xarratov, Matpano Ota Xudoyberganov va boshqalarga o'rgatgan.

Muhammad Rahimxon (1806-1825) saroyida ishlagan mashhur tanburchi va qo'shiqchi Niyozxo'ja Xojining ijodiy va ijrochilik faoliyati Xivada kechdi. U Xorazm musiqa madaniyati-ga katta e'tibor berdi. Matyoqub Xarratovning aytishicha, Niyozxo'ja Buxoroga "Shashmaqomni" o'rganish uchun bor-gan. U Buxorodan qaytgach, buxorocha maqomlar Xiva cholg'ulari tomonidan o'zlashtirilib, Xorazmda keng tarqala boshladi. Xorazmning mashhur cholg'uchilari Muhammad-rahim Feruz, Komil Xorazmiy, Mirzo Muhammadrasul va boshqalar Niyozxo'ja bilan hamkorlikda maqomlarga yangi cholg'u bo'limlari qo'shib, ularni boyitdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon mashhur cholg'uchilar to'plangan markazga aylandi. Bu yerda Usta Xudoyberdi rahbarligida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik maktabini o'rganish bo'yicha o'ziga xos maktab yaratiladi. Farg'ona cholg'uchilari Buxorocha Shashmaqomni faol o'zlashtira boshlashdi. Maqomlar ijrosida xonandalar bilan bir qatorda tarkibi turlicha bo'lgan o'zbek xalq cholg'ulari ansambllari ham ishtirok etdi. Cholg'ular ansambliga Buxoroda tanbur va doira, Xorazmda esa dutor, g'ijjak,

bo‘lamon, doira yoki tanbur, garmon, rubob, doira (uning o‘zi qo‘shiqchi ham) kirgan.

O‘z ichiga surnay, karnay, doira va nog‘oralarni olgan damli va urma cholg‘ular ansamblari xon saroylarida, beklar huzurida xizmat qilishgan. Bunday ansamblarga surnaychi (Mextar) rah-barlik qilgan. Bu kasbning daromadi yaxshi bo‘lgan. Ammo ansamblning faoliyati mavsumiy bo‘lib, cholg‘uchilar turli tantalar kam bo‘ladigan qish mavsumida tirikchilik o‘tkazish uchun temirchilik, quruvchilik, duradgorlik va shunga o‘xshash ikkinchi kasbni egallashga majbur bo‘lishgan.

Ota Jaloliddin Nosirov (1845-1928) maqom ijrochisi, taniqli o‘qituvchi, cholg‘uchi, usta tanburchi edi. U dastlabki musiqa ilmini onasidan o‘rgandi, so‘ngra maqomlarning zukko bilimdoni va mohir ijrochisi bo‘lgan otasidan ta‘lim oldi. Ota Jalol Nosirov uzoq yillar mobaynida Amir Olimxon (Buxoro), Amir Muzaffarxon (Shaxrisabz), Amir Otajonlar (Karmana, hozirda Navoiy) saroyida o‘zbek xalq cholg‘ulari ansamblining doimiy rahbari va xonandasi bo‘lgan.

Xoji Abdulaziz Rasulov (1852-1936) - o‘zbek va tojik musiqa-sining taniqli ijrochilaridan biri, mohir tanburchi Xoji Rahimqul-ning shogirdi. 1888 yilda Buxoroga boradi. U yerda Ota Jalolid-din Nazirov rahbarligi ostida bir yil ichida Shashmaqomni mukammal o‘rganadi. A.Rasulov Farg‘ona, Samarqand, Toshkent shaharlarida o‘zbek xalq musiqasi va maqomlarini faol targ‘ib qiladi. U o‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligi rivojiga tanburchi, dutorchi va xonanda sifatida salomoqli hissa qo‘shib, xalq va musiqa jamoatchiligining mehr-muhabbatiga sazovor bo‘ldi.

XX asrning I-yarmida o‘zbek doira ijrochiligi san’atining rivojlanishi, yangi “zarbli” asarlarning yaratilishi mashhur so-zanda **Usta Olim Komilov** nomi bilan bog‘liqdir. U o‘zining yarim asrlik umrini xalq san’atini o‘rganish va rivojlantirishga bag‘ishlagan. Xalq cholg‘ularidan chang va doirada birdek o‘z

ijro mahoratini namoyon eta oldi. Doirada ijro mahoratini mukammal darajada egallagan ustoz-san'atkor, keyinchalik o'zbek xalqining boy va rang-barang qo'shiq va raqslarining betakror usullarini to'plashga katta hissa qo'shgan.

Usta Olim Komilov 1875-yil Mar-g'ilon shahrida to'quvchi-hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Ota-onasi- dan erta ayrilib qolgan Olimjon 10 yoshidan arava tayyorlaydigan usta-xonaga kirib ishlashga majbur bo'ladi. Shu tarzda bir necha yil yashashga to'g'ri keladi. Faqatgina kechqurunlari hech kimga bildirmay to'ylarga borib u yerda tinglagan musiqa unga xur-sandchilik baxsh etardi. O'sha paytlarda doyra ijrochiligi san'ati keng quloch yoygan edi. Olimjonda doiraning sehrli zarblari yoshligidanoq zavq uyg'otardi. Ishdan bo'sh paytlari darhol qo'lga doirasini olib, xotirasida saqlanib qolgan usullarini qay-tara boshlaydi.

Tez orada u yallachi (qo'shiqchi) ayol Salom xolaning e'ti-borini o'ziga jalb etadi. U boladagi musiqaga bo'lgan qiziqishini ko'rib o'zi bilan to'ylarga olib boradi. Shu tariqa u asta-sekin turli tadbirlarda musiqa va raqslarga jo'rnavozlik qila boshlaydi. Olim-jonning mahoratli sozanda bo'lib yetishishida taniqli doirachi Masaid otaning xizmatlari beqiyosdir. U yosh iqtidor egasiga doira chalishning o'ziga xos nozik yo'llari va sirlarini o'rgatadi. Olimjon doiradan tashqari chang, nog'ora va dutor chalishni ham mukammal o'rgandi. Doira ijrochiligida uning iste'dodi yorqinroq namoyon bo'ldi. U chalayotgan doyra alohida ta'sir-chanlik kasb etardi. Uning sadolari o'ziga xos va ta'sirli bo'lardi. Cholg'uchining ijrosi o'zining ritmik aniqligi, dinamik va tembr bo'yoqlarining rang-barangligi hamda jilvador va betakror ovoz tarovati bilan boshqalardan ajralib turardi.

1918-yili u Marg'ilondagi turli tashkilotlarda musiqiy havas-korlik badiiy jamoalarini tuzib, ular bilan choyxonalarda va qish-loqlarda konsertlar bera boshlaydi va iqtidorli yoshlarni ushbu ansamblga kelib qo'shilishga jalb etadi. O'sha davrda u 20 dan ortiq yoshlarni jalb eta olgan. Ular esa kelgusida professsional sozandalar darajasiga erishdilar.

1926-yili Olim Komilov taniqli komik-raqqos Yusupjon qiziq bilan birgalikda Muhiddinqori Yoqubov tomonidan tashkil etilgan konsert-etnografik ansamblga ishga kiradi. Keyinchalik ushbu ansamblga Tamaraxonim ham kelib qo‘shiladi va bir necha yillar davomida Usta Olim Komilov bilan birgalikda ijodiy faoliyat olib boradi. Bir yildan so‘ng ular Moskva, Leningrad va Boku shahar-larida gastrol safarlariga boradilar va ko‘p sonli tinglovchilarni o‘zbek xalq ijodiyotining boy namunalaridan bahramand etadilar.

1930-yili ansambl qayta tashkil etilib o‘zbek davlat musiqa teatriga aylantiriladi. O.Komilov ham ushbu teatr artistlari bilan Moskvada bo‘lib o‘tadigan xalq ijodiyoti olimpiadasiga boradi. Tamara Xonim va Mukarram Turg‘unboyeva ijro etadigan “Daro-madi gul o‘yin”, “Katta o‘yin”, “Ufori sabo” raqslariga jo‘rna-vozlik qiladi va tinglovchilarning olqishiga sazovor bo‘ladi. 1931-1934-yillar davomida O.Komilov unutilib borayotgan xalq tomo-nidan yaratilgan usullarni yig‘a boshlaydi. Ushbu ishni amalga oshirish uchun ustozlari Masaid ota va Yusup Qiziqqlarning yordamiga tayanadi va natijada bir necha o‘nlab rang-barang usul-larni yig‘ishga ulgiradi.

Usta O.Komilov o‘zbek raqs san’atining rivojiga ham katta xissa qo‘shgan. Tamara Xonim bilan birgalikda yangi o‘zbek raqslari “Zang”, “Gul o‘yin”, “Sadr”larni yaratishga muyassar bo‘ldi. O‘zbek musiqali spektakllarda raqslarni sahnalashtirishda ham O.Komilovning hissaları beqiyosdir. 1930-yillarning eng yirik postanovkalari bo‘lmish - V.Uspenskiy va G.Mushelning “Farxod va Shirin”, R.Glierning “Gulsara” musiqali dramalaridagi raqsar aynan Usta O.Komilov tomonidan yaratilgan va sahnalash-tirilgan. Samarali mehnatlari evaziga 1932-yili “Mehnat qahra-moni” unvoniga sazovor bo‘ldi.

1935-yili O.Komilov Londonda bo‘lib o‘tgan Xalqaro raqs festivalida Tamara Xonim, A.Ismoilov va T.Jalilovlar bilan birga-likda ishtirok etib “Oltin medal”ni qo‘lga kiritgan. Ustaning sho-girdi Odil Kamolxo‘jaev ustozini eslab, - “1935-yili Angliya qirolichasi Yelizaveta Usta Olim Komilovning doira ijrosiga mahliyo bo‘lib

qolgan ekan. O'shanda mohir sozandaning panja izi ganchga ko'chirilib, Buyuk Britaniya san'at muzeyiga qo'yil-gan va u hozirgacha o'sha yerda saqlanarkan", - dedi.

1937-yili Moskvada o'tkazilgan o'zbek san'ati dekadasida "Sayil va kolxoz to'yi" insseniroykasini sahnalashtiradi va "Nog'ora", "Zang", "Pilla" raqslariga jo'rnavozlik qiladi. Dekadan qatgach yana xalq raqslarini sahnalashtiradi va "Tantana" nomli yangi ommaviy raqsni yaratadi. Usta O.Komilov raqslarga jo'r bo'lish bilan chegaralanmay, balki yangi usullarni kashf etadi. Tamara Xonim va M.Turg'unboyeva bilan birgalikda "Paxta" va "Pilla" xoreografik kompozitsiyasini yaratadi.

Usta Olim Komilov ko'p usullarni xotirasida saqlagan. Ular-ning ko'pgina qismlari I.Akbarov, V.Uspenskiy, E.Romanovskaya tomonidan yozib olingan. I.Akbarov tomonidan yozilganlari "Doira usullari" nomli to'plamda nashr etilgan. Ushbu to'plamda 47 ta xalq usullari va bir necha ritmik kompozitsiyalar joy olgan.

Dunyo tan olgan doirachi, o'zbek raqs san'atining bilimdoni hamisha shogirdlar qurshovida bo'lgan edi. Ko'p yillik pedagogik faoliyati davomida u ko'pdan-ko'p mahoratli sozandalarni, O'zbekistonda doira ijrochiligi san'atining ravnaqi uchun hamda o'z ishining davomchilari sifatida tayyorladi. To'ychi Inag'omov, G'ofir Azimov, Abulqosim To'ychiyev, G'ofir Solixovlar shular jumlasidandir. Ko'p yillik ijodiy va pedagogik faoliyatini nazarda tutib unga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoni berildi.

Abdusoat Vahobov (1875-1934) mashhur usta dutorchi, musiqa bilan yoshligidan mustaqil ravishda, keyinroq tosh-kentlik mashhur dutorchi Ilhomjon bilan shug'ullangan. Abdu-soat ijrochilik faoliyatini Ilhomjon dutorchi, Karimbek Xo'ja g'ijjakchi, Shobarot tanburchi, Karimbekxon tanburchi, Ilyos-xoji changchilar bilan hamkorlikdagi havaskorlik xalq cholg'u-lari ansamblida boshladi. Shu ansamblning a'zosi sifatida, u 15 yil davomida jamoa sayillarida, ishchi klublaridagi, choyxonalardagi konsert chiqishlarida faol ishtirok etdi. Ansambl

repertuarini, asosan raqs kuylari “Dugoh Husayniy”, “Chorgoh”, “Nasrul-lo”, “Navo”, “Ajam”, “Sarbozcha”, “Eshvoy”, Kurt va Farg‘o-na-Toshkent maqomlaridan parchalar tashkil etgan.

Qo‘zixon Madrahimov (1888-1952) mohir dutorchi. Sozandaning repertuariga uning ijrosida takrorlanmas jilolar kasb etgan rang-barang xususiyatli “Gulyor”, “Shaxnoz”, “Chapan-doz”, “Qorazang”, “Munojot”, “Safti Munojot”, “Ufori Muno-jot”, “Taronai Ufor”, “Tanovar”, “Sayqal”, “Dilxiroj”, “Yalang Davron”, “Kurt” kabi raqs kuylari va turkum asarlar kirgan. Uning chiqishlari (ijrosi) o‘zining meyoriga yetganligi va o‘ta musiqiyligi bilan ajralib turar edi. U grammofon plastinkasiga “Qo‘sh tor”, “Ajab yorlarim”, “Mayda tor” kabi cholg‘u asarlarini yozdirgan. Qo‘zixon Madrahimovning “Qo‘sh tor” asarini ijrosi ayniqsa e‘tiborga loyiq. Taniqli O‘zbekiston bastakori A.Koz-lovskiy o‘zbek cholg‘uchisining ijrochilik mahoratiga yuqori baho bergan edi: “Ta’kidlash kerakki, marg‘ilonlik dutorchi o‘zining zo‘r mahorati, iqtidorining jilosi va san’atkorlarga xos o‘zini tuta bilishi bilan o‘zi ijro etayotgan xalq musiqiy asarlari mazmunining chuqurligini tinglovchiga yetkaza oldi. Ijrochi tomonidan ifodalangan bu musiqa mohiyatining chuqurligi, haqiqiy mahorat jilvasi bizdan Q.Madrahimov siymosida o‘zbek xalq musiqachiligida nodir voqelikni va uning san’atini keng ommalashtirishni taqozo etadi”¹.

XIX asrning 70-80-yillaridagi O‘rta Osiyo tub joy aholisining hayoti (turmush tarzi, urf-odatlar, musiqiy madaniyati, marosim-lari) rus va xorijiy etnograf-folklorshunoslarining diqqatini o‘ziga jalb etgan. Xalq madaniyatining tarkibiy qismiga kirgan xalq cholg‘ulariga bo‘lgan qiziqishning boisi ham shunda. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida O‘rta Osiyoga kelgan etnograf va sayyohlar Turkiston o‘lkasining xalq musiqasini yozib olishda (notalashtirishda) muayyan ishlar qilishdi, bunda ular xalq cholg‘ularini o‘rganishga alohida e‘tibor berishdi. Ular o‘z ijodiy

¹ Alimbayeva K, Ahmedov M. O‘zbekiston sozandalari va xonandalari. - T., 1974, 102-bet.

ishlarida musiqaning o‘ta ommaviyligiga, uning xalq hayotida muhim rol o‘ynashiga ahamiyat berishdi. Mazkur man-balar tufayli biz musiqa san’ati mundarijasi, ijrochilik turlari, musiqa an’analari, cholg‘ularining ta’riflari, o‘zbek xalq kuy-larining nota yozuvlari haqida ma’lumotga ega bo‘ldik.

N.Likoshinning “Yarim umr Turkistonda” (SPB, 1917) kito-bida va boshqa asarlarda xalqning boy badiiy merosi, an’analari va o‘zbek xalq cholg‘ularining ahamiyatiga muayyan o‘rin ajratilgan.

Turkiston o‘lkasining taniqli tadqiqotchisi V.Massalskiy yozadi: “Musiqa cholg‘ulari (dutor va qobiz)ni deyarli barcha xonadonda uchratish mumkin edi...”¹. Bu shundan dalolat beradiki, xalq turmushida oilaviy musiqachilik keng tarqalgan bo‘lib, chalishga esa eshitish qobiliyatiga asoslanib o‘rgatilgan.

N.Likoshinning guvohlik berishicha: “Toshkentda yangi, notanish gusli, simbalga o‘xshash ko‘p torli musiqa asbobida ikki xivchin yordamida sodda kuylar chaluvchi tunganlik kishi paydo bo‘ldi: Uni g‘aroyib yangilik sifatida to‘xtovsiz yig‘inlarga taklif eta boshlashdi. Keyin mahalliy cholg‘uchilardan biri tungandan changni sotib olib, nafaqat uning kuylarini, balki boshqa ko‘pgina, sof milliy kuylarni ham chala boshladi. Bu tinglovchilarda o‘ta yoqimli taasurot qoldirdi. Shundan buyon simbalchi torli orkestr tarkibida barcha yig‘inlarga taklif etila boshlandi”².

O‘zbekistonda ilk musiqiy cholg‘ular tadqiqotchisi, Sirdaryo viloyati harbiy kapelmeysteri Avgust Eyxgorn³ edi. U nemis millatiga mansub bo‘lib, Toshkentga 1870-yillarning boshlarida kelgan. A.Eyxgorn O‘rta Osiyo xalqlari musiqa cholg‘ularining 2 ta kolleksiyasini yig‘adi. Ulardan biri 1872-yilda Moskvaga Politehnika ko‘rgazmasiga, bir yildan keyin Butunittifoq ko‘rgaz-masiga Venaga jo‘natiladi. 2-kolleksiya Peterburgga yuboriladi va uni keyin Moskva

¹ Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. - T., 1995, 20-bet.

² Shu manba, 21-bet.

³ Avgust Eyxgorn 1844 yilda Avstriyaning Lasnits shahrida tug‘ilgan, skripkachi, bastakor. U 1870-1883 yillarda Toshkentda yashab ishlagan.

konservatoriyasi o'ziga oladi. Hozirgi kunda ushbu kolleksiya M.Glinka nomidagi musiqa madaniyati Davlat Markaziy muzeyida saqlanmoqda. A.Eyxgorn tomonidan tuzilgan Katalogda 37 ta musiqa cholg'ularining tavsifi yozilgan.

1896-yilda o'zbek musiqa cholg'ulari (dutor, g'ijjak, surnay, qo'shnay, nog'ora, doira) butun Rossiya miqyosida Nijniy Novgorod shahrida o'tkazilgan ko'rgazmada namoyish etildi. Taniqli musiqa arbobi N.Findeyzen ko'rgazmada namoyish etilgan cholg'ularni maxsus maqolasida ta'riflaydi. O'zbek xalq cholg'ulari ko'rgazmada 4 kishidan tarkib topgan 2 ta ansambl yordamida milliy asarlarning jonli ijrosi orqali namoyish etilgan¹.

U qariyb barcha o'zbek xalq cholg'ularini to'plagan, Eyxgorn ularni quyidagicha ta'riflaydi: Ikki buralma torli yarim nok shaklidagi dutorni u lyutnyalar guruhiga, g'ijjakni uch torli (fors kamonchasiga o'xshash) kamonchali cholg'ular guruhiga, rubob-ni esa (Buxoro yoki afg'on ruboblari nazarda tutilgan) mando-linalar guruhiga kiritgan. Muallif surnayni qamish puflagichli qadimiy damli cholg'u, qo'shnayni qo'sh qamishli fleyta (Eyx-gornning ta'kidlashicha, bunday fleyta (qo'shnay)larda o'zbeklar qo'shiqqa mohirona jo'r bo'lishgan), karnayni esa tantanali maro-simlarda, harbiy yurishlardan xabar beruvchi vositachi, ya'ni to'g'ri shaklga ega bo'lgan O'rta Osiyo aholisining harbiy bur-g'usi deb ta'riflaydi. Chirmanda (doira)ni musiqashunos qadimiy Misrliklarning qo'l litavralarini eslatuvchi chetlarida halqalari bo'lgan nog'oracha (tanburin) kabi qo'shiq va raqs ohanglariga jo'rlikda qo'llaniluvchi musiqa cholg'usi deb ta'riflaydi. No- g'orani Eyxgorn ikki kichik sopol hurmacha va ikki urma tayyoqchadan iborat, deb ta'riflaydi. Safoilni u Qashqardan keltirilgan halqalari ko'rinadigan shiqildoqlar guruhiga kiritadi. Musiqashunos - etnograf changni qizlarning sevimli cholg'usi deb ataydi².

¹ Вызго Т, Петросянц А. Оркестр узбекских народных инструментов. - Т., 1962, 8-бет.

² Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi, 21-bet.

A.Eyxgorn har bir musiqa cholgʻusiga batafsil taʼrif bergan XIX asrning ikkinchi yarmidagi ilk folklorshunoslaridan biridir. U musiqaning nazariy ilmi va folklorga katta hissa qoʻshgan.

Oʻzbek kuylarini mashhur harbiy kapelmeyster V.Leysek ham notaga yozib olib, ular asosida damli cholgʻular orkestri uchun “Osiyo popurrisi” asarini yozadi¹. Harbiy kapelmeyster-larning maʼrifatchilik faoliyati mahalliy ziyolilarga rus va jahon musiqasi namunalari bilan tanishish imkonini yaratdi. Shu bilan bir vaqtda teatr va musiqa sanʼati boʻyicha havaskor toʻgaraklar vujudga keldi. Bu kishilarning koʻpchiligi, ommada estetik didni tarbiyalash uchun zarur boʻlgan kasbiy musiqiy bilimga ega edilar. V.Leysek ham jamiyat ishlarida juda faol qatnashdi. Harbiy kapelmeysterlar nafaqat xalq kuylarini yozib olish, musiqa cholgʻularini toʻplashga va ayni paytda kuylarini yozib olish, musiqa cholgʻularini toʻplashga va ayni paytda xalq cholgʻularida ijro etish mahoratiga ham shubhasiz hissa qoʻshishdi.

Koʻrgazmada XIX asr oxirida xalq orasida mavjud boʻlgan cholgʻularning barcha turlari bir necha zallarda namoyish etilgan. Oʻsha davrning mashhur musiqa tarixchisi N.Findeyzen: “Oʻrta Osiyo boʻlimi cholgʻularga eng boy boʻlim edi. Bu yerda torli va urma zarbli cholgʻularning yaxshi nusxalarini uchratish mumkin”², - deb yozgan edi. Taniqli musiqashunos T.Vizgo “Nijegorod koʻrgazmasi Markaziy Rossiya aholisining turli tabaqalarini Oʻrta Osiyo hududi cholgʻulari bilan tanishtirishni boshlab berdi”³, deb taʼkidlagan edi.

Bu davrda Turkiston oʻlkasi musiqiy hayotida boshqa ijobiy voqealar ham yuz berdi. Oʻrta Osiyoga Ovroʻpa cholgʻulari kirib kela boshladi (simfonik orkestr, damli va urma zarbli cholgʻu-lari

¹ Leysek V. Turkistonga 1878 yil kelgan. Chex bastakori va dirijyori. Rus va Evropa kuylarining faol targʻibotchisi. Toshkentdagi “Lira” xor jamiyatining asoschisi va bevosita rahbari. Rustam Hofiz, Hamroqul Qori, Qurbonboy Xoji, Xotan Qori, Erka Qori va boshqa cholgʻuchilar, xonandalar bilan yaqindan ijodiy hamkorlikda boʻlib, 400 ga yaqin oʻzbek xalq kuylari va qoʻshiqlarini yozib olgan. Ular orasida “Karimqulbegi”, “Istambul marshi”, “Mustahzod”, “Ufori”, “Qashqarcha” kabi asarlar bor.

² Odilov A. Oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik tarixi, 22-bet.

³ Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии, 168-бет.

orkestrining musiqa cholgʻulari, fortepiano, doʻmbira nazarda tutilgan). Xorazmda Rossiyadan keltirilgan garmonika paydo boʻldi. Fargʻona vodiysi va Toshkentda cholgʻular gʻijjakni skripka bilan almashtira boshladilar. Oʻzbek cholgʻulari ijrochi-ligi boshqa xalqlar musiqa madaniyati yutuqlari bilan ham boyidi.

XIX asrning 80-90-yillarida barcha harbiy qismlarda damli cholgʻular orkestrlari mavjud boʻlib, ular bir vaqtning oʻzida koʻrgazmalar, yarmarkalar, tantanalar kabi turli xil jamoat tad-birlarida xizmat qilishgan.

XX asrning 30-40-yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar (S.Tolstov, V.Vyatkin, M.Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida Oʻrta Osiyo madaniyati, shu jumladan xalq cholgʻularini oʻrganishda qimmatli maʼlumotlarga ega boʻlindi. Topilgan madaniy yodgorliklar: nay, rubobsimon cholgʻu, hozirgi doiraga oʻxshash doʻmbra va shu singari cholgʻularni chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Bular Afrosiyob, Tuproqqalʼa, Ay-ritom (Ayritom frizi deb ataladi) kabi shaharlardan topilgan sopol idishlardagi mashshoq haykalchalardir. Ularda turli hil musiqa as-boblari: lyutnya, tanbur, rubobsimon cholgʻu, qonun, ud, rud, shemane (musiqor), chagʻona, chiltor, nay, burgʻu, surnay, kar-nay, doirasimon cholgʻularda mashq qilishlari tasvirlangan

Xalq cholgʻulari Oʻrta Osiyo aholisining turmush tarzi va mehnat faoliyatiga singib, uning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholgʻular joʻrligida qoʻshiq, oʻyin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgani bizga maʼlum. Bayramlar koʻproq yil fasllari bilan bogʻliq boʻlgan. Oʻrta Osiyoda “Navroʻz”, “Lola sayli”, “Hosil bayrami”, “Qovun sayli”, “Uzum sayli” kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholgʻu ansambllari, xonanda, sozanda hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayram-larda, madaniy marosimlarda ayniqsa, karnay, surnay, doira, nogʻora va chindoul kabi urma-zarbli cholgʻular keng qoʻlla-nilgan. Xalq raqslari aslida qosh oʻyini, yelka

o'yini, bosh o'yini kabilarni o'z ichiga olgan. Ular qarsak jo'rligida ham ijro etilgan.

20 asarning 20-yillarida o'zbek musiqa san'ati jadal ravishda taraqqiy eta boshladi. Musiqa o'quv yurtlari - Toshkentdagi Turkiston xalq konservatoriyasi (1918) va uning Samarqand, Farg'ona (1919) va Buxorodagi (1920) filiallarida katta ishlar amalga oshirildi. Ularda asosan o'zbek xalq cholg'ulari hamda ba'zi yevropa musiqa cholg'ulari (fortepiano, skripka va damli cholg'ular)ni chalish o'rgatilar edi. Shu tufayli respublikaning ko'pgina shaharlarida musiqa havaskorligi keng quloch yoydi.

O'zbekistonda 1920-yillardan boshlab an'anaviy ijrochilik ansamblari asosida turli tarkibdagi o'zbek xalq cholg'u ansamblari tashkil etila boshladi. Viloyat markazlari: Marg'ilon, Andijon, Buxoro, Samarqand, Farg'ona va Qo'qonda milliy cholg'ular ansambli tuzildi va ular tarkibida xalq musiqa san'atining yirik namoyandalari - Mulla To'ychi Toshmuhammedov, To'xtasin Jali-lov, Berkinboy Fayziyev, Abduqodir Ismoilov, Hayit Oxun, Dav-lat Oxun, Zokir Eshon, Ahmadjon Umrzoqov, Rustam, Ashurali Yusupov va boshqalar birgalikda ijodiy faoliyatlarini boshlaganlar.

Jumladan, Usta Olim Komilov - Marg'ilon milliy ansamblida, T.Jalilov - Andijon milliy ansamblida ishtirok etishgan. Ansambl-lar dasturi xalq kuylaridan tashqari Hamzaning "Yasha sho'ro", "Xoy-xoy otamiz", "Xoy, ishchilar" kabi o'sha davr ijtimoiy qo'shiqlaridan ham tarkib topgan edi. Taniqli hofiz Shorahim Shoumarov 1918-yili "Namuna" maktabi qoshida musiqiy to'ga-rak tashkil etadi. Yillar o'tib ushbu to'garak zaminida Toshkent musiqa texnikumining bitta bo'limi ochildi. Boshqa taniqli xalq sozandasi, mashhur doyrachi Usta Olim Komilov XX asr 20-yil-larining boshlarida Marg'ilon o'quv yurtlari va tashkilotlarda musiqiy to'garaklar tashkil etdi. Bundan tashqari u milliy ansambl tarkibida bir necha bor chekka qishloqlarda konsert dasturini namoyish etgan.

Samarqandda xorazmlik musiqachi Matyusuf Xarratov bir necha to‘garaklarga rahbarlik qilgan. O‘sha davrda Respublika-mizning barcha viloyatlarida badiiy havaskorlik to‘garaklari paydo bo‘la boshlaydi. Ularning musiqiy dasturi asosan o‘zbek musiqa san’atining mashhur xalq ustalari tomonidan kuylanadigan qadimiy - “Bir keling”, “Bog‘ aro” kabi lirik mazmundagi sevgi qo‘shiqlaridan iborat edi. Shu bilan birga to‘garak dasturi yangi hayotni madh etuvchi qo‘shiqlar bilan to‘lib bordi.

Shunday qo‘shiqlardan biri noma’lum muallif tomonidan yaratilgan “Fabrika” qo‘shig‘i edi. U bir necha variantda mavjud bo‘lib, katta mashhurlikka ega bo‘lgan. O‘zbek musiqa to‘garaklari-ning faoliyati o‘sha davrda yakkaxonlarga jo‘r bo‘luvchi an’ana-viy milliy cholg‘u ansambllariga yaqinlashtirilgan. Shuningdek alohida an’anaviy milliy cholg‘u ansambllari ham faoliyat ko‘rsat-gan.

O‘zbek badiiy havaskorlik to‘garaklarining dasturi ham qo‘-shiq va cholg‘u kuylaridan iborat edi, “Qari Navo”, “Ilg‘or”, “Do‘st yalliyalli”, “Mirza davlat”, “Usmoniya”, “Rohat” kabi xushchaqchaq, quvnoq kuylar tomoshabinlar tomonidan sevib tinglanardi. Ayniqsa, T.Jalilovning “Signal” kuyi badiiy havas-korlik to‘garaklarida juda mashhur bo‘lgan.

Asta-sekin o‘zbek badiiy havaskorlik to‘garaklari dasturidan qardosh respublika kompozitorlarining qo‘shiqlari joy egallay boshladi. 30-yillarning o‘rtasida milliy cholg‘u ansambllari dasturida tez-tez uchraydigan I.Dunayevskiyning “Hushchaqchaq bola-lar” filmidan “Marsh”i katta muvaffaqiyatga ega bo‘ladi.

1923-yili T.Jalilov tashabbusi bilan xalq cholg‘u kuylarini ijro etadigan 24 kishidan iborat “Milliy musiqa to‘garagi” tashkil eti-ladi. 1925-1927-yillari dasturining asosini xalq musiqasi tashkil etuvchi konsert-etnografik ansamblining ijrochilik amaliyotini faol olib borgan. Tarkibi o‘zbek xalq cholg‘ularidan tashqari - fleyta, goboy va boshqa simfonik orkestr cholg‘ularidan tuzilgan aralash ansambllar ham faoliyat yuritgan.

O'zbek teatr san'atining asoschisi, dramaturg, bastakor H.H.Niyoziy (1889-1929) musiqa san'ati rivojiga katta hissa qo'shdi. "Yasha Sho'ro", "Xoy ishchilar", "Ishchilar uyg'on", "Biz ishchimiz", "Ishchi bobo" kabi o'sha davrning ijtimoiy yo'nalishdagi ilk qo'shiqlarini yaratib e'tiborga tushgan. Ham-zaning ko'p qirrali ijodiy va pedagogik faoliyati o'zbek cholg'u-lari ijrochilik maktabining shakllanish va rivojlanish jarayonida muhim o'rin tutganligini tasdiqlaydi. U Farg'onada birinchi bo'lib damli cholg'ular orkestrining tashkilotchisidir (1916). 1918 yilda Hamza Farg'onada solistlar, xor va damli cholg'ular orkestri-dan iborat, sayyor musiqiy dramatik truppani tuzadi. Uning repertuari Hamza qo'shiqlari va kuylaridan iborat edi (ularni kapelmeyster I.Grigorev orkestr uchun moslashtiradi). Hamza O'zbekistondagi musiqachilar orasida birinchilardan bo'lib, ko'p ovozli xalq orkestrini tuzish uchun o'zbek xalq cholg'ularini tako-millashtirish va xromatizatsiyalashtirish lozimligini ta'kidlaydi (u chalgan tanbur hozirgi kunda O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Milliy cholg'u" II CheL musiqa cholg'ulari muzeyida saqlan-moqda).

Hamza ijodi o'zining baynalminalligi bilan o'zbek xalqining madaniyat xazinasini boyitdi. Hamzaning faoliyati taniqli qo'-shiqchi, aktyor, yetuk musiqiy teatr arbobi Muhiddin Qori- Yoqubov (1896-1957), ajoyib raqqosa - xonanda, baletmey-ster, muallim, ko'zga ko'ringan musiqa arbobi Tamaraxonim (1906-1991), mohir doirachi va nog'orachi, o'zbek xalq musiqasi va cholg'ularining bilimdoni Yusufjon qiziq Shakarjonov (1869-1939) kabi ko'zga ko'ringan ijrochi va cholg'uchilar bilan bog'-langan edi.

O'zbek xalqining asrlar davomida an'ana bo'lib kelgan milliy musiqiy san'atining jozibali, kishini maftun etadigan, olam-olam zavq-shavq bag'ishlaydigan, estetik ruhni boyitadigan xalq hofizlarining xizmatlari beqiyosdir. Masalan, Toshkentda mashhur hofiz Shorahim Shoumarov 1918 yili "**Sanoyi Nafisa**" nomli birinchi kasaba uyushmasini tuzib, shahardagi jamiyki san'atkorlarni

huquqlarini himoya qilish va musiqiy san'atni xalq orasida targ'ibot qilishda tashabbuskorlik qildi. Uning rahbarligida tuzilgan ansamblda, ustози Mulla To'ychi Tosh-muhammedov, Ilhomjon dutorchi, Karimbek xo'ja g'ijjakchi, Shoborot - tanburchi, Ilyosxo'ja - changchi va ularning shogird-lari: Yunus va Risqi Rajabiyilar, g'ijjakchi bastakor Imomjon Ikromov, kamonchi bastakor Po'lat Rahimov, dutorchi Abdu-soat Vahobov, hofizlar Shoqosim, Shoolim, Shoakbar Shojali-lovlar kabi san'at ustalari xalqqa faol xizmat qildilar.

Ustoz Shorahim Shoumarovning Chorsu bozori yonida "Qi-zil choyxona"da joylashgan ansambli va Yunus Rajabiyning "Chaqar" mahalla choyxonasida tuzgan ansambli yosh havas-kor san'atkorlar uchun haqiqiy musiqa maktabi bo'ldi. Bu ikki dargohda Toshkent san'atkorlaridan tashqari Farg'ona vodiysi-dan, Buxoro, Samarqand, Xorazmdan mashhur san'at ustalari va ularning shogirdlari ham birgalikda xalqqa o'z san'atla-rini namoyish qilishardi. Ularning konsert dasturlari asosan klassik maqom va mumtoz ashulalardan va o'zlari bastalagan kuy va qo'shiqlardan iborat edi. Bundan tashqari ustoz san'atkorlar o'zlari ham turli klub - maktablarda musiqiy havaskorlar to'garak-larini tuzib yoshlarga saboq berdilar va ko'p yosh sozanda va xonandalarni tarbiyaladilar.

Xuddi shunday "Sanoyi Nafisa" kasaba uyushmasini 1920-yili Andijon shahrida xalq orasida Orif - garmon tahallusi bilan tanilgan Orif Toshmatov tashkil qildi. O'zbek san'atkor va zi-yolilaridan tuzilgan jamoada Muhiddin xo'ja Najmiddinov, So-birjon Siddiqov, Berkinboy Fayziyev, Dehqonboy hofizlar, Yo-qubjon changchi, Ashurali Oxun dutorchi, Nazir Oxun g'ijjakchi, Zokir Eshon doirachi, Hayit Oxun tanburchi, Rustam Mehtar surnaychi, Ismat karnaychi, Sayfi qayroqchilar bor edi. Bu an-samblda g'ijjakchi bastakor To'xtasin Jalilov, Hayitxon tanbur-chilarni yonlarida: Komiljon Jabborov, Lutfullaxon Xo'jayev, Rahmat Otaboyev, G'anijon Toshmatov,

Ishoq Qori, Salohiddin Hoji kabi havaskor yoshlarni ham ko‘rish mumkin edi.

Mazkur jamoani keyinchalik mashhur bastakor, O‘zbekiston xalq artisti To‘xtasin Jalilov ham boshqargan. U o‘zining ustози Orif Toshmatovning faoliyatini shunday ta’riflagan edi: “Bizning rahbarimiz Orif aka garmonda o‘zbek xalq kuylaridan “Abdurahmonbegi”, “Nasrulloi”, “Ajam”, “Tanovar”, “Ufor” kabi klassik musiqalardan tashqari, “Dunayskie volni”, “Amurskie volni”, “Krakovyak”, “Polka”, “Varshavyanka”, “Internatsional”, “Smelo mi poydyom” kabi ruscha va Hamzaning kuylarini va o‘zi basta-lagan musiqalarni jo‘shqinlik bilan ijro etib, hammani lol qoldirar edi. Shular orasida uning “Andijon polkasi” juda ham mashhur bo‘lib ketdi. “Shunisiga qoyil qolar edimki, ustoz o‘zbek xalqining mumtoz kuylarini dutorda qanday chalsa, garmonda ham shunday nozik mohirlik bilan ijro etar edi”. Bu holat o‘sha davr o‘zbek tomoshabinlari uchun ham qiziqarli, ham yangilik edi.

1920-1930-yillarda yetim qolgan qiz bolalar uchun maxsus internat - maktablar ochiladi. Respublikamizda bunday internat - maktablar har bir viloyat markazlarida tashkil topdi. Bunday maktablarda umumta’lim fanlarini o‘qitishdan tashqari musiqa va badantarbiya darslari ham o‘qish dasturiga kiritilgan edi. Darslardan bo‘sh vaqtlarda qizlar xor, o‘zbek xalq cholg‘ulari va raqs to‘garaklariga qatnashar edilar. Mazkur internatlarning ora-sida Toshkentdagi Saodatxonim Enikeyeva rahbarlik qilgan “Ze-buniso” nomli qizlar internat - maktabida havaskorlar xori, drama va o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik to‘garaklari tashkil qilindi. Xor jamoasiga xormeyster V.Sakovich, unga Ali Ardobus yordam berdi. Drama - raqs to‘garaklariga Ali Ardobus rahbarlik qildi, Musiqiy cholg‘ularni qizlarga Shorahim Shoumarov va Abdusoat Vahobovlar o‘rgatishardi. Internatni mazkur jamoalari tez orada “San’atchi qizlar” nomi bilan Toshkent maktablarida, klublarida o‘z san’atlarini 1923-1924-yillardan boshlab namoyish qildilar, olqishlarga sazovor bo‘lib, barchaga

oʻrnak boʻldilar. Huddi shunday havaskorlar jamoasi, 1919-yilda “Namuna” nomli qizlar internat - maktabida Shorahim Shoumarov va I.Lutfullayevlar rahbarligidagi tashkil etilgan oʻzbek xalq cholgʻulari ansambli ham mashhur boʻlib ketgan edi. Mazkur jamoa 1923-yili Ozarbayjonga safarga borib, Baku shahrida Ozarbayjon maktab havaskorlari bilan birlikda konsertlarda faol qatnashib, hurmat-ehtiromga sazovor boʻlib qaytganlar.

1920-yillarda oʻquv yurtlari, zavodlar, fabrikalar qoshida, qishloq joylarda, “Koʻk koʻylak”, “Sanʼatchi qizlar”, “Sanoyi na-fisa” kabi musiqiy jamoalar tuzildi. Tashkil etilgan ijodiy jamoalar tarkibida: nay, chang, dutor, tanbur, gʻijjak, doira, nogʻora va qashqar rubobi sozandalaridan tarkib topgan xalq cholgʻulari ansambllari ham bor edi.

1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab yoshlar tashab-busi bilan “**Koʻk koʻylak**” umumiy nomi bilan ataluvchi, sahnada hamma ishtirokchilar bir xil rasmiy koʻk koʻylak, qora shim, qizlar yubka (yozda oq shim va yubka) kiyib oʻz sanʼat dasturlarini namoyish qiluvchi jamoalar paydo boʻldi. Mazkur jamoa asosan sozanda, xonanda, raqqosa, badiiy soʻz ustalari, akrobat yoki sirk artistlari, nayrangboz, masxarabozlar, shoir – yozuv-chilar, konferansʼe kabi sanʼatkorlardan tuzilar edi. Ularning asosiy maqsadi - zamonaviy mavzular bilan sugʻorilgan, yangicha xalq sanʼatini joriy etish, yoshlarni sanʼatga boʻlgan his-tuygʻularini rivojlantirishga qaratilgan edi. Omma orasida konsert dasturlarini ijro etganlaridan soʻng, hamma tomoshabinlar ular bilan, musiqalar sadosida umumlashib raqs tushar edilar. Bun-day kechalar bir necha soatlar davom etardi.

Mazkur uslubdagi “Koʻk koʻylak”li havaskorlar jamoalari Oʻzbekistonda XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmidan boshlab bunyod etila boshladi. Respublikamizning hamma yirik shaharlarida bunday jamoalar koʻp edi, ayniqsa rusiy zabon yoshlar orasida. Ushbu jamoalar orasida respublika va butunit-tifoq miqyosidagi koʻrik-tanlovlar ham oʻtkazilib turilar edi. Oʻlkamizda

bunday jamoalar orasida 1927-yili Samarqandda mashhur san'atkor Ali Ardobus (Ibragimov, Qo'ldoshboyev) rahbarligida tuzilgan "Ko'k kuylak" ansambli juda ham mashhur bo'lib ketdi. Bu jamoaning musiqa rahbari, O'zbekiston xalq artisti, atoqli kompozitor Tolibjon Sodiqov edi. Bu jamoa 98 ishtirokchilardan iborat bo'lgan va unda, kelgusida dong'i chiqqan quyidagi kompozitor, bastakor, sozanda, xonanda, dirijyorlar va raqs ustalarini ko'rish mumkin edi: Doni Zokirov, Manas Leviyev, Mardon Nasimov, Nasim Xoshimov, Nabi Hasanov, Fazliddin Shamsiddinov, Bahrom Inoyatov, Olim Halilov, Ahmad To'xtamatov, Jalol Obidov, Mirbobo Ziyoyev, Mixoel Kalontarov, yozuvchi – adabiyotshunos olim Vohid Abdullo va boshqalar. Mazkur to'garak qatnashchilari "Sharq" tomosha zali binosida haftasiga ikki marta, turli korxona va o'quv yurtlarida konsert berishardi. Konsert dasturini kofe-rans'e Xoji Siddiq olib borar edi.

O'zbekistonda musiqiy va teatr havaskorlik jamoalarini va iste'dodli shaxslarni san'atga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirish uchun 1925, 1930, 1932, 1935, 1938-yillarda viloyat-larda va respublikada ko'rik-tanlovlar (o'sha davrda olimpiada deyilardi) o'tkazilardi. Bu tanlovlarda juda ko'p turli yo'nalish-dagi havaskorlar jamoalari, baynalminallik dasturlari bilan, faol qatnashadilar. Masalan, 1925-yilda respublika ko'rik-tanlovida 50 turli yo'nalishdagi o'zbek, rus, yahudiy, arman, tatar havaskorlar jamoalari qatnashgan, g'oliblar munosib mukofotlangan-lar. Ular orasida mashhur hofiz M.Qori-Yoqubov rahbarligida "Etnografik ansambl" V.Leysek rahbarligidagi damli va simfonik orkestr, Samarqand shahrining "Sharq" mahallasida aka-uka Isroel, Mikoel va Gabriel Tolmasovlar rahbarligidagi ashula va raqs ansambli jamoalari g'olib deb topilganlar. 1930-yilda "ko'k ko'ylak"lilar jamoalarini o'rtasida o'tkazilgan ko'rik-tanlovda 1927-yilda Samarqandda Ali Ardobus tashkil etgan "Ko'k ko'ylak" havaskorlik jamoasi 1-o'ringa sazovor bo'lgan. Naychilar ansambllari orasida o'tkazilgan ko'rik-

tanlovda 1928-yilda kompozitor M.Leviyev Samarqand “Ofitserlar uyi”-da tashkil qilgan changchilar ansambli g‘olib deb topilgan. Ayniqsa, 1938-yilda Toshkentda o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovda respublikaning hamma viloyatlaridan 700 ga yaqin, shulardan 250 tasi Toshkent viloyati va shahridan qatnashgan. Turli yo‘nalishdagi havaskorlar jamoalari va yakka sozanda, xonanda raqqosalar o‘z san’atlarini yorqin namoyish qilishdi. Qatnashganlardan 100 kishi musiqa o‘quv yurtlariga tavsiya qilindi.

O‘zbek xalq cholg‘ularini zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirishning ilk qadamlari (tajribalari) o‘tgan asrning 20-yillari va 30-yillarining boshlariga to‘g‘ri keladi. Ushbu g‘oya birinchi bo‘lib toshkentlik mashhur hofiz Shorahim Shoumarov, xorazmlik ustoz sozanda Matyusuf Xarratov, toshkentlik mashhur sozgar Usta Usmon Zufarovlar tomonidan amalga oshirildi. Ularning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy maqsadlari - musiqiy cholg‘u-larning ovoz jarangdorligini oshirish hamda xas pardalar yorda-mida cholg‘u diapozonini (eng past tovushdan eng yuqori tovush-gacha bo‘lgan oraliq) kengaytirishdan iborat edi.

Hammamizga ma’lumki, milliy musiqiy cholg‘ularimiz azal-azaldan faqatgina xona sharoitida ijro etishga mo‘ljallangan bo‘lib, ularning tembr xususiyati ham aynan shunga mos edi. Asta-sekin cholg‘ularda keng davralar va katta sahnalarda ijro etishga to‘g‘ri keladi. Mavjud cholg‘ular esa davr talabiga javob bermay qoladi. Shunda sozanda, hofiz va sozgar ustalar cholg‘ular tovushini kuchaytirish kerakligini tushunib yetadilar va o‘zlarining ilk g‘oya-larini amalga oshira boshlaydilar. Natijada dutor, tanbur va g‘ijjak-larning bir necha tajribaviy turlari yaratildi.



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, taniqli hofiz va ustoz san’atkor **Shorahim Shoumarov** (1876-1958) o‘zbek xalq cholg‘ularini ijrochi-lik talab darajasiga moslashtirish tashab-busi bilan chiqqan ilk sozandadir. O‘sha paytda u Turkiston xalq konservatoriya-sida o‘zbek xalq cholg‘ulari bo‘yicha murabbiylik qilardi (1919-1920). Sozan-da konservatoriyada nihoyatda

iste’dodli

Shorahim Shoumarov san’atkor ekanligini namoyish qildi. U murabbiy sifatida shogirdlaridagi mus-taqil ijobiy yo‘lga intilishni qadrladi va har tomonlama rag‘bat-lantirdi. Uning shogirdlari orasida Y.Rajabiy (nay), I.Ikromov (g‘ijjak), P.Rahimov, F.Sodiqov (chang), M.Abdullayev (tanbur), Z.Sodiqov (dutor), A.Maqsudov (nay)lar bor edi.

Sh.Shoumarov uzoq vaqt mobaynida mashhur xalq sozandalari - R.Rajabiy, I.Ikromov bilan O‘zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg‘ulari ansamblida ishladi. Ansamblida ishlagan davrda u g‘ijjak, dator, tanbur kabi cholg‘ularning tovush va tebranish sifatlarini yaxshilashga doir qizg‘in izlanishlarni boshlab yubordi. Cholg‘ularni davr talabiga moslashtirishda ko‘pgina ijodiy taklif va tashabbuslar ko‘rsatdi.

Laboratoriyada o‘zbek xalq cholg‘ularini modernizatsiyalash-tirish jarayonida u aynan g‘ijjaklarning kosasini har xil xomash-yodan, ya’ni kokos yong‘og‘i, qovoq, mis va yog‘ochdan turli shakllarda yasadi. Jonli ijro orqali ularning ovoz tarovatlari tinglab ko‘rildi hamda bir-biriga qiyoslanishi natijasida kosasi yog‘ochdan yasalgan cholg‘u maqsadga muvofiq, deb topildi.

So‘ngra yog‘ochdan yasalgan g‘ijjak kosasining shakli bo‘yi-cha izlanishlar olib borildi. Natijada Sh.Shoumarov tomonidan bir qator kosasi cho‘zinchoq va orqa qismida quyosh tasviri tushiril-gan, 8 qirrali

hamda dumaloq shakldagi g'ijjaklar yasaldi, ular-ning ovoz tarovati va tembr xususiyatlari tekshirildi. So'ngra barcha tajribaviy cholg'ular orasidan kosasi tut daraxtidan yarim shar shaklida o'yma ravishda yasalgan g'ijjak tanlab olindi, chunki undan taralayotgan ohang eng yoqimlisi bo'lib, g'ijjak tembriga mos edi. Sh.Shorahimov tomonidan yasalgan, turli shakldagi yog'och kosali g'ijjaklar

Matyusuf Xarratov (1889-1953) changni takomillashtirish ustida ish-ladi. O'sha paytda mavjud chang ki-chik diapazon va diatonik tovushqa-torga ega bo'lib, unda professional kompozitorlar asarlarini ijro etish imkoni ancha mushkul edi. U changni takomillashtirish, ya'ni davr talabiga moslashtirish ustida o'ylay boshlaydi. Izlanishlar natijasida changning yuqori registrini qo'shimcha torlar bilan bo-yitish hisobiga kengaytiradi. Cholg'dagi bunday o'zgarishlar musiqa jamoatchiligi tomonidan maqullanadi.

1935-yili Matyusuf Xarratov O'zbekiston radiokomiteti qoshi-dagi ansamblga ishga kiradi. Chang sozi uning eng sevimli musiqa cholg'ularidan biri edi. Lekin, bu cholg'u diapazonining kichikligi va diatonik tuzilishi unda turli xalqlarning asarlarini ijro etishga imkon bermas edi. Aytib o'tish joizki, oldingi changlar diatonik tovushqatorda va ixcham shaklda ishlangan edi. Cholg'u-ning noqulaylik tomonlaridan yana biri – har bir yangi asarni ijro etishdan oldin uni qaytadan (nayga qarab) sozlash kerak edi.

M.Xarratovning yaxshi xislatlaridan biri shu ediki, u doim yangi narsalarni o'rganish, malakasini oshirish ustida ishlardi. Mashhur sozanda bo'lishiga qaramay, u 1936-yili Toshkent davlat konservatoriyasiga kompozitsiya sinfi bo'yicha tayyorlov bo'li-miga o'qishga kiradi. Natijada serqirra ijodkor nafaqat mohir sozanda va sozgar usta, balki chiroyli kuylarni bastalash mahora-tiga ham ega bo'ladi. 1982-yili O'zbekiston radiosi orqali maho-ratli changchilar Rustam Ne'matov va Fazilat Shukurova ijrosida yangragan “Yoshlik valsi” shular jumlasidandir.

Matyusuf Xarratov 1937-yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston adabiyoti va san’ati kunlari munosabati bilan N.Mironov rahbarligida xalq cholg‘ulari orkestri tarkibida changchi sozanda sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, Belorussiya respublikasida bo‘lib o‘tgan konsertlarda ham qatnashadi. “Sayil va kolxoz to‘yi” insseniroykasidagi “Mustahzod ufori” raqsi uning musiqasi asosida sahnalashtirilgan. M.Xarratov o‘z ijodini keyingi yillarda O‘zbek davlat opera va balet teatri qoshidagi sozandalar ansam-blida sozanda sifatida davom ettiradi.

Benazir ustoz, serqirra ijodkor M.Xarratov 1944-yilda o‘zbek madaniyatining taraqqiyotidagi barakali xizmatlari va yosh sozandalarni tarbiyalashdek mashaqqatli va shu bilan birga sharaflı mehnatlari uchun “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi” faxriy unvoni bilan taqdirlanadi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘r-satgan san’at arbobi, mohir sozanda va sozgar, jonkuyar ustoz **Usta Ro‘zimatxon Isaboyev** (1885-1964) Namangan shahrida dunyoga keladi. U yoshligidanoq musiqaga mehr qo‘yib, dutor chalishni juda erta o‘rganadi. Tog‘asi uni sho girdlikka va o‘z tarbiyasiga oladi. Bir kuni tog‘asi yosh Ro‘zimatni dutor chalayotganini ko‘rib, qizib turgan otashkurakni yelkasiga bosib, “Kimsan falon kishini jiyanı mashshoq bo‘libdi desa, qanday bosh ko‘tarib yuraman”, deya koyib beradi. Tog‘asining qarshiligi R.Isaboyevni san’atni tashlashga emas, balki mo-hir sozanda bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Boshqa sozandalar kabi u ham dutor, tanbur, chang cholg‘ularni chalishni o‘rganadi.

Ro‘zimat aka nafaqat soz chalishni, balki barcha milliy cholg‘ularni maromiga yetkazib yasashga erishadi. 1902 yillarda Qashqardan kelgan sozanda Ramazonoxunning choyxonalarda chang chalishidan ilhomlanib, uning bu cholg‘uga qiziqishi o‘y-g‘onadi. O‘sha paytda bu cholg‘uning hajmi ham, shakli ham boshqacharoq bo‘lgan. Qashqarlik sozanda o‘z cholg‘usining tuzilishini sir ushlashiga qaramay, uddaburon Usta Ro‘zimat aka bu cholg‘uni yaqindan

ko‘rishga muyassar bo‘ladi va o‘ziga chang yasab oladi. Usta yasagan changning hajmi kattaroq bo‘lib, u har bir tovush balandroq eshitilishi uchun to‘rtadan tor taqadi - bu urinish aynan cholg‘uning ovoz jarangdorligini oshirish maq-sadida qilingan bo‘lishi mumkin.

Ustozi Jalolxon Mirzarahimovning: “Soz yasashni bilmagan sozanda, sozanda emas” - degan gaplariga amal qilib, o‘zbek mu-siqa cholg‘ularini barchasini bejirim yasashga erishadi. R.Isabo-yev bir necha yarim xromatik changlar yasab, birinchi bo‘lib Namanganda bu cholg‘uni ansambl jamoasiga qo‘shgan inson edi¹. Usta Ro‘zimat shogirdlar qalbiga ham yo‘l topa olgan us-tozdir. Uning shogirdlari ustozlari haqida shunday deyishadi: “Usta Ro‘zimat aka shogirdlariga juda mehribon edilar, ularning nihoyatda quvvai hofizasi kuchli edi, yangi kuyni bir marta eshitdilar, eslaridan chiqarmasdi. Shashmaqomni qayeridan so‘rasangiz o‘sha joydan darrov xirgoyi qilib berardilar. U kishi jonli nota edi”². Usta Ro‘zimat Isaboyev butun umri davomida o‘zbek musiqa madaniyatining taraqqiyotiga, qolaversa sozgarlik san‘atining ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shgan betakror insondir.



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, mohir sozgar Usta **Usmon Zufarov** (1894-1981) 1943-yildan 1949-yilga qadar sohaviy ilmiy - tadqiqot eksperimental laboratoriya- sida faoliyat olib borgan. Ushbu davr mobaynida bir qator o‘zbek xalq chol-g‘ularini zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Asosiy maqsad – cholg‘ularning

Usta Usmon Zufarov ovoz tarovatini kuchaytirish va xas padalar yordamida diapazonini kengay-tirishdan iborat edi. Natijada turli shakldagi ruboblar, kosasi ikki va uch qavatdan iborat bo‘lgan dutorlar

¹ Abduvaliyev A. Ohanglarda yaralgan olam. O‘zbekistn san‘ati. № 10, 1978,13-bet.

² O‘sha manba, 14-bet.

yaratildi. Shuningdek, g'ijjak va chang cholg'ulari ustida ham izlanishlar olib borildi.

U.Zufarov cholg'ularning ovozi kuchaytirish maqsadida du-tor va tanbur qopqog'ining tagiga ikki tomonidan uch qatordan qo'shimcha sado berib turuvchi simlar tortgan. Bu tajriba ijro paytida qopqoq tagidagi torlar aks-sado berishi natijasida tovush tembri yanada kuchayadi degan maqsadda amalga oshirilgan edi.

Shuningdek tanbur dastasi va g'ijjak kosasining tagiga yo-g'och karnaylar o'rnatgan. Bu ham bo'lsa ovoz tarovatini kuchaytirish maqsadida qilingan izlanishlardan biri edi. Bu cholg'ular ham o'sha paytda ansambl tarkibida qo'llanilgan, lekin bizgacha yetib kelmagan. Cholg'ular o'z shakliga nisbatan ancha katta-lashtirilgan va ansambl ovoz tarovatini boyitishga xizmat qilgan.

U.Zufarov birinchilardan bo'lib, Y.Rajabiy buyurtmasiga asosan ansambl jamoasi uchun past registrli cholg'ular, ya'ni "katta dutor", "katta tanbur" va "katta g'ijjak"larning bir necha turlarini yasaydi. Ular 1934-1936 yillar davomida Y.Rajabiy rahbarligidagi ansambl tarkibida qo'llaniladi.

Usta butun umri davomida cholg'ularning yangi turlarini o'ziga xos betakror bezak va nafis yog'och o'ymakorligi san'ati bilan hamohang ravishda yasash bilan shug'ullangan. Bu cholg'ular bugungi kunda U.Zufarov ijodiy faoliyatining mahsuli sifatida O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Milliy cholg'u" ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasining "Davlat noyob ilmiy ob'ekti"da nodir eksponat sifatida saqlanmoqda.

Usta Usmon Zufarovning ishlari milliy musiqiy sozlarimizning sifat darajasini oshirishga katta yordam berdi va hozirgi kunga qadar bu cholg'ular barcha sozgar ustalarga namuna (etalon) sifatida xizmat



qilmoqda. Usmon Zufarovning noyob va betakror cholgʻularida nafa-qat Oʻzbekistonning, balki xorijiy mamlakatlarning ham mutaxassisleri va musiqa ixlosmandlari sevib ijro etmoqdalar. Ularning dutorlari (hamda tanburlari) boshqa ustalarning ishlaridan ajralib turishi uchun

boʻgʻzidagul va bulbul siymosi yogʻoch oʻymakorlik sanʼati orqali aks ettirilgan. Bu esa faqatgina ustaning oʻziga xos boʻlgan ramziy belgi hisoblanadi. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi Usta Usmon Zufarov taniqli xalq ustalari qatoridan joy olgan. Ustaning nomini nafaqat Oʻzbekiston sozandalari-yu, xo-nandalari balki xorijiy hamkasblarimiz ham faxr bilan tilga ola-dilar. Qoʻqonda usta Moʻminbek va usta Haydarning nomlari magʻrurlik bilan tilga olinadi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida ijod qilgan ustalar-usta Umarali va uning shogirdi usta Toshboy Sultonovning nomlari Toshkentlik musiqa shaydolarining dilida abadiy barhayotdir. Ularning yasagan cholgʻulari muzeylarda va sozandalarning uyla-rida ardoqlanib saqlanmoqda. Bu ustalar cholgʻularning badiiy bezagiga alohida eʼtibor berishgan, yasagan dutor va tanburlari oʻzining goʻzalligi bilan ajralib turadi. Usta Usmon Zufarovning ustozlari - usta Toshboy Sultonov elga tanilgan zamonaviy ustalar-ning biri edi. Uning mohir qoʻllari bilan yuzlab dutor, tanbur va boshqa musiqa cholgʻulari yasalgan.

Sozgar usta U.Zufarov 1894 yili Toshkentning Koʻkcha mahallasidagi Tor koʻchada dunyoga kelgan. U 6 yoshida otasidan yetim qoladi. Uni va toʻrt nafar ukasini onasi tarbiyalaydi. Onalarining aytishlariga qaraganda: “Usmon bolalik paytida koʻchada bir toʻda bolalarning dutor chalayotganini koʻrib qoladi. U katta qiziqish bilan musiqani tinglab, koʻzini dutordan uzmas edi. Shundan keyin Usmon kichkina yogʻochni olib undan kichkina oʻyinchoq dutor yasabdi va

torining o'rniga otning yolini taqibdi. O'yinchoq cholg'u zo'rg'a eshitiladigan darajada tovush chiqarib, kichkina musiqachini quvontiribdi. Yillar o'tishi bilan uning musiqaga bo'lgan qiziqishi ortib boribdi. Bir kuni Usmon Qashqar mahallada usta Tosh yashashligidan xabar topib, uning yoniga boradi va uni shogirdlikka olishini so'raydi. Shunday qilib, u 12 yoshidan boshlab Toshkentlik usta Toshboy Sultonovdan cholg'u yasashni o'rgana boshlaydi.

“8 yillik mehnatimdan so'ng, mening ustozim mahorat sirlarini o'rgata boshladi, keyin ko'p vaqt temirchilik qildim va faqatgina 15 yildan keyin dutor va boshqa musiqa cholg'ularini yasay bosh-ladim”¹, deb eslaydi usta Usmon Zufarov. Boshqa ustalarning ham tarjimai holi shundaydir. Chunki azal-azaldan ustozlar o'z shogirdlariga sozgarlik sirlarini darhol o'rgatmay, balki ularni izlanishga o'rgatar edi. Faqatgina sabr-toqatli shogirdlargina chol-g'u yasash sirlarini egallay olishi mumkin. Zero, sozgarlik san'ati eng sharaflı, shu bilan birga o'ta mashaqqatli kasbdır.

Cholg'u yasash uchun xomashyoni ajrata bilish va qayta ish-lash qanday muhim ahamiyatga ega ekanligini bilgan yosh usta, o'tkir zehnlilik bilan yog'ochni qayta ishlashni o'rganadi va naqsh bezagi sirlarini egallaydi. 1920-yili Usmon Zufarov o'ziga kerakli bo'lgan barcha asbob-uskunalarni yig'ib, kichkina uy ustaxonasini tashkil etadi va katta bo'lmagan duradgorlik dastgohi olib, musta-qil ravishda ishlay boshlaydi.

Nazorat uchun savollar:

- 1. Kichik shakldagi kuylar ustida ishlashning qanday o'ziga xosligi bor?*
- 2. O'rtacha shakldagi kuylar katta hajmdagi asarlarni o'rganishda qanday vazifani bajaradi?*
- 3. O'zbek bastakorlaridan kimlarni bilas?*

¹ Muallifning Usta Usmonning o'g'li To'xtamurod Zufarov bilan 2000 yil 15 sentabrda bo'lgan suhbatidan yozib olingan.

4. *Bastakorlarning yaratgan asarlari qaysi pog'onaga munosib?*
5. *Yirik shakldagi asarlarga qanday kuylar kiradi?*
6. *O'zbekiston bastakorlari ichida milliy cholg'ular uchun yirik shakldagi asarlar yaratganlari bormi?*
7. *Bastakorlar mumtoz yo'ldagi asarlarni yaratishda, nimaga tayanishadi?*
8. *O'zbek opera va drammlarini kuy asosini qanday musiqalar tashkil etadi?*
9. *O'zlari yaratib, o'zlari ijro etgan bastakorlardan kimlarni bilasiz?*
10. *Musiqiy eshitishning qanday turlari bor?*
11. *Mutlaq (absolyut) eshitish bilan qiyosiy eshitishning farqini ayting?*
12. *Xotiraning qaysi turlarini bilasiz?*
13. *Musiqiy asarni yod olishda xotirani chiniqtirish yo'llarini bilasizmi?*
14. *Usul sezgisini o'lchov va ritm bilan aloqasi bormi?*
15. *Rubato va Agogika atamalarini izohlang.*
16. *Bolani qiziqtirish va ta'sir qilish uchun qanday faoliyat olib borish kerak?*
17. *Buning uchun muallim mutaxassislik sinfida qanday yo'l tutishi kerak?*
18. *Ijro dasturi tanlashda o'qituvchi nimalarga e'tibor qaratmog'i lozim?*
19. *Cholg'u asbobiga ko'nikish qanday jarayon?*
20. *O'quvchilarda yengil va bemalol chalishga ruhiy ko'nikmalar qaysi yo'l bilan hosil qilinadi?*
21. *O'tirib chalgan paytdagi holatni izohlang.*
22. *Jag' suyaklari va tishlarning har xil rivojlanganligi natijasida cholg'u holatining qanday muammolari mavjud?*

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

1. Bitta asarning turli ijro yo'llariga oid misollar keltiring.
2. Internet tarmog'ida mavjud ustoz sozanda va xofizlar ijrochilik faoliyatlari haqida ma'lumot to'plang.

Foydalanish uchun adabiyotlar.

1. Ibroximov O., "Fergano-Tashkentskiye makomi" Toshkent, 2006.
2. Jabborov A.H. "O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari" Toshkent, 2004 yil.
3. Matyoqubov O., "Maqomot" Toshkent, 2004 yil.
4. Rasulov O., "An'anaviy xonandalik o'qitish metodikasi" Toshkent, 2006 yil.
5. Rajabov I., "Maqomlar masalasiga doir", Toshkent, 1963 yil.
6. Nazarov A., "Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida" Toshkent, 1995 yil.
7. Olimboeva K., Ahmedov M., "O'zbekiston xalq sozandalari" Toshkent, 1959 yil.

1.6. Ustoz-shogird an'analari.

Reja:

1. Mutaxassislik sinfida tarbiyalash bo'yicha turlicha yondoshganlar.
2. "Ustoz-shogird an'anasi" tushunchasining mazmuni va mohiyati
3. Ustoz-shogird an'analari vositasida o'zbek an'anaviy musiqa madaniyatining ma'naviy-tarbiyaviy asoslarini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik negizlari

Kalit soʻzlar: *ustoz-shogird anʼanalari, mutaxassislik, yondoshuv, anʼanaviy musiqa, madaniyat, maʼnaviy-tarbiyaviy asoslar, ijtimoiy-pedagogik negizlar.*

1. Mutaxassislik sinfida tarbiyalash boʻyicha turlicha yondoshganlar.

Sanʼat sohasining mutaxassislik sinfida taʼlim va tarbiya jarayoni uzluksiz, yakka tarzda olib boriladi. Buning asosiy sabablaridan biri har bir talabaga haftada kamida ikki soat yakka holda dars oʻtilgandan keyin mutaxassislik fani oʻqituvchisi talaba uchun oʻz ota-onasidek yaqin boʻlib qoladi. Shunday ekan mutaxassislik boʻyicha muallimning ham oʻz shogirdlarini har tomonlama kamol topishidagi maʼsuliyati juda yuksakdir.

Ustozlarning taʼkidlashicha: Oʻqituvchining eng qoʻrqinchli holatlaridan biri bu – oʻquvchiga kerak boʻlmay qolishidir. Yaʼni, oʻquvchiga zarur boʻlgan nazariy va amaliy bilimlarni, yoʻl-yoʻriqlarni koʻrsatib borish zarur.

Buning uchun oʻquvchiga:

Mustaqil fikrlashni,

Asar uslubi ustida ishlashni,

Maqsadga yaqinlashib, oʻzini kashf etishni oʻrgatish lozim.

Yosh mutaxassislarni tayyorlashda eng murakkabi musiqani estetik qarash bilan baholash, yaʼni estetik baho bera olishni singdirish lozim. Nima yaxshi, nima yomon. Nima chiroyli, nima xunukligini farqiga bora olishni uqdirish kerak. Oʻtmishni boy madaniyati bilan ruhiy bogʻlanishni singdirish. Bunda oʻquvchini vatanparvarlik, yurtiga sodiqlik va boshqa ijobiy xislatlarga ega qilib tarbiyalash asosiy vazifalardandir.

Mutaxassislik sinfida tarbiyalashning turli shakllari mavjud boʻlib, mashhur ustozlar bu jarayonga turlicha yondoshganlar. Masalan: yakka suhbat va sinf majlislari oʻtkazish, koʻpchilik boʻlib

jamoat joylariga va ko'ngil so'ragani borish, konsertlar berish, ijrochi sozandalar haqidagi kitoblarni mutola qilish, ayniqsa keyingi paytlarda internet saytlardan mashhur ijrochilar hayoti va ijodi bilan tanishish va ijrolarini eshitish kabi tadbirlar hamda shogirdlarining shakllanishida ustozning shaxsiy namunasi katta rol o'ynaydi.

Sozandani kasbga tayyorlashda bolalar musiqa va san'at maktablari boshlang'ich asosiy o'quv dargohi sifatida xizmat qilsa, kasb hunar kollejlari va Akademik litseylari o'rta bo'g'inni tashkil qiladi. Oliy o'quv yurtlari esa ikki bosqichli (bakalavriat va magistratura) oliy malakali mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan yuqori bo'g'in hisoblanadi. Ushbu o'quv maskanlarida o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijrochilik mahorati, musiqiy adabiyotlardan xabardorligi, kasbga muhabbati, o'z ishiga mas'uliyat hissi, tashabbuskorligi va izlanuvchanligi, tanqidni to'g'ri qabul qilishi va boshqa sifatlarni o'zida mujassamlashtirishi juda muhimdir. U o'z amaliyotida yangi nota va uslubiy adabiyotlar, texnik vositalarni qo'llashi, referat va ma'ruzalar tayyorlashi, ayniqsa xalq kuylari va mumtoz asarlardan o'z cholg'usiga moslashtirishi va tinmay o'z ustida ishlashi katta ahamiyatga ega.

2. “Ustoz-shogird an'anasi” tushunchasining mazmuni va mohiyati

O'z kasbining mohir ustalari bo'lgan hofiz, sozanda va bastakorlar ijodi tufayli maqom dildagi niyat, amalga oshishi mumkin bo'lgan mavhum musiqiy g'oyadan kuy yoki ashulalarga aylanadi. Barhayot musiqiy an'analar har kanday faoliyat kabi uchta asosiy tamoyilga tayanadi: *tinglovchi*, *ijrochi* va *yaratuvchi*. Ana shu uchta tamoyil negizida musiqa san'atining mushtarak jarayoni yuzaga keladi.

Og'zaki an'analar sharoitida ijro bilan ijod faoliyatining chegaralarini belgilash qiyin. Chunki haqiqiy ijroning o'ziyok, ijod demakdir. Cholg'uchi yoki hofiz o'z hunarining siru asrorlarini o'zlashtirishda ma'lum bir darajaga

erishgandagina *Ustoz* degan nomu nishonga musharraf bo'ladi. Aynan shu chinakam ustoz sozandalar maqomni yuksak san'at darajasiga ko'tarishga qodirlar. Ularning ijodiy shuhrati porloq yulduzlar kabi musiqa madaniyatini nurafshon etadi. Ana shunday yorqin yulduzlarning shu'lalari klassik musiqa merosimizga turli uslublarining cheksiz qirralarini yoritib kelmoqda.

Sharq mafkurasida qadim zamonlardan oq musiqaning ijro va ijod jixatlari bir butun uzviy holda ko'rilgan. Sozanda mahorat yo'lida ma'lum yutuklarni ko'lga kiritganda erkinlik kashf etib, o'z ijodiy qiyofasini belgilay boshlaydi. Ana shunday yuksak cho'qqiga yetgandagina, ijod qirralarining qay biri *o'ziniki* va qay biri *o'zganiki* ekanini ajratish juda qiyin. Shuning uchun ustoz sozandaning o'zidan qo'shgani asrlar osha kelayotgan barqaror an'analarni inkor etmaydi. Aksincha, uning ijodiy hissasi tabiiy ravishda umumiy merosga qo'shilib ketadi.

Buyuk faylasuf va musiqashunos olim Abu Nasr Forobiy musiqiy iqtidorni uch bosqichga ajratadi: *Fapuza (tabiiy kuch, instinkt)*, *his* va *aql*. *Rariza* – insondagi sozga bo'lgan moyillik, uning kuy eshitish, chalish yoki aytish qobiliyati. *Xis etish (intuitsiya)* – kuyni ruhiy holat sifatida o'zlashtirish. Masalan, sozanda kuy chalayotganda qaysi parda, qaysi ohang ekanligini o'ylab o'tirmaydi. Kuy sozanda qalbida pishib yetiladi va undan keyin ma'lum tovushlar sifatida ijro etiladi. *Aql (intellekt)* darajasi shundan iboratki, unga erishgan sozanda kim uchun qanday kuy chalayotganligini, uning tuzilishini, g'oyasini, shakl va mazmunini idroklashga qodir bo'ladi. Ana shu yuksak kamolot bosqichida sozanda ongli ravishda tushunib yetib kuy yaratishga erishadi. Shuning uchun ham Forobiy kuyni idroklash va yaratish iktidorini musiqa ilmining eng mukammal bosqichi deb qaragan.

Muomalada esa sozandalik hunarining ana shunday yuqori darajasi "*ustoz*" degan faxriy daraja bilan belgilanadi. Mazkur uyg'un tushunchaning shartli ravishda ikki: *ma'naviy* xamda *amaliy* jihalarini kuzatish mumkin. Ma'naviy tarafdin ustoz har bir xunarning e'tiqod ramzi, uni muqaddas tutib inson kasb - koridan baraka topib, yuqori martabaga erishmog'i. Xalqimizda "*Ustoz otangdek ulug'*" degan naql bor. Har bir namozda salovot o'qilganda, avval payg'ambarlarga (Odam Atodan Muxammad sallalloxu a'layhi

vasallamgacha) soʻngra ustozlar va undan keyingina ota-onalar haqiga duo qilinadi.

Amaliy nuqtai nazardan ustoz – muayyan ixtisos sohasining siru asrorlarini puxga egallagan va hunar oʻzlashtirishni oliy darajaga yetkazgan komil inson. Masalan, musiqada ustoz – kuy chalib, oʻzidan bir narsalar qoʻshib, mahoratini nafis sanʼat maqomiga koʻtargan sozanda. Ustoz tomonidan u muqadadas qobiliyat sifatida avaylab-asraladi. Oʻzlashtirilgan sanʼat sirlarini faqat aziz farzandlar va eng sadoqatli shogirdlar bilan baham koʻrish mumkin. Kasb-hunarning siru asrorlarini begona qilish yoki nomaqbul shogirdlarga ravo kurish gunoh hisoblangan. Hunarni oyoq osti qilish esa piri-arvohlar gʻazabini uygʻotadi degan eʼtiqod boʻlgan. Shuning uchun ham tarixiy tajribadan maʼlum boʻladiki, ustoz-shogird silsilasida oilaviy anʼanalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Odatda, sozandalar oilasidan yetishib chiqqan, tashqaridan kelgan shogirdlar ishonchni oqlab, unga sadoqat bildirgandagina ustozlar ularga mehr qoʻya boshlaydi. Ana shu tarifa maqom ijrochilarining asrlar davomida shakllangan *maktab* va uslublari zaminida yangi oqimlar paydo boʻladi. Oʻz navbatida bu yangiliklar ham silsilaga aylanib maqom anʼanalarida vorisiylik rishtalari uzluksiz davom etib boraveradi.

Sozandalar kamolot sari intilishida muqarrar uchta bosqichni bosib oʻtadilar. Birinchisi, biron-bir yetuk sanʼatkor, *ustozning iziga ergashish*, uning dasturi (kuy va ashulalari) va uslubini oʻzlashtirish.

Ikkinchisi, bilim va malakalarini kengaytirish, *oʻzga maktab vakillarining ijodidan bahramand boʻlish*. Uchinchisi, erishgan bilim va tajribalar asosida *oʻz uslubini shakllantirish*. Ana shu murakkab ijodiy jarayonda uz yoʻlini topishda ustozning ahamiyati eng muhim tayanch boʻlib xizmat qiladi. Ustoz timsoli, uning xurmat va eʼtibori anʼanalarning oʻziga xos iymon va vijdoni vazifasini bajaradi. “Ustoz koʻrmagan shogird har maqomga yurgʻalar”, degan maqol bu hikmatni aniq va loʻnda izhor etadi.

Koʻpni koʻrgan ustozlarning aytishicha, kuy gʻoyasi dilda paydo boʻladi va uning moʻjizakor ruhi ham yurakda saqlanadi. Shuning uchun ham kuy sozandaning dilidan chiqib, tinglovchining qalbiga yetib boradi.

Cholg'uchining qo'llari yoki hofizning ovozi – kuy ruhining xizmatkorlaridir. Ular faqat qalb amri bilan ichkaridagi tuyg'ularni tashqariga chiqarishi, sadolantirishi mumkin. Bu "xizmatkorlar" o'z xunarini qancha mahoratli, bilintirmasdan namoyish etsa (tashqariga chiqarsa), shuncha "sadoqatli" hisoblanadi. Kuyning ravon harakati sozandaning say' - intilishlari va "mashaqqati" evaziga yuzaga keladi. Ammo tinglovchi oldida bu "mashaqqat" ko'rinmasligi kerak. Aks holda lazzeatli soz jarayoni xushilhom emas, oddiy "mehnat"ga aylanib qoladi.

Doimiy ijodiy izlanish – haqiqiy sozanda ruhiyatining asl tabiiy holati. Xattoki chinakam sozanda bir kuyni ikki marta bir xil chalmaydi. Unga bir kuyni takrorlab o'tirishning, umuman, hojati yo'q. Chunki ustozlarning dasturida bir qancha kuy takrorlanmasdan ijro etilishi mumkin bo'lgan boy zaxira mavjud. Bordi-yu, bir narsani qayta ijro etish hojati tug'ilib qolsa, sozanda uni avvalgidan boshqacharoq talqin etadi. Bor holatni takrorlamoq zerikarli va uning badiiy jozibasi xam past bo'ladi. Bu esa ustoz sha'niga munosib narsa emas.

Bundan cheksiz ijodiy izlanishni beboshlik deb xulosa chiqarish mumkinmi? Yo'q, albatta! Musiqiy g'oyaning talqinida erkinlik qay darajada bo'lmasin, uning asosida qat'iy o'zak – asrlar davomida sozanda va tinglovchi muloqotida shakllangan qonun-qoidalar mavjud. Tajribali tinglovchining qulog'i, uning badiiy ongi beboshlikni erkin ijodiy badihadan , mahoratli san'atkorning nozik ilhomini tajribasiz shogirdning qiliqlaridan darhol ajratib oladi. Shuning uchun ham uch tamoyil: yaratuvchi, ijrochi va eshituvchi uyg'unligida tinglovchiga alohida o'rin ajratiladi. Zero eshituvchi soz muhitini, kuy yoki ashula tinglash ehtiyojini belgilovchi va pirovardda sozandaga xolis baho beruvchi hisoblanadi.

Malakali musiqa tinglovchilari, odatda, *muxlis* yoki *shinavanda* deyiladi. Bunda birinchisi – soz san'atiga havas kuygan muxlis. Shinavanda kuy va ashulani idroklaydigan, tushunadigan tinglovchi. Shinavanda (tushunuvchi) - musiqiy muhitda yuzaga kelgan maxsus atama. U musiqa haqida ma'lum tushunchalarga ega bo'lgan va unga nisbatan alohida ishqibozlik bildiruvchi xos muxlislikni nazarda tutadi. Tarixdan ma'lumki,

maqom san'atining tulaqonli hayot kechirishida shinavandaning ahamiyati sozanda shaxsiyatining o'zi kabi muhim va e'tiborlidir. Bizda maqom shinavandachiligining o'ziga xos an'analari shakllangan. Bu san'atning taraqqiyotida muhim o'rin tutgan nafosatli soz majlislarining markazida aynan shu malakali shinavandalar turgan.

Oddiy (avom) eshituvchiga qaraganda xos shinavanda jonli musiqa jarayonining bevosita ishtirokchisi bo'lib maydonga chiqadi. Kuy va ashulalarning bilimdoni sifatida shinavanda eshitayotgan asarni ichidan o'tkazib boradi va go'yo tovush chiqarmasdan o'zi ham qo'shilishib ijro etayotgandek bo'ladi. Demak, hofiz yoki sozanda bilan bir qatorda hayolan ijod jarayoniga qo'shiladi, kechirilayotgan his-tuyg'ularga sherik bo'ladi hamda kuyning har bir unsuri – vazni, ohangi, usuli va boshqa jihatlarini ongli ravishda nazorat qilib o'tiradi.

Shuning uchun haqiqiy shinavanda, sozandaning ijodiy ilhomidan, uning badihalaridan zavq olib, huzur qiladi. Sozandaning har bir ijodiy intilishi shinavandaga rohat baxsh etadi, aksincha, har qanday g'aliz chekinishi, barqaror qonun-qoidalariga putur yetkazishi esa uning g'ashiga tegadi. E'tiborli tinglovchilar kuyning eng nozik tomonlarigacha kuzatib boradi va bundan sozanda o'zini chinakam shinavandalar davrasida ekanligini yaxshi his qiladi. Xullas, sozanda va shinavandaning ittifoqi (muloqoti), ijodiy ehtiyoj va ixtiyorning mutanosib holatga kelishi klassik musiqa san'atining rivojlanishi uchun eng qulay sharoitdir.

Eshituvchining hissiyotiga ta'sir eta bilish, uning fikru hayolini qamrab olish va musiqiy holatga buysundirish sozandaning bilim va mahorati, ma'lum ruhiy qudratga erishganligidan dalolat beradi. Ana shunday ustalik darajasiga yetgan sozandalar tinglovchilarni sehrlab qo'yishga, musiqiy holatga to'la-to'kis bo'ysundirishga qodir bo'ladilar. Musiqiy g'oya girdobida o'zlikni tark etish esa haqiqiy sozanda va shinavanda uchun ham eng oliy lazzat hisoblanadi.

Shunday qilib, ijrochi va eshituvchining jonli ijodiy muloqotida mushtarak, ammo ikki yunalishga qaratilgan jarayonni kuzatish mumkin. Unda, bir tarafdin, barqaror qonun-qoidalar mavjud. Ikkinchi tomondan, ana

shu qonun-qoidalaridan tashqariga chiqish, badiha qilish, bunyodkorlik kashf etish ehtiyoji borligidir. Masalaning eng nozik va ayni chogʻda chigal tomoni shundaki, qatʼiy bir nota matni boʻlmagan jonli ogʻzaki musiqa jarayonida ijro va ijod chegaralarini aniq belgilash amrimahol. Ular doim bir-biriga tutashib, biri ikkinchisini toʻldirib boradi. Ijro va ijod munosabatlarida bir sozandaniki ikkinchisiga oʻxshamaydi va bu ikki jihatning oʻlchovi, mezonini topish qiyin. Va, nihoyat. Ijod yoʻnalishini oldindan belgilash ham mushkul. U hatto sozandaning uzi xohlagan taqdirda ham chiqmasligi mumkin. Shuning uchun sozanda ilhomini gʻoyibdan keladigan ilohiy qudrat deb biladilar¹.

Ustozning eng yuqori darajasi sifatida bir qator talab, bilim hamda amaliy unsurlarni oʻzida mujassam etadi. Albatta birlamchi jarayon bu – taʼlim berish, bilimdir. Ikkinchi jarayonni saboq, tarbiya bilan bogʻlash mumkin. Uning natijasida bilim, ustozning taʼlim bilan bogʻliq ilm darajasi namoyon boʻlishi lozim. YAʼni, ijro mahorati, soʻz talaffuzi, ohang tarannumi, meros va ijodiy munosabat. Buning zaminida esa oʻzbek amaliy sanʼatida eng muhim hisoblangan omil ustoz-shogird anʼanasi yotadi. Ushbu anʼana mumtoz sanʼat rivojining garovi sifatida azal-azaldan xalqimiz amaliyotida katta ahamiyat kasb etib kelgan. Ustoz-shogird anʼanasi negizi esa, ilm oʻrganish demakdir va unda bir qator saboq mezonlarini oʻtash taqozo etiladi. Jumladan:

- xonandalik sanʼati;
- ijrochilik sanʼati;
- ovoz imkoniyatlari va talqini bilan bogʻliq qonuniyatlar;
- matn hamda talaffuz masalalari;
- soʻz va ohang;
- ijro madaniyati;
- repertuar tanlash asoslari².

Ustoz-shogird anʼanasining ushbu jihatlari oʻtmishdan xonandalar ijrochilik anʼanalarida shakllangan va mukammal talqin uchun zarur

¹ С.Бегматов. Ҳофизлик санъати. – Тошкент: Ўзбекистон давлат консерваторияси нашриёти, 2007. 134 б.

² С.Бегматов. Ҳофизлик санъати. – Тошкент: Ўзбекистон давлат консерваторияси нашриёти, 2007. 134 б.

bo'lgan iste'dod, saboq va mahoratlarining amaliyotda sinalgan mezonlariga aylangandir. Shu bois bo'lsa kerak, musiqa san'ati, azaldan ijrochilikning mavjud barcha sohalarida ibratli tarmoq ekanligini namoyon etib kelgan.

Ustozning vazifa, majburiyat va xuquqlari:

- ustoz o'z shogirdida Vatanga muhabbat va sadoqat, umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizga hurmat, insonparvarlik va mehnatsevarlik hissini yanada kuchaytirib, jamiyatimizda yuz berayotgan o'zgarishlarni to'g'ri anglagan xolda o'z sohasi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishishda amaliy va uslubiy yordam ko'rsatib boradi.

- doimiy tarzda o'z shogirdining fanlarni o'zlashtirishi, tanlangan mutaxassisligi bo'yicha izlanishlarini, dunyoqarashi va qiziqishlarini o'rganadi va tahlil qiladi hamda o'quv jarayonini tashkil etish ishlarini shogirdi bilan birgalikda loyihalashtiradi. Shogirdlarga talaba sifatida ularning vazifa va xuquqlari, bo'lajak mutaxassis sifatida qo'yiladigan talablar, Oliy ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalari va oliy ta'lim muassasa bilan tuzilgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni tanishtirib boradi va ularga amal qilishga ko'maklashadi.

- shogirdlarning qobiliyatlari, qiziqishlari va intellektual imkoniyatlarini o'rgangan holda ularga ilmiy-tadqiqot mavzusini tanlashda yordam beradi.

- shogirdlariga tadqiqot mavzularini belgilashda zarur maslahatlarini beradi. Shogirdlarining oliygohda ta'lim olishi muddati davomida tanlangan mavzusi bo'yicha reja asosida muntazam ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi.

- shogirdlarini ilmiy faoliyatga tayyorlaydi, ularning mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil qilad;

- shogirdlariga ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tizimli rejalashtirishda, maqsad va vazifalarini, tadqiqot metodlarini

belgilashda hamda axborot manbalari bilan ishlash, ma'lumotlar yig'ish, ularni tahlil qilish, umumlashtirishda yordam beradi;

- shogirdlarida ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish ko'nikmalarini tarbiyalaydi;

- shogirdlarida ilmiy faoliyatni ilmiy-ijodiy tashkil qilish, ishni aniq rejalashtirish, tizimli loyihalashtirish, faoliyat davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan ko'ra bilish va ularni bartaraf qilish yo'llarini mustaqil izlash, to'g'ri xulosalar qilish, mehnat samarasini ta'minlash kabi sifatlarni shakllantiradi;

- mustaqil tadqiqot ishlarini tashkil qilishda shogirdlarining ilmiy-amaliy manbalar bo'yicha ishlarini to'g'ri yo'naltirishga e'tibor qaratadi;

- shogirdlari bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib boradi, eksperimental asos yaratish ustida ishlaydi;

- shogirdlari bilan fundamental va innovatsion yo'nalishlarda tadqiqotlar olib boradi;

- shogirdlarini faol jalb qilgan holda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan xalqaro va respublika grant tanlovlarida, ko'rgazmalarda ishtirok qiladi. Shogirdlarida kasbiy faoliyatni ilmiy asosda tashkil qilish, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonida qatnashish, mehnatni innovatsion tashkil qilish malakalarini rivojlantiradi;

- ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalarini bitiruv-malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi darajasida rivojlantirishga yordam beradi;

- shogirdlarning oddiy ta'lim muassasasi hayoti, tarixi, an'analari, fakultet va kafedralar faoliyatining ilmiy-tadqiqot izlanishlarining asosiy yo'nalishlari, jamoat tashkilotlarining faoliyati bilan muntazam ravishda tanishtirib boradi va mustaqil o'rganishlarini nazorat qiladi;

- har bir shogirdning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'z shogirdlarining malakali mutaxassis, yetuk inson va fidoiy vatanparvar bo'lib yetishishdan iborat bo'lgan yagona maqsad

atrofida jipslashgan o'zini-o'zi boshqaruvchi shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashadi. Shogirdlarini Oliy ta'lim muassasasi va fakultet jamoat ishlariga jalb etadi;

- shogirdlarining axloqli va odobli, ma'naviy barkamol bo'lib yetishishlariga ko'maklashadi;

- shogirdlari bilan birgalikda davra suxbatlari, ekskursiyalar uyushtiradi va bo'lajak mutaxassislarning vazifalariga doir boshqa tadbirlar o'tkazadi;

- shogirdlarini dunyoda yuz berayotgan voqea va xodisalarga, mamlakatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga, universitet va fakultet jamoalari hayotidagi voqealarga pozitiv munosabatlarini shakllantirishga, ularni mazkur masalalar bo'yicha mustaqil fikrga ega bo'lishlariga ko'maklashadi;

- sog'lom turmush tarzini targ'ib etadi, shogirdlarining turli xil ilmiy-texnik, ijodiy va badiiy to'garaklarda, sport seksiyalarida va musobaqalarida qatnashishlarini tashkil qiladi;

- shogirdlarning darslarga muntazam qatnashishlarini, kundalik va sessiyadagi o'zlashtirishlarini nazorat qiladi;

- a'lochi va faol shogirdlarini rag'batlantirish uchun tavsiyalar beradi, davlat stipendiyalariga tavsiya etadi, o'zlashtirish bo'yicha orqada qolayotgan shogirdlarni ogoxlantiradi, ular uchun kafedralar yordamida konsultatsiyalar uyushtiradi;

- talabalar turar joyida va xususiy (ijarada) xonadonlarda yashovchi shogirdlarining yashash sharoiti bilan tanishadi xamda ularning oilalari va ota-onalari bilan bevosita aloqa o'rnatadi;

- ichki tartib-qoidalarini buzgan, axloq va odob qoidalariga zid ish olib borayotgan, ustoz o'gitlari, pand-nasixatlariga yetarli e'tibor bermayotgan shogirdlari uchun javobgar shaxs sifatida ma'sul bo'ladi xamda oliy ta'lim muassasasi tuzilmalari bilan birgalikda ana shunday murakkab vaziyatlardan chiqish yo'llari, muammoni yechish bilan bevosita shug'ullanadi;

– shogirdlarining o‘quv jarayonini va maishiy masalalar, shuningdek ma’naviy va moddiy yordam ko‘rsatish xaqidagi shaxsiy iltimoslarini ko‘rib chiqadi va yordam ko‘rsatishga ma’sul bo‘ladi;

– universitet va fakultetlarning ustoz va shogird masalasiga bag‘ishlangan yig‘ilishlarida ishtirok etadi, ta’lim-tarbiya jarayoniga oid tajribalari bilan fikr almashadi, bu masalalar bo‘yicha o‘z takliflarini kiritadi;

– kafedradan shogirdlarining fanlar bo‘yicha darslarga qatnashishlari, reyting nazorati va test sinovlari natijalariga oid ma’lumotlar olish, ular bilan birgalikda o‘zlashtirishda orqada qolayotgan talabalarga konsultatsiyalar uyushtirish masalalarini xal etadi;

– talabalarni ishlab chiqarish amaliyoti va ish joylariga taqsimotida ishtirok etadi;

– talabalarning oliy ta’lim muassasasida o‘qishi davrida va undan keyingi hayoti mobaynida ham kasbiy va ijtimoiy taraqqiyot masalalari bo‘yicha xam ma’sul xisoblanadi.

3. Ustoz-shogird an‘analari vositasida o‘zbek an‘anaviy musiqa madaniyatining ma’naviy-tarbiyaviy asoslarini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik negizlari

Har bir jamiyatning rivojlanishida ta’lim tizimining rivojlanishi eng muhim rol o‘ynaydi. Shunday ekan, rivojlangan jamiyat qurish yo‘lidagi ustozlarning say harakatlari ham ta’lim tizimining sifat bosqichini yuqori saviyada bosib o‘tib, ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ta’lim jarayoni jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda asosiy mazmun beruvchi yana bir tizim “Ustoz-shogird” tizimidir. Bugungi kunda mustaqil fikrlovchi, ishonch-e’tiqodli shogirdlarni tarbiyalashda va zamon talabiga mos kadrlar yetkazib berishda bu tizim alohida o‘ringa egadir.

“Biz oldimizga qanday vazifa qo‘ymaylik, qanday vazifani yechish zaruriyati tug‘ilmasin, gap oxir-oqibat baribir kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi, o‘rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlarni tayyorlashga bog‘liqdir” – degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Darhaqiqat, har bir mashg‘ulot mazmunining kengligi va chuqurligi uning davlat talablariga muvofiqligi, shogirdlarning ta‘lim texnologiyalari va metodikaning to‘g‘ri usulini tanlashi va undan unumli foydalanishni talab etadi. Fikrimizdan kelib chiqqan holda, ustoz — shogird tizimi samaradorligining ortib borishini jadallashtirimiz zarur. Bu samaradorlikni esa, ustoz-shogird tizimida raqobat usullari orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, shogird ustozidan o‘zadi, degan xalq iborasi ham bejiz emas, albatta.

Ustoz dastlab shogirdga auditoriyani ko‘rishi, his qilishi, u bilan birga ishlashi kerakligini uqtiradi va darsning zerikarli bo‘lmasligiga harakat qilishi, o‘z darsiga shogirdi ko‘zi bilan qarashi lozim bo‘lgan barcha chora-tadbirlarni berishi ham mumkin. Ustozning bitta shogirdi bo‘lmaydi, uning yana boshqa shogirdlari ham bor bo‘lishi mumkin. Shu boisdan, u shogirdlari bilan birga ishlar ekan, ularning o‘quvchilar bilan munosabatini ko‘rishi, dars jarayonidagi ma‘lumotlarga to‘liq ega bo‘lishi va shogirdining imkoniyatlarini bilishi zarur. Raqobat usuli bu -shogirdni harakatga keltiruvchi usullardan, shogird o‘zining tajriba orttirishi zarurligini bilishi, o‘z ustida ishlashi uchun motivatsion ta’sir kuchiga ega.

Ustoz shogirdlariga strategik rejalar tuzish va maqsad sari intilishi uchun har qanday metodik yordam ko‘rsata oladi. Demak, shogirdlariga ustoz istiqbol yo‘lida albatta raqobat bo‘lishini ham tushuntirib boradi.

Ustoz shogirdi hayotda va faoliyatda raqobatga kirishishi va o‘zini ro‘yobga chiqarishi uchun eng muhim narsa bu – boshqa odamlar bilan samarali o‘zaro ta’sirga kira olish qobiliyati ekanligini amaliyotda ko‘rsata olishi lozim. Shogird har qanday raqobat holatida to‘g‘ri yo‘l

topa olish ko'nikmalarini va natijani to'g'ri aniqlay olish har bir kishidan rang-barang shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlarni talab qilishini bilib boradi.

Shogird natijada o'zining mustaqil harakat qilishida katta imkoniyatlarga ega bo'ladi. Demak, raqobat usullari shogirdni har tomonlama tayyor kadr bo'lib yetilishiga sabab bo'ladi. Ustoz-shogird munosabatlarida mustahkam pedagogik-psixologik ko'rsatmalar shakllanib borishi ham mumkin.

Ular quyidagicha ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- o'z xatti-harakatlari rejalarini shakllantirish;
- o'z rivojlanishini kuzatib borish;
- o'z rivojlanishini tushunish va foydalanilmagan imkoniyatlarni baholash;
- mentorlikning yangi malakalarini egallash;
- mentorlikning yangi usullari va metodlarini amaliy egallash;
- samarali rejalashtirish ko'nikmalari;
- suhbatdoshini tinglay olish malakasi
- maxsus qoidalarni bilish va boshqa odamlarni tushunish.

Abu Nasr Farobiy ustoz o'qituvchiga shunday talab qo'yadi: "Ustoz shogirdlariga katta zulm ham xaddan tashqari ko'ngilchanglik ham qilmaslik lozim." Chunki ortiqcha zulum shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi-yu, ustoz juda ham yumshoq bo'lsa shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovub ham qoladi. U o'qituvchiga bolalarning fe'l atvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullardan foydalanishni maslaxat beradi. Uning fikricha:

1. Tarbiyalanuvchilar o'qish-o'rganishga moyillik bildirsa, ularga ta'lim tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi.
2. Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha itoatsiz bo'lsalar, qattiq usul (majburlov) qo'llaniladi.

Abu Ali ibn Sino jahon madaniyatiga katta xissa qo'shgan mashhur ensiklopedist olim, tabiatshunos, faylasuf, astronom,

matematik, musiqashunos, xuquqshunos, filolog, yozuvchi va shoir. Yevropada Avitsenna nomi bilan mashxur bo'lgan Ibn Sino jahon fani taraqqiyoti tarixida muxim rol' o'ynaydi,

Ibn Sinoning gumanistik ta'limida birinchi masala inson kamolotidir, insonni olamdagi mavjudodlardan yuqori qo'yishdir.

Ibn Sinoning ta'lim va tarbiya sohalaridagi boy meros o'z davrida jaholatiga qarshi kurashda juda katta progressiv ahamiyatga ega bo'ldi. Buyuk alloma Ibn Sino bolaga bilim berish ustozning ma'suliyatli burchi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish, berilayotgan bilimning bolalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish kabilar muhimdir.

XI asrda yashab o'tgan allomalardan biri Yusuf Xos Xojib ham o'z ijodida ilm axillarini, ustozlarini ulug'laydi. "Kutadg'u bilig" asarida ilm axli ulug'lanadi. Uning yozishicha:

Tag'in bir toifa donishmand dono; *
Ular ilmi elga mash'al doimo.
E'zozla ularni to bor imkoning,
Bilimlarin o'rgan toki bor oning,

Bulardir xaqiqat tayanch tirkaging
Bilimli diyonat asos o'zagi.
Olimlar yo'q esa edi dunyoda,
Kelishi ham kulurmi edi bunyoda.
Ular ilmi bo'ldi xaloyiqqa nur
Erisa bu nurdan kimi yo'l topur.

Abu Rayxon Beruniyning qarashlari progressiv mazmun kasb etadi. Mutafakkirning gumanistik qarashlarida rostgo'ylik bilan adolat himmatga ega bo'lgan sifatlardir. Olim xulqlarni yaxshi va yomon xulqlar deb 2 qutbga bo'lib ko'rsatadi. Uning fikricha yaxshi xulqlar - rostgo'ylik, adolat, mardlik, botirlik, himmat va shu kabilardir. Bu haqida u shunday deydi: hammaning tabiatida adolat bevosita sevimli

va hamma uning yaxshiligiga qiziqadigan bo'lgani kabi rostguylik xam shunday; lekin rostguylikning shirinligini tatimagan yoki shirinligini bilsa xam, totishni istamaydigan kishi uni sevmaydi:

Umar Xayyom - o'zining jahonshumul ilmiy asarlari bilan emas, nozir poetik asarlari ruboiylari bilan olamga mashhur bo'ldi. Umar Xayyom insonni ulug'laydi, uni dunyodagi eng oliy mavjudot sifatida qo'llaydi. Umar Xayyom dunyoqarashida inson va uning xayoti muammolari, inson xayoti bilan bog'liq bo'lgan tashvishlar, gumanizm masalalari markaziy o'rin egallaydi.

Az-Zamaxshariy «Nozik iboralar» risolasida ilmi fan axillari ustozlarga nisbatan hurmat-e'tiborning pasayib ketganidan kuyunib yozadi. «O'tgan zamonlarda ilmu-fazilat sohiblari podshoxlaridan o'z og'irliklariga barabar oltin hadya olardilar, asta-sekin zamonlar o'tishi bilan ularning qiymatlari kamayib itlari, olmaxonlar ulardan afzal bo'lib qoldi, ya'ni nodonlar oltinlardan ortiq ko'riladigan bo'lib qoldi».

Sharq mumtoz madaniyatining butun dunyoga mashhur namoyondalaridan biri Sa'diy Sheroziy ta'lim-tarbiyada muallimning talabchanligi bilim va tarbiya berishda qattiqqo'llik bo'lishining tarafdori bo'ladi. «Guliston» da ustoz-shogird munosabatiga oid xikoyat keltiriladi: «Bir odam kurash san'atida zo'r mahorat qozondi, u 300 xiylandi bilar va har kuni bir xiylandi ishlatib kurashar edi. Shogirdlaridan biriga 259 xiylandi o'rgatdi. Ammo bir xiylandi o'rgatmadi. Ustozning hurmatini bilmagan shogird ustozidan ham ustunligini aytib maqtanadi. Bu so'z podshoga yoqmaydi. Ular kurash tushmoqlarini buyuradi. Ustoz oxirgi xiylandi ishlatib shogirdini yengadi. Ustoz xurmatini bilmagan shogird esa xaloyiq va podshoxning nafratiga uchraydi».

Ustozga nisbatan hurmatda bo'lishning ifodasi shuki, shogird muallimdan oldin yurmaslik uning o'rniga borib o'tirmasligi lozim. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilar muallimdan uzoq bo'lmasinlar, ular orasi o'k-yoy oralig'ida bo'lsin, mana shunda ilmga intiluvchilarni o'z ustozlariga hurmati ma'lum bo'ladi.

Sohibqiron Amir Temur ham o‘z hukmronligi davrida ilm ahillari, muallimlarga hurmat bilan qaraydi. Kishilarga mansab berishda ham ularning ilmlarini hisobga oladi. Jamiyatning rivojida ularning o‘rni muhim deb biladi. Ko‘plab madrasalar ochadi ularga muallim va mudarrislar tayin etadi, o‘zining ustozlarini ham juda qadrlaydi.

Alisher Navoiy o‘zbek xalqining yetuk shoir va mutafakkiri, ulug‘ olim va davlat arbobi, jahon adabiyotining siymolaridan biri. Shoir butun hayoti va faoliyatini insonning baht-saodati uchun kurashga, xalqning san’at va adabiyot taraqqiyotiga bag‘ishladi.

Alisher Navoiy ijodida ham muallimlar ishi ularga munosabat masalalariga keng o‘rin beriladi. U yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar mudarrislar hamda ustoz murabbiylarning o‘zlari ham bilimli va tarbiyali bo‘lishi zarurligini uqtiradi. U nodon mutaassib johil domlarni tanqid etadi va o‘qituvchi ma’lumotli o‘qitish yo‘llarini biladigan muallim bo‘lishi zarur deydi.

Xaq yo‘lida kim senga bir xarf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning xaqin yuz ganch ila.

Husayn Voiz Koshifiy o‘z asarlarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to‘xtaladi: «Agar shogirdlikning binosi nimani ustiga quriladi deb so‘rasalar ibodat ustiga deb javob bergin. Agar ibodat nima deb so‘rasalar samo’ va toatdir deb aytgin. Agar samo’ etish va toat nima deb so‘rasalar nimani ustoz aytsa uni jon qulog‘i bilan eshitish, chini bilan qabul qilish va vujud a’zolari orqali amalda ado etishidir deb ayt».

U shogirdlikning 8 ta odobini ko‘rsatadi:

1. Birinchi bo‘lib salom berish.
2. Ustozning oldida oz gapirish.
3. Boshni oldinga egib turish.
4. Ko‘zni har tomonga yugurtirmaslik.
5. Gap so‘ramoqchi bo‘lsa oldin ustozdan ijozat olish.

6. Ustoz javobiga e'tiroz bildirmaslik.
7. Ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik.
8. O'tirib turishda hurmat saqlash.

Koshifiy ustozlik shartlarini xam ko'rsatadi: «Bilgilkim xech bir ish ustozsiz amalga oshmagay va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa ul ishni asosi mustahkam bo'lmagay».

Pedagogik malaka bilim va ko'nikmalar faoliyatning ma'lum turini egallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir. Ustoz faoliyatiga oid bunday malakalarga quyidagilar kiradi.

A) Amaliy konstruktiv malakalar:

1. Amaliy tarbiyaviy ishlarini rejalashtirish, faoliyatning eng muhim qoidalarini anglay bilish.
2. Har bir o'quvchiga nisbatan uni jamoa sharoitida tarbiyalashning individual dasturini tuzish.
3. O'quvchilarning yoshlik va shaxsiy xususiyatlarini xisobga olgan holda, ularga nisbatan individual munosabatni oshirish.

B) Tashkilotchilik malakalari:

1. O'quvchilar orasidagi faol bolalarni aniqlay bilish, tanlay bilish va ularni idrok qilish.
2. O'quvchilarning turli xildagi jamoa, individual faoliyatini uyushtira bilish va ularni ijtimoiy faolligini bilish.
3. O'quvchilarga berilgan ijtimoiy topshiriqlar berilishi yuzasidan nazorat o'rnatish va ularga zarur vaqtda amaliy yordam berish.
4. Ota-onalar, keng jamoatchilik o'rtasidagi ishlarni bilish. o'quvchilarga talablar qo'yish metodlari quyidagilar dan iborat: o'quvchining axloq qoidalarini, barcha predmet bo'yicha bilimlarni baholash, o'qitishdagi burch va ma'suliyatni bilish, mashq qilish, o'quvchilarni mehnat qilishga o'rgatishdan iboratdir.

Ustoz oldiga qo'yilgan talablar:

1. Faoliyatning aniq maqsadlarini shogird his qilsin.

2. Faoliyatni amalga oshirish shogird tashabbusi va ijodiy faollikka bogʻliq. Bunda ishni taqsimlash, rejalash, xisobga olish, natija chiqarish kabilarni shogirdlarning oʻzlariga havola qilish lozim.

3. Ustoz faoliyatga pedagogik rahnamolik qiladi, shogirdlarning ijodiy odatlarini shakllantiradi.

4. Faoliyat jarayonida har bir shogird ijrochilik malakasiga ega boʻladi.

5. Ish natijasini muhokama qilish, shogirdlarni ragʻbatlantirish.

Ustoz shaxsiy xususiyatlaridan tashqari chuqur ilmiy saviyaga, soʻzlash madaniyatiga, yuksak odob axloqli boʻlishi kerak. Shogirdlar bilan oʻtkaziladigan suhbatlarni yuqori saviyada tashkil qilishda, ustoz quyidagi madaniyat qirralariga ega boʻlishi kerak.

Ruhiyat madaniyati - shogirdning maʼnaviy ehtiyojlariga toʻgʻri taʼsir koʻrsatish.

Mahorat madaniyati - har bir tadbirni zoʻr quvonch va qalbdan tashkil qilish.

Siyosiy madaniyat - davr talabiga mos iqtisodiy, ijtimoiy bilimga ega boʻlish.

Maʼnaviy madaniyat - shogirdlarning ijodiy, maʼnaviy, badiiy faoliyatini tashkil qilish.

Kasbiy qobiliyatning asosiy turlari. Pedagogik faoliyatning samarali boʻlishi, pedagogik mahoratga erishish uchun ustozda quyidagi qobiliyat turlari mavjud boʻlmogʻi lozim.

1. Bilish qobiliyati - fanni tegishli soxalariga oid qobiliyatidir. Bunday qobiliyatga ega boʻlgan ustoz fanni oʻquv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, oʻz fani soxasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi.

2. Tushuntira olish qobiliyati - oʻquv materialini oʻquvchilarga tushunarli qilib bayon etish, oʻquvchilarda mustakil ravishda faol fikrlashga qiziqtirish.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati - tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati. Oʻquvchi shaxsni va uning vaqtinchalik

ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'lik bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.

4. Nutq qobiliyati - nutq yordamida shuningdek imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - o'quvchilar jamoasini uyushtirishi, o'quvchilarni muhim vazifalarni xal etishga ruhlantirish nazarda tutiladi.

6. Obro' orttira olish qobiliyati - bevosita ematsional, irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda tarbiya berish ma'suliyatini his etish, o'zini xaq ekanligiga ishontirish.

7. Kommunikativ - to'g'ri muomala qila olish, o'zaro munosabat o'rnatish bilish pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

8. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati - o'z harakatlarining natijaviyligini ta'minlash.

Ustoz qiyofasi professiogrammasi

Ustoz uchun zaruriy bilimlar:

- pedagogika va psixologiya fanining metodologik asoslarini egallash;
- o'quvchi rivojlanishining psixologik, fiziologik xususiyatlarini bilish;
- dars o'tishning pedagogik-psixologik yo'llarini bilish;
- tarbiyaning mohiyati, uning maqsad, vazifalari va metodlarini bilish;
- turli sinf o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlar olib borish metodikasini bilish;
- fan va madaniyat sohasida umumiy bilimlarni egallab borish;

Ustoz uchun zarur bo'lgan malakalar.

Amaliy - konstruktiv malakalar:

- tarbiyaviy ishlarni rejalashtira bilish;
- o'quvchi shaxsini jamoa sharoitida tarbiyalanishining individual rejasini amalga oshira bilish;

– har xil rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilar tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish.

Tashkilotchilik malakalari

– o‘quvchilarning jamoatchilik faoliyatini uyushtira bilish, ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirish;

– tashkiliy ishlarini faol amalga oshira bilish;

– o‘quvchilarga berilgan jamoa topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish va amaliy yordam bera bilish;

– jamoatchilik va ota-onalar o‘rtasidagi ishlarni tashkil eta bilish.

Kommunikativ malakalar

– o‘quvchilar, ota-onalar, o‘qituvchilar va jamoatchilik vakillari bilan munosabat va aloqalar o‘rnatish;

– o‘quvchilar fikrini tushunish va o‘z fikrini nutq, til vositalari orqali tushuntira bilish;

– o‘quvchilar jamoasini, qiziqishlarini, ichki munosabatlarini idora qila bilish;

– o‘quvchilar bilan yaqin munosabatda bo‘lish va ularda o‘ziga nisbatan mehr-ishonch, hurmat kabi xislatlarni uyg‘ota bilish.

Kasbiy sifatlar:

– bilimdonlik;

– fuqorolik burchini anglash;

– talabchanlik;

– pedagogik nazokat;

– kuzatuvchanlik, ziyraklik;

– nutq madaniyati;

– kasbga etiqodlilik;

– adolatlilik;

– o‘zini tuta bilish;

– vazminlik, sabr-toqatlilik;

– amaliy psixologik aql;

– aniq ifodali o‘qish;

– tasir eta olish;

- kasbiy layoqatlilik;
- ijodiy hayol-kelajakni ko‘ra olish.

Shaxsiy sifatlar:

- bolalarni sevish;
- ijtimoiy hayrat;

Nazorat uchun savollar:

1. *Ustoz-shogird an‘analari deganda nimani tushunasiz?*
2. *Sharq allomalarining ustoz-shogird an‘anasi yuzasidan qanday fikrlarini bilasiz?*
3. *Mutaxassislik sinfida muallimning o‘z shogirdlarini har tomonlama kamol toptirishdagi ma‘suliyatini gapiring.*
4. *Chogirdlarining shakllanishida ustozning shaxsiy namunasi qanday bo‘lmog‘i kerak?*
5. *Bo‘lg‘usi ustoz-muallim o‘z ustida qay tarzda ishlashi lozim?*
1. *Sozandani kasbga tayyorlashda bolalar musiqa va san‘at maktablari boshlang‘ich asos bo‘la oladimi?*

Mustaqil ta‘lim uchun topshiriqlar:

1. Sharq allomalarining ustoz-shogird an‘alari yuzasidan fikrlariga munosabat bildiring.
2. Shogirdlikning 8 ta odobini tavsiflab bering
3. Ustoz faoliyatiga oid qo‘yilgan malakalar haqida fikrlaringizni bildiring.

Foydalanish uchun adabiyotlar.

1. O.Matyoqubov, “Maqomot” Toshkent, 2004 yil.
2. O‘.Rasulov, “An‘anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi” Toshkent, 2006 yil.
3. I.Rajabov, “Maqomlar masalasiga doir”, Toshkent, 1963 yil.

4. A.Nazarov, “Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida” Toshkent, 1995 yil.

1.7. Cholg‘u ijrochiligining uslubiy va musiqiy pedagogik muammolari

Reja:

1. Ijro mahorati ustida ishlashning umumiy yo‘llari.
2. Musiqiy asarlar ustida ishlashning umumiy yo‘llari.
3. Ta’limning turli bosqichlarida dars o‘tish uslubi.
4. Uy vazifasini mustaqil bajarishni to‘g‘ri tashkil qilish.

Kalit so‘zlar: *xalq cholg‘ulari, cholg‘uchi, tanbur, nay, sao, tutek, kaval, sibizga, ney, deka, rezanator, maqom, lad.*

1. Ijro mahorati ustida ishlashning umumiy yo‘llari

Musiqiy pedagogika tajribasida o‘quvchining musiqiy va ijrochilik jihatlarini bir-biri bilan bog‘lagan holda rivojlantirish muhim shartlardandir. Ularni farqini bilish uchun avval ijrochilik mahoratiga oid jihatlarini ko‘rib chiqamiz. Bularga:

- a) ijrochi lablarining ishi;
- b) ijrochilik nafasi;
- v) tilning harakati;
- g) barmoqlar harakati va ularni rivojlantiruvchi omillar kiradi.

Ushbu omillar ham turlicha bo‘lib, birinchi navbatda ularni rivojlantirish uchun puflama va kamonli cholg‘ularda cho‘zimli tovushlarni, mezrobli va nohunli cholg‘ularda bidratma ijrolarni har kuni ertalab chalish maqsadga muvofiqdir.

Mashg‘ulotning birinchi kuni har bir tovushni ff da

Ikkinchi kuni pp ff pp

Uchinchi kuni pp da chalish zarur

Mashg‘ulotning birinchi kuni har bir tovushni ff da

Ikkinchi kuni pp ff pp

Uchinchi kuni pp da chalish zarur

Mashg'ulotning birinchi kuni har bir tovushni ff da

Ikkinchi kuni pp ff pp

Uchinchi kuni pp da chalish zarur

Maqom pardalari asosida tuzilgan musiqiy bo'laklar. Gamma, turli mashqlar, ya'ni gammalar, arpedjio, uch tovushliklar va ularning aylanmalari tushuniladi.

Ijrochilarda ko'p yillik o'qish va o'qitish tajribalari davomida gammalar chalish tamoyillari shakllanib qoladi va ular o'z an'alariga ega. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

a) gammalarning turlari diatonik, major, minor, tabiiy, garmonik, melodik, xromatik va butun tonlardan tuzilganlari;

b) maqom pardalarida tuzilgan zamzama, gulpartav, qochirim, nola, molish va shu kabi melizimlarni har xil aylanishlari turli pardalarda qilinganlari;

v) mashq chalishda cholg'u asbobining to'liq tovush ko'lami (diapozoni)ni qamrab olinishi;

g) har xil ritmik ko'rinishda, ya'ni gamma ikki oktava chalinsa kvartollar bilan, ikki yarim yoki uch oktava chalinsa triollar bilan shakllanishi;

d) evropa musiqy tili bilan aytganda gammalarni detache, legato, staccato, marcato, portato kabi turli shtrixlarda ifodalash;

e) f, p, sf, fp kabi har xil dinamik belgilar bilan chalish;

j) turli barmoq bosishdagi ijrochilik holatlarini qo'llagan holda chalish bilan ijrochilik mahorati rivojlantiriladi.

Mashq chalishning yuqorida ko'rsatilgan tamoyillari O'zbekiston Davlat konservatoriyasi professori, R.Qosimov, I.Toshpo'latova, R.Samadovlarning o'quv qo'llanmalarida yoritilgan.

Mashq chalishdan asosiy maqsad tovush intonatsiyasining tozaligi va sofligini yaxshilash ustida ishlash, zarblarning tezligini oshirish, nafas texnikasini rivojlantirish, shtrixlarni aniq shakllantirish, izchil

tovushlarning usul jihatidan bir tekisda, ravon mutanosib kelishini ta'minlashdan iboratdir.

Ijrochilik mahoratini rivojlantirishda nafaqat gammalar balki mashqlarning ham ahamiyati katta bo'lib, bunda intervallari keng, sakrashli, barmoqlar uchun noqulay barmoqlarning ijrochilik holatini o'zlashtirish, murakkab usulli aylanmali, har xil bezaklarni qo'llash uchun mo'ljallangan mashqlar katta rol o'ynaydi.

Shuningdek, badiiy ijrochilik maqsadini ko'zlab ijod qilingan mashqlar ham ko'plab uchraydi. Mashg'ulotlar davomida ustoz shogirdiga mashqlarning asosiy uslubiy yo'nalishini aniq belgilab, ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda bastalanganligini tushuntirishi lozim. Bunda ijrochilik mahorati badiiy asarning mazmunini ochishdagi maqsad emas balki vosita ekanligini o'quvchilar tushunib yetmog'i kerak.

O'quvchining mustaqil tayyorlanishida ijrochilik texnikasini rivojlantiruvchi mashg'ulot uchun vaqtni to'g'ri taqsimlashi ham katta ahamiyatga ega.

2. Musiqiy asarlar ustida ishlashning umumiy yo'llari

Har bir sozandaning musiqiy asar ustida ishlashi o'ziga xos bo'lib, ushbu jarayonga har kim o'zicha yondoshadi. Ammo musiqiy asarlar ustida ishlash jarayonining yillar davomida shakllangan barcha uchun umumiy tomonlari mavjud. Buni asosan uch bosqichga taqsimlash mumkin.

Birinchi bosqich – musiqiy asar bilan tanishuv va ijrochilik rejasini shakllantirish bo'lib, ustozona tajribaga asoslanadigan bo'lsak, dastlab asar bilan tanishib umumiy tasavvur hosil qilinadi. Undan keyin esa ijrochilik rejasi shakllanadi. Ijrochilik rejasi quyidagilarda o'z aksini topadi.

Ob'ektiv yondashuv:

a) asarnig qaysi turga mansubligi janri (xalq kuylari, bastakorlik asarlari va h.k.);

b) asar tonligini aniqlash;

v) uning shakli (xalq kuylari, maqom shoʻbalari va h.k.);

g) qismlarining qiyofasi (obrazi) va xarakteri (quvnoq, gʻamgin, qaxramonona, hazil va h.k.);

d) mazkur asarni chalishda shakllangan anʼanalar

Subʼektiv yondashuv:

a) talabaning ijrochilik temperamenti (ichki usulni ushlab turish, ijrodagi sabr, asarlarni chalishga moyilligi);

b) talabaning obrazli fikrlashi va ijodiy hayoloti;

v) talabaning asarga boʻlgan munosabati (u bilan qiziqishi, uning haqida koʻp narsani bilishi, befarqligi).

Shuningdek, yangi asarni oʻrganishda oʻqituvchining tutadigan yoʻli, oʻqituvchi va talaba fikrining bir maqsadga yoʻnaltirilishi katta ahamiyatga egadir.

Ikkinchi bosqich – asarni ijro qilish rejasini amalga oshirishga qaratilgan boʻlib, eng muhim bosqich hisoblanadi. Bunda kuy matni aniqlanadi, asosiy ijrochilik va badiiy vositalar koʻrib chiqiladi. Chunki oʻsha vositalar yordamida asar mazmuni va mohiyati ochib beriladi. Musiqiy asarlar ustida ishlashda kuy rivoji va undagi jumlar, davriyalar, avjlar (kulminatsiya), kuy qismlari va boshqa tayanch nuqtalar aniq belgilanadi. Ularning qaysi biri yetakchi yoki yordamchi boʻlishi musiqaning xarakteri va vazifalariga bogʻliq. Shuningdek asarning texnik jihatdan sadolanishi, murakkab va qiyin joylari belgilanib olinadi va boʻlaklarga boʻlib nota bilan xususiylikdan umumiylikka va umumiylikdan xususiylikka qarab xatosiz oʻrganiladi.

Ushbu jarayonda oʻz ijrosini eshitgan holda tanqidiy baholash, qiyin joylarini sekin surʼatda chalish tavsiya etiladi. Ayniqsa texnik jihatdan murakkab boʻlaklarini turli shtrix va artikulyatsiyalar vositasida chalish katta yordam berishi mumkin.

Sozanda kichik bo‘laklar ustida qancha vaqt qunt bilan ishlamasin, asarni bir butunligini hech qachon esdan chiqarmasligi kerak va ba’zida butunligicha chalib tasavvurini yanada boyitib borishi maqsadga muvofiqdir. Butun ijro davomida esa meyor tushunchasi ustoz va shogirdning diqqat markazida bo‘lmog‘i lozim.

Uchinchi bosqich – musiqiy asar ustida ishlashning yakuniy bosqichi bo‘lib, asarni badiiy maqsadlarini, uning qismlarini, jo‘r bo‘luvchi ko‘p ovozlarni chuqur o‘rgangan holda yod olish, badiiy vazifaning pirovard natijalarini aniqlash va o‘rganilgan qismlarni bir butun holga keltirish «yig‘ish» va ijro ifodasini takomillashtirishdan iborat. Bunda usul jo‘rligi, ayniqsa jo‘rnavoz bilan hamohang bir-birini chuqur his qilgan holdagi umumiy bir butun ijroni amalga oshiruvchi bosqich hisoblanadi.

Bu bosqichda muallim mazkur asarni chuqur bilishi, uni ba’zi murakkab joylarini yengillashtirishga harakat qilmasligi lozim. Chunki ba’zi o‘qituvchilar asarning ma’lum bir murakkab qismi yoki namudini o‘quvchi eplay olmasa olib tashlaydilar (kupyur qiladilar), avjsiz yoki ana shu qismisiz kuylatadilar yoki chaldiraveradilar. Bunday ijroni to‘laqonli bir butun asar ijrosi deb bo‘lmaydi.

Asarni yod olish jarayonida musiqiy xotiraning barcha turlari: eshitish, ko‘rish, sezgi-harakat, mantiqiy va «qalbdan» yod olish turlari ishga solinadi.

Yod olingandan keyin esa yanada ishonchli bo‘lishi uchun nota matnidan ham chalib ko‘rish, asar magnit yozuvini eshitib tanqidiy baholagan holda xotirada saqlash, boshqa tonlikka ko‘chirilgan (transpozitsiya) holda chalib ko‘rish maqsadga muvofiqdir. To‘g‘ri kelgan – kutilmagan joyidan sinab chalib ko‘rish orqali asar xotirada mustahkamlanadi.

Musiqiy asarlar ustida ishlashda asarning shakli qanday bo‘lishidan qat’iy nazar yuqoridagi tamoyil va bosqichlarga asoslanadi.

3. Ta'limning turli bosqichlarida dars o'tish uslubi

Qadim-qadimlardan barcha xalqlarda sozandani tarbiyalab yetishtirish juda murakkab ish bo'lib, yakka holda, ustoz-shogird uslubida olib borilgan. Ayniqsa sharq xalqlarida bunga katta e'tibor bilan qaralgan. Ushbu an'ana asrlar sinovidan o'tib bizgacha yetib kelgan va hozirgi davrda ham eng samarali o'ziga xos uslub sifatida tan olingan.

O'qituvchining yakka holda dars o'tishi, ya'ni har bir o'quvchi va talabaga alohida yondoshishi, individual shaxsni tarbiyalash, uni har tomonlama kamol toptirish ustozdan juda katta ma'suliyatni talab qiladi. Shuning uchun ham u darsga tayyorlanishi va darsni rejalashtirishi juda muhim jarayon hisoblanadi. Bunda u qo'l ostidagi adabiyotlar va musiqiy yozuvlarni (disklar, audio yozuvlar) ko'zdan kechirishi va lozim bo'lsa tahrir qilishi kerak. Har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda uslubiy va nota adabiyotlarini ko'rib chiqishi zarur. Mashg'ulot jarayoni esa quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi:

- a) uyga berilgan vazifani tekshirish;
- b) yangi o'rganiladigan asar yoki avvalgi darslarda boshlangan kuyning davomi bilan tanishish;
- v) uy vazifasi ustida mustaqil ishlash yo'l-yo'riqlarini o'qituvchining o'zi chalib ko'rsatishi maqsadga muvofiqdir.

Darslarda turli sinf va bosqich o'quvchilari tinglovchi sifatida qatnashishi ularning pedagogik malakasi, saviyasi va mustaqil fikrlashini yanada oshiradi. Ayniqsa «Muammoli o'qitish» ya'ni asar mazmunini mustaqil talqin qilishda talabaning erkin musiqiy fikrlashini shakllantirish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir.

Hech bir ilg'or uslub, darslik yoki dastur darsni samarali va qiziqarli olib boradigan o'qituvchining o'rnini bosa olmaydi albatta. Shuning uchun ham sozandani va umuman insonni tarbiyalashda o'qituvchi-ustozning o'ni beqiyos. Ijodiy sohada, ayniqsa musiqiy

yoʻnalishda oʻqituvchi va uning dars oʻtish uslubi taʼlimning oxirgi natijalariga hamda yetkazib chiqarayotgan shogirdlarining sifatiga qarab belgilanadi.

4. Uy vazifasini mustaqil bajarishni toʻgʻri tashkil qilish

Barcha hunar sohiblari qatori boʻlgʻusi sozanda agar oʻz hunarini puxta egallamoqchi va uni sanʼat darajasiga yetkazmoqchi boʻlsa, asosiy mashgʻulotlardan keyin uyda har kuni mustaqil ravishda mutaxassislikdan kamida toʻrt soat dars tayyorlashi maqsadga muvofiq. Mustaqil mashgʻulotlarni toʻgʻri tashkil qilinishi esa berilgan vazifaga ongli yondoshish va mashgʻulotlar izchilligidan kelib chiqadi.

Taʼlimning dastlabki davrlaridan boshlab talabalarni mustaqillikka, topshirilgan vazifani katta masʼuliyat bilan bajarishga va shaxsiy tashabbusini rivojlantirishga oʻrgatish ijodkorlikka va mehnatsevarlikka olib keladi. Bunda uyda tayyorlanadigan dars sinfda oʻtkazilgan mashgʻulotning davomi ekanligini oʻquvchi chuqur anglab yetishi, uning vaqti va davomiyligini talabaning oʻzi mustaqil rejalashtirishi hamda undan samarali foydalanishi zarur. Shu bilan birga mashq qilish va dam olishni toʻgʻri tashkil etish ham katta ahamiyatga ega.

Talaba uydagi mashgʻulotlari paytida mashhur ijrochilar, ansambllarning turli yozuvlarini toʻplashi va eshitib borishni ham unutmasligi kerak.

Shuningdek, oʻz ijrosini magnitofonga yozib olib, uni tanqidiy tahlil qilishi, xatolarini toʻgʻrilab, koʻngildagidek chiqqunicha takror yozishi maqsadga muvofiq. Uy vazifasini bajarilishida muallimning ota-onalar bilan doimiy aloqasi juda muhim boʻlib, ular birgalikda oʻquvchining uyda muntazam dars tayyorlashini nazorat qilib borishlari katta samara berishi shubhasiz.

Milliy cholgʻular kafedrası talabasi faqat mutaxassislikdan kuniga taxminan toʻrt soat mashq qilsa, vaqtni quyidagicha taqsimlashi

mumkin: 25-30 minut cho‘zimli tovushlarni chalishi; 45 minut mashq va zamzamalar; 45 minut yirik shakldagi mashqlar; 30 minut ansambl asarlarini qiyin joylari ustida ishlash; 1 soat 30 minut badiiy musiqiy asarlar ustida ishlashi maqsadga muvofiq. Bunday mashq qilish talaba xohishiga va muallim maslahatiga ko‘ra ko‘proq ertalab ovqatlanganidan keyin yarim soat, 45 minut o‘tgach, asosiy mashg‘ulotlarga (7.00 dan 9.00 gacha) texnik mashg‘ulotlar va kunning ikkinchi yarmida yoki kechqurun ansambl kuylari va badiiy asarlar ustida ishlagani ma’qul.

Nazorat uchun savollar:

1. *Nazorat uchun savollar:*
2. *Ijrochilik mahorati deganda nimani tushunasiz?*
3. *Mashq chalishdan asosiy maqsad nima?*
4. *Mashqlarning ijrochilik mahoratini rivojlantirishda qanday o‘rni bor?*
5. *Ijrochilik mahoratini rivojlantiruvchi mustaqil mashg‘ulot uchun vaqtni qanday taqsimlash kerak?*
6. *Musiqiy asarlar ustida ishlashning nechta bosqichi mavjud?*
7. *Ijrochilik tafakkurining shakllanishi haqida gapiring.*
8. *qanday qilib o‘qituvchi va o‘quvchi fikri bir maqsadga yo‘naltiriladi?*
9. *Asarni ijro qilish rejasi qay tarzda tuziladi?*
10. *Ijrochilik fikrini amalga oshirish jarayoni qanday davr?*
11. *Xususiylkdan umumiylikka va umumiylikdan xususiylikka qarab borish deganda nimani tushunasiz?*
12. *Musiqiy asarlar ustida ishlashda kuyning tayanch nuqtalari qanday aniqlanadi?*
13. *Musiqiy asar ustida ishlashning yakuniy bosqichi nimadan iborat?*
14. *Sozandaga yakka dars o‘tishning o‘ziga xosligi va afzalliklari haqida gapiring.*

15. *Mashg'ulot jarayoninining uch bosqichi nimalardan iborat?*
16. *Darslarda boshqa sinf o'quvchilarini tinglovchi sifatida qatnashishiga qanday qaraysiz?*
17. *Muammoli o'qitishdan maqsad nima?*
18. *qaysidir bir ilg'or uslub, darslik yoki dastur mashg'ulotni samarali va qiziqarli olib boradigan o'qituvchining o'rnini bosa oladimi?*
19. *O'qituvchi va uning dars o'tish uslubi nimaga qarab baholanadi?*
20. *Berilgan vazifaga ongli yondoshish va mashg'ulotlar izchilligi deganda nimani tushunasiz?*
21. *Ta'limning dastlabki davrlaridan boshlab o'quvchilarni mustaqillikka, topshirilgan vazifaga mas'uliyat bilan yondashish va shaxsiy tashabbusga o'rgatish qanday ahamiyatga ega?*
22. *Uyda tayyorlanadigan dars sinfda o'tkazilgan mashg'ulotning davomi bo'la oladimi?*
23. *Uyda mashq qilishda talabaning vaqti qanday taqsimlanadi?*

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

1. *Ijro mahorati ustida ishlashning umumiy yo'llarini tavsiflab bering.*
2. *Musiqiy asarlar ustida ishlashning umumiy yo'llarini amaliy ko'nikmalar orqali o'zlashtiring.*
3. *Ta'limning turli bosqichlarida dars o'tish uslubi yuzasidan klaster tuzing.*
4. *Uy vazifasini mustaqil bajarishni to'g'ri tashkil qilish bo'yicha prezentatsiya tayyorlang.*

Foydalanish uchun adabiyotlar.

1. *Yuldasheva S.X., "Razvitiye muzikalnogo vospitaniya i obrazovaniya v Uzbekistane" Toshkent, 1979.*

2. Yunusov R., Mamadaliev F. “Milliy musiqa ijrochiligi masalalari” Toshkent, 2001 yil.
3. Yunusov R.Y. “O‘zbek xalq musiqa ijodi” (ilmiy–uslubiy tavsiyalar) Toshkent, 2000.
4. Matyoqubov O., “Maqomot” Toshkent, 2004 yil.
5. Rasulov O‘., “An’anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi” Toshkent, 2006 yil.
6. Rajabov I., “Maqomlar masalasiga doir”, Toshkent, 1963 yil.
7. Nazarov A., “Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida” Toshkent, 1995 yil.

1.8. Ansambl va orkestr tarkibida ijrochilik

Reja:

1. Ansamblda ijrochilikning nazariy asoslari.
2. O‘zbek musiqa ijrochiligida ansambl.
3. Ansamblda cholg‘uchilar tarkibi.

Kalit so‘zlar: *O‘zbek musiqa ijrochiligi, ansambl, cholg‘uchilar tarkibi, jamoa, intonatsiya.*

Musiqiy oliy o‘quv yurtlari bakalavr bosqichini bitiruvchilariga boshqa ixtisosliklar qatori yakkaxon sozanda, ansambl ijrochisi ixtisosligi ham beriladi. Shuning uchun ta’lim jarayonida ko‘pchilik bo‘lib, ya’ni jamoa shaklida ansambllarda cholg‘u chalishni o‘rganish talaba uchun katta ahamiyatga ega. Ansambl ijrochiligida talabada yonidagi hamkasblarini har tomonlama sezish, ular bilan hamnafaslikni – jo‘rnavezlikni his qilish va hamohang bo‘lib ijro etish malakalari shakllanadi. Sozandalar ansambli ishtirokchisi bo‘lgan talabaning oldida qator vazifalar turadi. Oldin u asarlarni faqat jo‘rnavez bilan birgalikda chalib ko‘rgan bo‘lsa, endi katta bir jamoa orasida ular bilan bir tan, bir jon bo‘lib ijro qilishi, bunda barcha teng, barobar ekanligi

va doimo ustoz nazoratida bo'lishi kerakligini hech qachon esdan chiqarmasligi, zarurligi uqtiriladi.

Bunda mutaxassislik fani muallimi va jo'navozlarning hizmatlari katta bo'ladi. Ular talabaga sinf mashg'ulotlarida:

a) ansambl a'zosi jamoa ijrosini bir butun va o'z partiyasini shu ijroning bir bo'lagi deb bilishi;

b) ansambl ishtirokchisi o'z partiyasi xarakteri, sadolanishi, tovush kuchi va tovushning tozaligi (intonatsiya) va boshqa sifatlarini ansambl sozandalarining tovushlariga moslab olib borishi;

c) musiqiy jummalarni ijro etishda mohirlik, yetakchi va jo'r bo'luvchi ovozlarni almashinishini tez fahmlashi hamda shunga munosib ijro malakalarini singdirishi zarur. Ayniqsa sozandalarga xos bo'lgan ijrochilik mahorati, tovush cho'zimi, uning tozaligini har doim eshitish nazorati orqali boshqarib borishi va shaxsiy usul sezgisini jamoa usul sezgisiga bo'ysundirishi va moslashi katta ahamiyatga ega.

Talabaning shtrix va zarblari, jamoa bilan bir xilligi va uni shakllantirilishi malakalarini yaxshi egallaganligi, jamoa bo'lib ijro qilishning muhim shartlaridan biridir. Bunda oddiydan murakkabga qarab borish, sinfda va mustaqil mashg'ulotlarda izchillik, muntazamlilik hamda doimo muallimning e'tibori muhimdir.

Har xil uslublarga ergashmasdan mumtoz yo'nalishni aniqlashtirib muqim to'xtamdagi uslubda ijroni davom ettirmoq zarur. Ayniqsa o'qituvchi talabaga notanish asarni jamoaviy ijro paytida yakka o'zi ijro etishi davomida asar oxirigacha xato qilsa ham uni to'xtatish yaramaydi. Chunki talaba to'xtamasdan tez o'qishga o'rganishi zarur. Asarni oxirigacha ijro qilib bo'lganidan keyin esa talabaga xatolari tushuntiriladi va o'sha mashg'ulot boshidan yana shu tarzda davom ettiriladi. Jamoaning boshqa a'zolari ham bundan ibrat olishadi. Bunda talaba iloji boricha kamroq xato qilishi uchun quyidagicha yo'l tutish kerak:

a) yangi asar matnini ko‘rib tanishish, kuyning asl maqsadini anglash, metroritmik tuzilishi, dinamikasi, shtrixlari, asarning xarakteri va maqsadini bir qarashda aniqlash;

b) musiqiy asarni murakkab bo‘lgan joylarini hisobga olgan holda sur‘at tezligini (vaqtinchalik) belgilash;

c) talabani musiqiy matnini to‘liq qamrab olishga (ko‘rinishi, mazmuni) undash, bunda uning diqqati ijro etilayotgan bir jumla emas, bir necha jumla oldinga, hatto kuyni davomiga qaratilishi zarur.

Talabani ijro qilish va kuy matnini o‘qish, yodlash malakalarini oshirish uchun sozandalar ansambli asarlaridan olingan ijrochi uchun murakkab qismlarini takror chalish, shuningdek, o‘quvchiga tanish asarlarni boshqa pardadan (transpozitsiya) ijro qilish ham ushbu malakani yanada takomillashtiradi.

2. O‘zbek musiqa ijrochiligida ansambl

“Ansambl” (fransuzcha ensemble – birlik, uyg‘unlik, ohangdoshlik) – 2) musiqada – a) ma’lum musiqa asarlarining bir necha ijrochilar tomonidan birgalikda ijro etilishi... Ijrochilar soniga qarab ansambllar duet (2 kishi), trio yoki terset (3 kishi), kvartet (4 kishi), kvintet (5 kishi), sektet (6 kishi), septet (7 kishi), oktet (8 kishi), nonet (9 kishi) va h.k.larga bo‘linadi”¹. Oddiy qilib aytgan jamoa bo‘lib faoliyat olib borishga aytiladi. Amaliyotda juda ko‘p sohalarda va hattoki yirik inshootlarga nisbatan ham ishlatiladi.

Ansamblga berilgan bu ta’rifda musiqa ijrochiligida mavjud barcha jamoaviy ijrolarni shakli va tarkibi ifodasini topgan. Darhaqiqat ansambl ijrosi musiqa ijrochiligining barcha turlarida mavjud va ularning tarkibiy jihatlari bir-biriga mutanosibdir. Faqat ularning ijroviy jarayonidagi yo‘nalishlar ularni bir-biridan farqlab turadi. An’anaviy xonanalik ijrochiligida mavjud bo‘lgan ansambl turlari ham bunga to‘la asoslanganligi amaliyotda o‘z ijobatini topgan. Demak,

¹ O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi.-T., “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashri. 538-bet.

xonandalik amaliyotida ansambl – bu jamoa bo‘lib honish qilishga aytiladi.

O‘zbek musiqa ijrochiligida ansambl, ya’ni jamoa bo‘lib ijro etish ko‘nikmalari qachonlardir amaliyotga kirib kelganligini xalq ijodiyotidan bilib olish mumkin. Bu xalq milliy marosimlari, tomosha san’ati, teatrlashgan jamoalar xonishlarida o‘zini namoyon etib kelgan. An’anaviy ijrochilikning jamoaviy honishlari ham vaqt taqozosi bilan qo‘llanilib, sekin-asta an’anaga aylangan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Bunga asosiy sabab, asarlarning keng ko‘lamligi, katta avjlar bilan ijro etiladigan murakkablarini yaratilishi va albatta ochiq joylarda xonish jarayonlarini o‘tash sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Ilk ansambl 1923 yili To‘xtasin Jalilov rahbarligida, 1927 yili radio qoshida, Yunus Rajabiy rahbarliklarida tashkil etilib, faoliyat yuritilib kelingan. Turli tarkiblarda tuzilgan ansambllar faoliyati XX asrning birinchi yarmidayoq keng ommalashgan va amaliyotga keng joriy etilgan. 1957 yili Yunus Rajabiy rahbarligida va O‘zbekiston teleradiosi qoshida maqomchilar ansambli tashkil etilishi ulkan voqeaga aylandi. O‘zbek mumtoz musiqa merosini qayta tiklash va ijro amaliyotini mustahkamlash bilan boshlangan. Natijada Shashmaqom tarkibidagi aksariyat namunalar ijro etilib, plastinkalarga, magnit tasmalariga yozib olingan. Avvalo ushbu ansamblning tarkibi, zamonasining eng ko‘zga ko‘ringan, mashhur va ustoz san’atkorlaridan tuzilgan. Sozandalik va xonandalikda benazir ustozlar edilar. Qolaversa, Shashmaqom va maqom yo‘llarini bilimdonlari, ansambl rahbarlarining benazir maqomdon mutaxassislar bo‘lganliklari sabab musiqiy merosning to‘liq hamda mukammal ijrosiga erishganlar. Buning barchasi haligacha zamon ijrochilari uchun dasturi amal sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Ushbu ansambl dan keyingi avlod uchun ustoz Yunus Rajabiyning ijro uslubi, qoldirgan ulkan merosi namunadir. Shu bois bo‘lsa kerak har bir tashkil etilgan, ya’ni san’atkorlar jamlangan ansambl avvalo mavjud merosni o‘zlashtirishga, agar bilimi, ilmi va imkoniyati bo‘lsa

uning yangi talqinini topishga harakat qiladi. Eng muhimi o'tgan asrning 70– yillaridan boshlab turli viloyatlarda, musiqa bilim yurtlarida, madaniyat maskanlaridan jamoa bo'lib ijro etuvchi maqomchilar ansambllari tashkil etilib faoliyat yuritib kelmoqdalar. Oxirgi 30 yil davomida Yh.Rajabiy nomidagi maqom ansamblining o'zi Shashmaqomning aksariyat qismlarini yangi talqinda magnit tasmlariga yozishga muvaffaq bo'ldilar. O'zbekiston davlat konservatoriyasining An'anaviy ijrochilik kafedrasida professor – o'qituvchilaridan tashkil topgan Faxriddin Sodiqov nomidagi maqomchilar ansambli o'z faoliyati bilan ushbu sohada yana bir mukammal jamoaning bunyod bo'lganligini namoyon etdi. Bu ansamblning oliy o'quv dargohida tashkil etilganligi, kelgusi avlodning zamonga munosib tarbiyalanishida o'quv laboratoriyasi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Musiqiy merosni mukammal holda talqin etish albatta xonanda va sozandalardan saboq, bilim, malaka va mahorat talab etadi. Aynan ana shu jihatlarni, oliy ta'lim tizimida yoshlarga ulashib kelayotgan dargohda an'anaga munosib kelajak avlod tarbiyalanmoqda desak adashmagan bo'lamiz. Chunonchi, an'anaviy xonandalikni egallashga kelgan yoshlar albatta jo'rovoqlik, birgalikda ansambl bo'lib ijro etish malakalari bo'yicha ham saboq oladilar.

An'anaviy ijrochilikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri jo'rovoqlik bo'lib ijro etishdir. Jo'rovoqlik o'zbek musiqa ijrochiligining seherga boy jarayonlaridan biri sifatida amaliyotda qo'llanilib kelingan. Odatda, ikki yoki undan ortiq ovozlarning, birgalikda, bir vaqtda ijro etishi juda murakkab jarayon hisoblanadi. Xonandalarning bir-biriga mos holda tarkiblash va asarni chiroyli talqiniga erishish uchun xonandalar bir qator tabiiy va amaliy jihatlarga ega bo'lishlari kerak bo'ladi. Shu bois jo'rovoqlikning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari mavjud ekanligi qayd etiladi. Har bir xonanda ijro etadigan asar nafas bilan bog'liq bo'lganligi bu jihatni ko'rsatib beradi. Ikki va undan ortiq xonandalarning nafas olishlari va talqinda nafasni bir-biriga mos holda

qo'llashlari ahamiyatli ekanligini e'tirof etish lozimdir. Shuning uchun, xonandaning o'quv jarayoni, asarni o'zlashtirishi va mashq davri juda muhim hisoblanadi. Bu borada xonanda, ayniqsa mumtoz musiqa xonandasi ustoz ko'rishi shart. Ta'lim jarayonida ham ustozlarning e'tibor beradigan tomonlari, xonandalarga xos jihatlar hisoblanadi. Chunki, tarbiyalash davrida ularning xonandalarga xos jihatlari, ayniqsa ovozlarini egiluvchanlik, ta'sirchanlik va talqin etishga qodir bo'lishlari alohida ahamiyatga egadir. Aslida, ansambl ijrochiligi uchun xonandalardagi bu jihatlarning mutanosibliklari tanlab olinadi.

An'anaviy musiqa xonandasining ijroviy imkoniyatlarida qanday jihatlar bo'lishi kerak, yoki bular nimadan iborat ekanligini ayrim tomonlari, bir qator professional ashula ijrochiligi amaliyotining uslubiyotida ta'rif etilgan kitoblarda o'z ifodasini topgan. Xususan ularda, an'anaviy xonandalar uchun quyidagi xususiyatlar muhimligi ham nazariy va amaliy ijobatini topgan. Ya'ni: 1) tabiiy jihatlar – iste'dod, ovoz, tasavvur, idrok, tafakkur, slux (tinglash qolbiliyati), es(hofizasi kuchli) va talqin; 2) amaliy, ya'ni amaliyotda o'zlashtirishi kerak bo'lgan va ko'nikmalar hosil qilishi lozim bo'lgan jihatlar: slux (tinglash qolbiliyati)ning muntazam mashg'uloti; so'z va ohanglarni yod olish ko'nikmasini rivoji; ohang va so'zlarni idroklagan holda talqin etish ko'nikmasi; aniq talaffuz; ravon va mazmunli talqin; musiqani tinglash va ijroda unga ergashish; ovozni to'g'ri ishlatish; jo'rovozni tinglash va birgalikda talqin etish, ya'ni hamnafasni sezib ijro etish hamda asarga ijodiy munosabatda bo'lish. Aslida bu jihatlar xonandalarning kasbiy-professional ko'nikmalari bo'lishi lozim. Ayni holda ko'rsatilgan sifatlarning aksariyati ansambl ijrochiligi uchun xarakterli ekanligini qayd etish lozimdir.

Ansambl bo'lib ijro etishdagi bu jihatlarning har biri o'zining xususiyatidan kelib chiqib amaliy jihatlariga ega. Bu jihatlarning xonandalarda bo'lishi va ularni yaxshi tarbiyalanishi mukammal, an'ana va zamon talabiga mos xonandalarni etishib chiqishi uchun asos bo'ladi. Mukammal ijro maqomlarning talqini uchun eng zarur omil

hisoblanadi. Maqomlarni ohang tizimi, usullar vositalari, har bir maqomlarga xos mavzularni bilib ularning xarakterini ochib berish uchun zarur ijroviy vositalarni qo'llash, har qanday asarni avvalo talab darajasida talqin etishda va albatta tinglovchilarga mukammal tarzda yetib borishida katta ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy ijroda ansamblning ikki, uch, to'rt, olti, ko'pchilik, faqat ayol ovozlar, faqat erkak ovozlar va aralash ovozlar jo'rligidagi tarkiblar amaliyotda ko'proq qo'llanilib kelinadi. Musiqaning nazariy va amaliyotida duet, trio, kvartet, kvintet, sekstet, oktet va h.k. iboralarida yuritilib kelinadi. Bu albatta ansamblning turlariga kiradi. Har qanday ansambl o'z ishtirokchilarini har tomonlama bir-biriga munosib va mutanosib bo'lishini talab etadi.

3. Ansamblda cholg'uchilar tarkibi

O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi ashula va raqs ansambli. Shu ansambl qoshida nay, chang, prima-rubob, qashqar rubobi, afg'on rubobi, bas va kontrabas dutorlar, g'ijjak va doira chaluvchi 15 ijrochidan iborat ko'p ovozli cholg'u ansambli tuzilgan edi.

Ansambl cholg'u qismining asosiy negizini A. Maqsudov (nay), S. Yo'ldoshev (g'ijjak), B. Sharipov (doira), U. Hamidov (afg'on rubobi) kabi tajribali cholg'uchilar tashkil etgan. Ansamblning repertuari nihoyatda rang-barang bo'lgan. Ansamblning musiqa rahbari, bastakor X. Rahimov qardosh xalqlar musiqalarini cholg'ulashtirdi. Ansambl Moskvada (1951) bo'lib o'tgan o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasida muvaffaqiyatli qatnashdi. Uzoq yillar davomida M. Turg'unboyeva, G. Izmaylova, Q. Mirkarimova, E. Yo'ldoshev, I. Ergashev, K. Ismoilova kabi ajoyib ijrochilar ansambl bilan hamkorlik qilishdi. Ansamblning konsert chiqishlari Respublikaning ko'pgina shahar va viloyatlarida muvaffaqiyatli o'tdi. 1957 yilda ashula va raqs ansambli tarqatib yuborilganligiga qaramay,

soʻnggi yillarda u asos boʻlib, bir necha yangi: «Bahor», «Shodlik», «Lazgi», «Goʻzal», «Uygʻur ansambli» singari ijodiy jamoalar tuzildi.

«Bahor» xalq raqs ansambli (1957) Mashhur raqqosa, baletmeyster, xalq artisti M. Turgʻunboyeva (1913–1978) uzoq yillar mobaynida ansamblning tashkilotchisi va badiiy rahbari boʻlib keldi. Jamoaning cholgʻuchilari orasida changchi B. Aliyev (u musiqa rahbari ham), naychi R. Hamdamov, doirachilar Q. Dadayev, T. Sayfiddinov, rubobchi X. Lutfullayev, qoʻshnaychi B. Sobirov kabi ajoyib musiqachi ijrochilar ishlagan.

Ansamblning cholgʻuchilar tarkibi turli xil kuylarning, jumladan uning rahbari B. Aliyevning asarlarini mohirona ijro etishi bilan ajralib turardi. Ansambl repertuaridan, shuningdek, bastakor-kuychilar M. Mirzayev va Y. Rajabiylarning «Paxta», «Oʻzbek vals», «Uch dugona» kabi asarlari, «Namangan olmasi», «Besh qarsak», «Tanovor», «Bayot» kabi oʻzbek xalq raqslari joy olgan. 1973 yilda ansambl jamoasi Davlat mukofoti sohibi boʻldi. Ansamblning cholgʻuchilari B. Aliyev va Q. Dadayevlar ham shu mukofot bilan taqdirlandilar.

Oʻzbekiston davlat filarmoniyasining «Shodlik» ashula va raqs ansambli (1958). Uning tarkibi 12 cholgʻuchidan iborat boʻlib, unga uzoq yillar mobaynida Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist, gʻijjakchi Sayfiddin Yoʻldoshev rahbarlik qildi (u «Orom», «Nay gʻazali» kabi cholgʻu kuylarining muallifi hamdir).

Oʻzbekiston davlat filarmoniyasining «Lazgi» ashula va raqs ansambli (1958). 20 yil mobaynida Oʻzbekiston xalq artisti Gavhar Rahimova ansamblning tashkilotchisi va badiiy rahbari boʻlib keldi. Uning tarkibida xalq cholgʻulari (nay, chang, rubob, dutor, gʻijjak, doira va akkordeon) bor edi. Jamoaning vazifasi oʻzbek xalq musiqasi, qardosh xalqlar ashula va raqslarini targʻib qilishdan iborat edi. Dastlab jamoaga N. Jumanioyov, keyinroq Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist, rubobchi O. Otajonov hamda R. Sharipova rahbarlik qildilar.

O'zbek davlat filarmoniyasi «Go'zal» vokal xoreografik ansambli (1973). Taniqli bastakor M. Tojiyev uning birinchi rahbari bo'ldi. Bu jamoa yosh iste'dodlar va Respublika ijrochilik san'ati yutuqlarini targ'ib qilish niyatida tuzilgan edi. Ansamblning cholg'uchilari tarkibiga T. Sobirov (chang), SH. Yo'ldoshev (g'ijjak), D. Kimyogarov (nay), M. Madumarov (qashqar rubobi), T. Fattohov (dutor-bas) va R. Akbarbekov (doira) kabi iste'dodli sozanda ijrochilar kirdi.

50-yillarda Respublika konsert hayotida yangi ijrochilik jamoalari - O'zbekiston televideniye va radioeshittirish davlat qo'mitasi qoshida maqomchilar va dutorchi qizlar ansamblari tuzildi.

20 yil mobaynida O'zbekiston xalq artisti, akademik Y. Rajabiy maqomchilar ansamblining (1959) tashkilotchisi va rahbari, mashhur bastakor, musiqachi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi F. Sodiqov esa ansamblning badiiy rahbari bo'lib faoliyat olib bordilar. Ijodiy jamoa an'anaviy ijrochilik san'atiga asoslanib Buxoro Shashmaqomi, uning Farg'ona - Toshkentcha varianti va o'zbek xalq musiqasining eng mashhur namunalarini ijro etdilar. Hozirda maqomchilar ansambli cholg'usi tarkibiga nay, chang, qonun ruboblar, tanbur, sato¹, dutorlar, g'ijjaklar va doira kiritilgan.

1984 yildan esa O'zbekiston xalq artisti A. Ismoilov ansamblning badiiy rahbari etib tayinlandi.

Mashhur musiqachi bastakor lirik qo'shiqlar va cholg'u kuylari muallifi, O'zbekiston xalq artisti, ajoyib g'ijjakchi G'. Toshmatov dutorchi qizlar ansamblining (1979) tashkilotchisi va rahbari bo'ldi. Tinglovchilari ansambl ijrochilik repertuarining o'ziga xosligi va rang-barangligi rom etadi. Ansamblning o'ziga xos hususiyati shundaki, dutorchi qizlar xalq an'anasini saqlab kelmoqdalar: ular dutor chalish bilan birga qo'shiq ham aytishadi. Ayrim hollarda ularniig ijrosi yakkaxon raqqosalarga jo'r bo'lish vazifasini bajaradi («Xorazm lazgisi», «Doira dum-dum»). Jamoada 22 cholg'uchi (dutorchi, changchi, qonunchi, doirachi) bor.

¹ Сато – узун грифли торли-камончали чолғу. Тембрининг жаранглаши инсон овозига, алыт жаранглашга яқин.

Toshkent davlat konservatoriyasi changchilar ansambli tarkibida chang oilasiga mansub pikkolo, an'anaviy, tenor, bas va kontrabas changlar kiradi. Ansambl repertuaridan turli mualliflarning 100 dan ortiq asarlari o'rin olgan. Changchilar ansambli 1970 yili Moskvada o'tkazilgan bolalar va o'smirlarni musiqiy-estetik tarbiyasi bo'yicha xalqaro anjumanda qatnashish huquqiga ega bo'ldi. Anjuman so'ngida ansambl diplom bilan taqdirlandi.

1972 yilda yana bir ansambl - g'ijjakchilar kvarteti tinglovchilar hukmiga havola etildi. Uning tarkibi B. Rasulov (g'ijjak), B. Yaminov (g'ijjak), X. Komilov (qo'biz-bas) va M. Toshmuhamedov (g'ijjak-alt) dan iborat. M. Toshmuhamedov ansamblni tuzish tashabbuskori bo'ldi. G'ijjakchilar kvarteti musiqaning yangi shakli sifatida muvaffaqiyatli konsert ijrochilik faoliyati olib bordi, mehnat jamoalari, o'quvchi yoshlar, radio va teleko'rsatuvlarda chiqishlar qilgan.

Toshkent davlat konservatoriyasining g'ijjakchilar kamer ansambli (1984) ham M. Toshmuhamedov tashabbusi bilan tuzildi. Uning tarkibida 18 cholg'uchi bo'lib, ulardan 12 nafari - g'ijjakchi, 3 nafari g'ijjak-altchi, 2 nafari qo'biz-baschi, 1 nafari qo'biz-kontrabaschi.

So'nggi paytda konsert tashkilotlarida, musiqa bilim yurtlarida, musiqa havaskorlari to'garaklarida turli tarkibdagi ko'povozli ansambl-lar tuzilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda. Ansambl ijrochiligi tajribasi ansamblarning oqilona guruhlarini tashkil qilishni taqozo etmoqda. Chunonchi, ular quyidagilardir: a) damli cholg'ular ansambli (ikkita qo'shnay, ikkita nay); b) chang oilasiga mansub chang kvarteti yoki kvinteti (bitta pikkalo, ikkita chang, tenor yoki bas chang) v) mizrobli cholg'ular seksteti: 2 ta prima-rubobi, qashqar rubobi, afg'on rubobi, dutor bas va dutor kontrabas; g) dutor oilasidan iborat ansambl: 2 ta prima, 4 ta alt, 2 ta bas va 1 ta kontrabas; d) g'ijjaklar kvarteti yoki kvinteti: 2 ta g'ijjak, g'ijjak-alt, g'ijjak bas va g'ijjak (qo'biz) kontrabas; ye) aralash ansambl-lar: 1 ta nay, 1 ta qo'shnay, 1 ta chang, 2 ta qashqar rubobi, 2 ta afg'on rubobi va 1 ta doira. Bu ansambl

tarkibi ham ko‘povozli, ham an‘anaviy o‘zbek xalq musiqasini ijro eta oladi.

Ansambllarning asosiy qamchiligi repertuar muammosi bo‘lib qolmoqda. Bu bilan O‘zbekiston bastakorlari, yetakchi mutaxassislar, Respublikaning musiqa oliy va o‘rta maxsus bilim yurtlari o‘qituvchilari original asarlar yaratish, shuningdek o‘zbek xalq musiqalarinn moslashtirish va qayta ishlash orqali yaqindan shug‘ullanishlari zamon talabi hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. *Ansambl asarlari ustida ishlashda mutaxassislik bo‘yicha muallim va jo‘rnavozning roli qanday?*
2. *Ansambl ijrochiligida sozanda qanday malakalarni egallaydi?*
3. *Kuy matnini chalish, ijro mahorati a to‘g‘ri shakillantirilishi jamoa bo‘lib ijro qilishning qanday shartlaridan hisoblanadi?*
4. *Ansambl ijrosi rivojlantirishda boshqa pardadan (transpozitsiya qilib) chalishning ahamiyati bormi?*
5. *Ansambllar yakka ijrodan farqi bormi?*
6. *Jo‘rnavozlarnilarning ijrosi hamohang bo‘lishi shartmi?*

Mustaqil ta‘lim uchun topshiriqlar:

6. Ansambl tushunchasini tavsiflab bering.
7. Ansamblda ijrochilikning nazariy asoslari yuzasidan internet materiallari bilan tanishib chiqing.
8. O‘zbek musiqa ijrochiligida ansamblning roli va ahamiyatini yoritib bering.
9. Ansamblda cholg‘uchilar tarkibini chizmalar asosida tasvirlang.

Foydalanish uchun adabiyotlar.

1. Axmedov M., “Xoji Abdulaziz Abdurasulov” Toshkent, 1974 yil.

2. Begmatov E., Tursunpo‘latov M., “O‘zbek nutqi asoslari” Toshkent, 1992 yil.
3. Begmatov S. “Hofizlik san’ati” Toshkent, 2007 yil.
- Matyoqubov O., “Maqomot” Toshkent, 2004 yil.
4. Rasulov O‘., “An’anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi” Toshkent, 2006 yil.
5. Rajabov I., “Maqomlar masalasiga doir”, Toshkent, 1963 yil.
6. Nazarov A., “Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida” Toshkent, 1995 yil.

1.9. Takomillashtirilgan, ta’mirlangan, so‘nggi damlarda yasalgan noyob cholg‘ularni ansambl va orkestrlarda hamda yakkanavoz va jo‘rnavoz soz sifatida qo‘llanilishi

Reja:

1. Rekonstruksiya qilingan cholg‘u sozlari.
2. Kamonli cholg‘ularining takomillashtirilishi va ijrochilik xususiyatlari.
3. An’anaviy cholg‘u sozlarining takomillashtirilishi

Kalit so‘zlar: rekonstruksiya, kamonli cholg‘ular, takomillashtirish, cholg‘u sozlari, tovushqator, dasta.

1. Rekonstruksiya qilingan cholg‘u sozlari.

XX asrning 30-yillarida o‘zbek xalq cholg‘ularini rekonstruksiya qilish ishlari boshlandi. Bunga taniqli san’at arbobi, pedagog va dirijyor Ashot Ivanovich Petrosyans rahbarlik qildi. Olib borilgan izlanishlar natijasida mizrobli hamda torli-urma o‘zbek xalq cholg‘ulari yarim tonlik tovushqatorga ega bo‘ldi. Ularning tovush sifati va kuchi yaxshilandi, diapazoni kengaydi. Bundan tashqari, o‘zbek xalq cholg‘ulariga asoslanib, yangi cholg‘ular yaratildi. Shunday cholg‘ulardan biri rubob-prima bo‘lib, unda orkestr tarkibida yetakchi

partiyalarni ijro etish bilan bir qatorda yakkanavoz soz sifatida ham murakkab asarlarni ijro etish imkoniyati yaratildi.

Rubob-prima cholg'usi yaratilgan vaqtdan beri o'tgan qariyb 80 yil mobaynida ushbu cholg'uda ijro etishni o'rgatish respublikamizdagi boshlang'ich, o'rta maxsus hamda oliy ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yildi. Rubob-primada ijrochilik san'atini mukammal egallagan o'nlab sozandalar yetishib chiqdi. Ular orasida respublika va xalqaro tanlovlar sovrinlariga ega bo'lgan yetuk sozandalarni ko'rishimiz mumkin.

Rubob prima cholg'usi yangi yaratilgan cholg'u bo'lishiga qaramay, bugun o'zbek cholg'u ijrochiligida o'ziga xos va mos o'ringa ega bo'lishga ulgurdi. 1948 yilda Toshkent davlat konservatoriyasida orkestr fakulteti tarkibida "*Xalq cholg'ulari bo'limi*" ochilishi, hamda u yerda dastlabki uch talaba *Ahmad Odilov*, *Valentina Borisinko* va *Feoktist Vasilyevlar* chang, rubob prima va qashqar rubob cholg'usi bo'yicha tahsil olganliklari, kelgusida ushbu cholg'ular bo'yicha professional mutaxassislar tayyorlanishiga zamin bo'ldi. Keyinchalik konservatoriya dotsenti lavozimida faoliyat olib borgan V.Y.Borisenko (1919 - 1990) o'qishni bitirgach konservatoriyada rubob prima cholg'usidan talabalarga dars berib, uzoq yillar mobaynida o'nlab mohir sozandalarga ustozlik qildi. Ular orasida A.Malikov, G.Saleva, B.Yo'ldoshev, M.Rahimov, B.Azimov, SH.Janaydarov, A.Dadamammedov kabi iqtidorli ijrochilar bor.¹

Rubob prima ijrochiligi jarayoni bevosita orkestr ijrochiligi bilan chambarchas bog'liqligini alohida ta'kidlash lozim. Chunki cholg'ularning yangi turlarini yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri ham, aynan o'zbek xalq cholg'ulari orkestri diapozoni, uning ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat bo'lgan. Rubob prima orkestrning ijro imkoniyatlari va diapozonini kengaytiribgina qolmay, uning tembr xususiyatlarini ham boyitdi.

¹ А.Одилов. Ўзбек халқ чолғуларида ижрочилик тарихи. Т. "Ўқитувчи", 1996.

T.Jalilov nomidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari akademik orkestrining ko‘p yillik faoliyati davomida MDH davlatlarining ko‘plab shaharlarida va xorijiy mamlakatlarda o‘zbek cholg‘u ijrochilik san’atini yuksak professional darajada namoyish qilib kelgan.

Bu jamoada ko‘pgina iqtidorli rubob prima cholg‘usi sozandalari ijod qilganlar. Bulardan B.Azimov, SH.Ziyayev, A.Muborakov, N.Sharipov, A.Yusupov, O. Akbarov, M.Otaxo‘jayev, O.Samadov, N.Tursunova, O.Gochbakarov, N.Sodiqova, K.O‘rinboyev kabi sozandalarni aytib o‘tish mumkin. Bu sozandalar o‘zlarining ijrochilik faoliyatlari davomida rubob prima cholg‘u ijrochiligini rivojlantirish, ijro imkoniyatlarini to‘liq ochib berish, konsert ijrochilik dasturlarini shakllantirish va boyitishga katta hissa qo‘shdilar.Xususan, SH.Ziyayev rahbarligida rubob primachi sozandalar kvartet, duet ko‘rinishidagi ansambl ijrolari tahsinga loyiq. Bu ansambl muntazam konsert ijrochilik faoliyatini olib borishlari natijasida 1983 yil SH.Ziyayev ijrosida va 1990 yilda esa xalqaro va respublika tanlovlari g‘olibi M.Otaxo‘jayev ijrosida bir qancha asarlar gramplastinkaga yozib olingan. Bundan tashqari ijro repertuarini boyitishda O‘zbekiston kompozitorlari bilan hamkorlik katta samara berdi. Natijada rubob prima cholg‘usi uchun yaratilgan maxsus asarlar paydo bo‘ldi. Bulardan: M.Mahmudov “Qo‘shiq va raqs”, “Tokkata”, H.Rahimov “Naqsh va tarona”, A.Varelas “Rubob prima va fortepiano uchun Konsert”, O.Abdullayeva “Konsert pyesasi”, N.Norxo‘jayev “Navro‘z uforisi” kabi asarlarni aytib o‘tish mumkin. Shu bilan birga rubob prima cholg‘usida jahon va qardosh xalqlar kompozitorlari ijod namunalari yuksak mahorat bilan ijro etib kelinmoqda. Masalan, N.Paganini “Venetsiancha karnaval”, K.Kujamyarov “Konsert pyesasi”, Ditel qayta ishlagan rus xalq kuyi “Korobeyniki”, rumin xalq kuyi “Mart xorovodi” kabi asarlar ijro repertuardan mustahkam o‘rin olgan.

2. Kamonli cholg'ularning takomillashtirilishi va ijrochilik xususiyatlari

Kamonli cholg'ular oilasiga taalluqli g'ijjak-alt ham yangi yaratilgan soz bo'lib, navbatdagi vazifa ana shu cholg'uda professional ijrochilarni tayyorlash zarur edi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ustalar xalq cholg'ularini hozirgi zamon ijrochiligi talablaridan kelib chiqib, boshqa cholg'ular qatori g'ijjakni ham nota yo'lidagi ijrochilikka moslab takomillashtirdilar.

Avval g'ijjakning dastasi o'zgardi. An'anaviy g'ijjakda dasta dumaloqroq bo'lib, kosa tomoni ingichkalashgan. G'ijjakchilar asosan dastaning kengroq qismida (yuqori xarrakdana so'ng) barmoqlarni yurgizib, baland pozitsiyalarga kamdan-kam o'tib ijro qilar edilar. Takomillashgan g'ijjakda esa dastaning barmoqlar qo'yiladigan tomoni tekisroq hamda kosa tomonga kengayib boradigan qilib ishlandi. Buning natijasida g'ijjakning amalda foydalaniladigan diapazoni (tovush hajmi) ancha kengaydi. Tabiiyki, bu o'z-o'zidan g'ijjakchi sozandaga yuqori pozitsiyalarda chalishga katta imkoniyatlar yaratdi. Bir necha asrlar davomida jahon kompozitorlari tomonidan yaratilgan durdona mumtoz kuylarni g'ijjakda ijro etish mumkinligi amalda tasdiqlandi. Buni XX asrning 60-70 yillaridan boshlab, hozirgi davrimizga qadar ijrochilik sohasida tanilgan bir necha g'ijjakchi sozandalar misolida ko'rish mumkin. 1971 yil fevralida o'tkazilgan respublika tanlovida yosh g'ijjakchilar Shuhrat Yo'ldoshev, Botir Rasulov g'olib chiqib, birinchi darajali Laureat unvoniga sazovor bo'ldilar. Ushbu o'quvchilarni tarbiyalashda ustoz Obid Xolmuhamedovning xizmatlarini alohida ta'kidlamoq zarur. Kamina ham Toshkent davlat konservatoriyasida Obid Xolmuhamedov sinfida tahsil olgan (1957-1961 yillar). Shuhrat Yo'ldoshevning yana katta muvaffaqiyati 1973 yilda Voronejda o'tkazilgan sobiq Ittifoq tanlovida birinchi o'rinni egalladi. Shu tanlovda Shuhrat Yo'ldoshev ijro etgan asarlar ro'yxatini keltirish maqsadga muvofiqdir.

3. An'anaviy cholg'u sozlarining takomillashtirilishi.

«Xushnavo» cholg'usi – tarixiy changning bugungi kundagi yangi yaratilgan nusxasi bo'lib, tabarruk o'tmishimizning bizga qoldirgan juda katta boyliklaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Cholg'uning asl nusxasi andazasi Temuriylar sulolasi yashagan va xukmronlik qilgan vaqtlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, mazkur cholg'u xonaki bazmlarda ko'proq ayollar tomonidan chalingan. Miniatyura asarlaridagi tasvirlarda ham bu holat o'z ifodasini topgan. Changning tarixiy manbalarda tasvirlari borligi cholg'uni tiklash borasida ko'l keldi, deyish mumkin. Cholg'uning 1995 yilda yaratilgan yangi turini milliy ansambllarda, yakka ijrochilikda, shuningdek ko'p ovozli orkestrlarda ham bimalol qo'llash imkoniyati tug'ildi. «Xushnavo»ning bu nusxasi barcha iqlimiy sharoitlarda ham sozining o'zgarmasligi bilan alohida ahamiyatga ega.

«Meros» cholg'usining shaklu-shamoyili Alisher Navoiy asarlariga chizilgan miniatyuralardagi tasvirlardan olingan. Xususan, “Bazmda” deb nomlangan miniatyurada sozanda qo'lida tasvirlangan cholg'u sozgarlar uchun asos bo'lgan. 1993 yili uning chizmasi yaratilib, 1995 yilda uning birinchi va ikkinchi nusxalari tayyorlanib, sinovdan o'tkazildi.

«Meros»ning dastasida pardalar yo'q, mizrob (plektor) bilan tirnab chalinadi. Tovushining mungliligi bilan tarixiy sozlar sadosini beradi. Unda hosil qilinadigan tovushlarining o'ziga xosligi, salobati va boshqa cholg'ularda takrorlanmasligi bois uni aslan tarixiy, shaklan yangi musiqa cholg'usi deyishga asos bo'la oladi. Unda ham maqom kuylarini, ham zamonaviy bastakorlar asarlarini bimalol ijro etish imkoniyati mavjud. Xalqaro Bobur jamg'armasi homiyligida o'tkazilgan iqtidorli yoshlar ko'rik-tanlovida Abdumalik Madraimov «Meros» cholg'usi bilan ishtirok etib sovrindor bo'ldi.

Usta Abdumalik Abduraimov tomonidan yaratilgan mazkur musiqa cholg'ulari Andijonda tashkil etilgan «Meros» ansambli sozandalari

tomonidan mukammal sinovdan o'tkazildi. Mazkur cholg'ulardan tashkil topgan sozandalar guruhi ijrosida ko'plab milliy musiqamiz namunalari mohirona ijro etildi. Ansambl ana shunday festivallarda ishtirok etib muvaffaqiyat qozonib kelmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Rekonstruksiya deganda nimani tushunasiz?
2. Rekonstruksiya jarayonlari qaysi davrdan boshlangan?
3. Rekonsruksiya jarayonlarida cholg'ularga qanday o'zgartirishlar kiritildi?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

10.O'zbekiston davlat konservatoriyasi cholg'u sozlari laboratoriyasi faoliyati bilan tanishib chiqing.

11.Rekonsruksiya qilingan cholg'ulardagi o'zgarishlarni aniqlang va tavsiflab chiqing.

12.An'anaviy ijrochilikda cholg'u sozlarining takomillashtirilishi.

Foydalanish uchun adabiyotlar.

1. Olimboeva K., Ahmedov M., "O'zbekiston xalq sozandalari" Toshkent, 1959 yil.

2. Hamidov H. "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi" Toshkent, 1996 yil.

3. Hamidova M.A., Ibroqimov O., Mulajonov D., "Xonandalik san'ati, Jahon va O'zbek milliy an'analari", Toshkent, 2009 yil.

4. Matyoqubov O., "Maqomot" Toshkent, 2004 yil.

5. Rasulov O'., "An'anaviy xonandalik o'qitish metodikasi" Toshkent, 2006 yil.

6. Rajabov I., "Maqomlar masalasiga doir", Toshkent, 1963 yil.

7. Nazarov A., "Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida" Toshkent, 1995 yil.

PEDAGOGIK DASTURLAR RO‘YXATI

- Rajabiy Y. “O‘zbek xalq musiqasi” I, II, III, IV, V tomlar 1955–59 y.
- Rajabiy Y. “Shashmaqom” I, II, III, IV, V tomlar T. 1966–72 y.
- Rajabiy Y. “Musiqqa merosimizga bir nazar” T. 1978 y.
- Romanovskaya E. “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” T. 1939 y.
- Romanovskaya E. “Zapisi muzikalnogo folklora” T. 1957 y.
- Yusupov M. “O‘zbek xalq musiqasi” T. VII, IX tom, 1962 y.
- Yusupov M. “Xorazm maqomlari” VI tom, T 1961 y.
- Yusupov M. “Xorazm maqomlari” I, II, III, IV, V tomlar 1980–84 y.
- Ibrohimov O. “Sahih suvoriylar” T. 2004 y.
- Xudoynazarov M. “Hojixon Boltaev” T. 2004 y.
- Xudoynazarov M. “An’anaviy yakkaxon qo‘shiqchilik” T. 2005 y.
- Xudoynazarov M. “Sarvi xiromonim mening” T. 2006 y.
- Xudoynazarov M. “An’anaviy ansambl” T. 2006 y.
- Xudoynazarov M. “Qalb navolari” T. 2011 y.
- Matyoqubov B. “Doston navolari” T. 2009 y.
- Jalilov A. “Kommuna Ismoilova” T. 2009 y.
- Matyoqubov O., Boltaev R., Aminov H. “Xorazm tanbur chiziqi” T. 2010 y.
- Bo‘riyeva K. “An’anaviy xonandalik” T. 2008 y.
- Yunusov R. “Fahridin Sodiqov” T. 2005 y.
- Begmatov S. “Orifxon Hotamov” T. 2000 y.
- Mannopov S. “So‘nmas Navolar” Farg‘ona 2002 y.
- Matyusupov E. “Ustozni eslab” Urganch 2007 y.
- Zokirov P. “Bastakorlik ijodiyoti” T. 2009 y.
- Ahmedova N. “G‘ulomjon Hojiqulov” T. 2008 y.
- Rajabov I. “Maqomlar masalalariga doir” T. 1971 y.
- G‘anieva I. “Tanovorlar” T., 2003.
- Suyunova Z. “G‘anijon Toshmatov” T., 2009.
- Matyakubov M. “An’anaviy ijrochilik uslubi” T. 2015 y.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, T., “O‘zbekiston”, 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni// Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq NMAK, 1997. – 20-29-b.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq NMAK, 1997. – 32-62-b.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyoev SH. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston. 2016. – 59 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997, – 23 b.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston – buyuk kelajak sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998. – 683 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.- 167 b.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (1995 yil, 20 oktabr) Farmoni // O‘zbekiston ovozi. – Toshkent: 1995, 21 oktabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 8 avgust, PQ-3178-son Qarori // – Toshkent. Xalq so‘zi. 2017 yil 9 avgust. № 156 (6850)-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabridagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabr “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-son qarori.

IV. Asosiy adabiyotlar

1. Аспелунд Д., “Развитие певца и его голоса” Москва–Ленинград, 1952.

2. Axmedov M., “Xoji Abdulaziz Abdurasulov” Toshkent, 1974 yil.

3. Babskiy E.B., Glebovskiy V.D., Kogan A.B.. “Fiziologiya cheloveka”, Tibbiyot institutlari uchun o‘quv qo‘llanma, Moskva, 1984 yil.

4. Багадуров В. “Очерки по истории вокальной методологии” 2–нашр, Москва, 1956.

5. Баранек Л. “Акустические измерения” Москва, 1952.

6. Баранвский П., Ютсевич Э. “Звуковыстний анализ свободного мелодического строя” Киев, 1956.

7. Барсов Й. “Вокально–исполнительские и педагогические принципы” Ленинград, 1968.

8. Begmatov E., Tursunpo‘latov M., “O‘zbek nutqi asoslari” Toshkent, 1992 yil.

9. Begmatov S. “Hofizlik san’ati” Toshkent, 2007 yil.

10. Begmatov S. “Orifxon Hotamov” Toshkent, 2000 yil.

11. Беязев В., “Музыкальная фольклористика в Узбекистане” Тошкент, 1963.
12. Ғофурбеков Т.Б. “Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчества” Тошкент, 1984.
13. Голубев П.В., “Советы молодым педагогам – вокалистам”, Москва, 1963.
14. Hamidov H. “O‘zbek an‘anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi” Toshkent, 1996 yil.
15. Hamidova M.A., Ibroqimov O., Mulajonov D., “Xonandalik san‘ati, Jahon va O‘zbek milliy an‘analari”, Toshkent, 2009 yil.
16. Ibroqimov O. “Sahih suvoriylar” Toshkent, 2004 yil.
17. Иброхимов О., “Фергано-Ташкентские макомы” Тошкент, 2006.
18. Jabborov A.H. “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” Toshkent, 2004 yil.
19. Jalilov A. “Kommuna Ismoilova” Toshkent, 2009 yil.
20. Jumaniyozov R., “Qadimiy Xorazm tarixi” Urganch, 1993 yil.
21. Kaykovus “Qobusnoma” Fors tilidan Muhammad Rizo Ogaqiy tarjimasini, nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov, Toshkent, 2006 yil.
22. Koncheva I., Yakovleva A., “Vokalniy slovar” lug‘at. Leningrad, 1986 yil.
23. Лапис Г.А., “Здоровье всей семьи” Санкт-Петербург, 2003.
24. Mannopov S. “So‘nmas Navolar” Farg‘ona, 2002 yil.
25. Matyoqubov B., “Doston navolari” Toshkent, 2009 yil.
26. Matyoqubov O., “Maqomot” Toshkent, 2004 yil.
27. Matyusupov E. “Ustozni eslab” Urganch, 2007 yil.
28. Nazarov A., “Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida” Toshkent, 1995 yil.

29. Olimboeva K., Ahmedov M., “O‘zbekiston xalq sozandalari” Toshkent, 1959 yil.
30. Привес М.Г., Лисенков Н.К., Бушкович В.И., “Анатомия человека” Москва, 1985.
31. Rajabov I. “Maqomlar” (nashrga tayyorlovchi O.Ibroqimov) Toshkent, 2006 yil.
32. Rajabov I., “Maqomlar masalasiga doir”, Toshkent, 1963 yil.
33. Rasulov O‘., “An‘anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi” Toshkent, 2006 yil.
34. Salixov B.S.va Matyoqubov B.J., “O‘zbekistonda damli va zarbli cholg‘ular ijrochiligi tarixi”, Toshkent, 2007 yil.
35. Визго Т. “Развития музыкального искусство Узбекистана и его связи с русской музыкой” Москва, 1970.
36. Юлдашева С.Х., “Развитие музыкального воспитания и образования в Узбекистане” Тошкент, 1979.
37. Yunusov R., Mamadaliev F. “Milliy musiqa ijrochiligi masalalari” Toshkent, 2001 yil.
38. Yunusov R.Y. “O‘zbek xalq musiqa ijodi” (ilmiy–uslubiy tavsiyalar) Toshkent, 2000.

Maqolalar

1. Matyoqubov Ch.. “Mumtoz navolar” “Yoshlar” radiokanali arxividan. Toshkent, 2004 yil.
2. “Navosoz yurakdan o‘lmas navo” kitobidan, Toshkent, 2005 yil.
3. AQCh, Arizonadagi Tukson universiteti olimlari, “Medical atlas” 1990 yil.
4. Niyoziy X.X. nomidagi Respulika musiqa kolleji o‘qituvchilari, “Maqolalar to‘plami”, Toshkent, 2005 yil.
5. Maqola va ma‘ruzalar to‘plami, “Shashmaqom sabog‘lari” Toshkent, 2005 yil.
6. Ro‘zieva M., Salomova G. “So‘fiylar marosimlarida musiqa va raqs” “San‘at” jurnali 2–soni, 2008 yil.

7. Boltaeva H. “O‘zbek mumtoz musiqasi” “Yoshlar” radiokanali arxividan Toshkent, 2010–2011 yil.

8. Matyoqubov Ch. “Mumtoz navolar”, “Mash’al” radiokanali uchun tayorlangan turkum eshittirishlar, Toshkent, 2011–2012 yil.

Dissertatsiyalar

1. Абдуллаев Р., “Жанр катта ашула и его носители”, (санъашунослик фанлари номзоди диссертацияси), Тошкент, 1982 йил.

2. Mullaqandov D., “O‘zbek xonandaligi borasida ba’zi juz’iy masalalar va rus vokal maktabi badiiy estetik talablari va tajribalari bilan bog‘liqligi” (nomli san’atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati) Leningrad, 1954 yil.

3. Madraimov B.X. “Xorazm musiqa folklori vositasida 5–7 sinf estetik tarbiyalash” (Pedagogika fanlari nomzodlik dissertatsiyasi) Toshkent, 2008 yil.

4. Набиева М.А. “Исползование народной музыки в системе музыкально-педагогического образования” (Педагогика фанлари номзоди диссертациясининг автореферати) Душанбе, 1994.

Internet saytlari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
3. <http://www.youtube.com>
4. <http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqa>

5. **www musika uz**
6. **http://portasound.ru/music-search/musiq-a-olami**
7. **www musika uz**
8. **http://portasound.ru/music-search/musiq-a-olami**

M U N D A R I J A

Kirish.....3

I MODUL. CHOLG‘U IJROCHILIGINI O‘QITISH USLUBIYOTI

1.1. Tarixiy-amaliy ma‘lumotlar..... 5

1.2. Ijrochilikni o‘zlashtirish..... 21

**1.3. Ijrodagi bezaklar, zarblar, yakkanavoz, va turli
tarkibdagi cholg‘u ansambllarida ijrochilik masalalari.....47**

1.4. Ijrochilikning nazariy va amaliy asoslari.....59

**1.5. Musiqa asarlari ustida ishlash, o‘rgatish, turli ijro yo‘llarini
farqlay olish, ustoz sozanda va xofizlar ijrochilik faoliyatlari haqida
ma‘lumot..... 69**

1.6. Ustoz-shogird an‘analari..... 106

Ansambl va orkestr tarkibida ijrochilik.

**1.7. Takomillashtirilgan, ta‘mirlangan, so‘nggi damlarda
yasalgan noyob cholg‘ularni ansambl va orkestrlarda hamda
yakkanavoz va jo‘rnnavoz soz sifatida qo‘llanilishi.....128**

ABDUFATTOX ABDUGAPPAROV

CHOLG‘U IJROCHILIGINI O‘QITISH USLUBIYOTI

**Muharrir – Jamalov L.O.
Musahhih – Islomova H.S.
Texnik muharrir – Gulomov A.T.**

«Fan ziyosi» nashriyoti. Litsenziya № 3918

Nashriyot manzili: Toshkent shahar Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: pachaxanovich@mail.ru. +998933764407.

Bichimi 60x84 ¹/₈. «TimesNewRoman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabog‘i 10. Adadi 300. Buyurtma № 12

“Fan va talim poligraf” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 24-uy